

2025, 1-son

NAVOIY DAVLAT UNIVERSITETI

AXBOROTNOMASI

2025



+998993115155



www.nsuni.uz

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR
VAZIRLIGI**

NAVOIY DAVLAT UNIVERSITETI

A X B O R O T N O M A S I

2025, № 1

NAVOIY – 2025

TAHRIRIYAT HAY'ATI:

Bosh muharrir:

I.f.d-ri, prof.M.B.Kalonov

Bosh muharrir o'rinbosari

DSc.R.H.Davlatova

Mas'ul kotib

PhD.D.F.Jabborova

Tahririyat hay'ati a'zolari:

Akademik Sh.Ayupov

Akademik I.D.Lelsitskiy

Akademik N.J.Kalonov

Akademik K.Sh.Tojibayev

Akademik S.Negmatov

Akademik B.Zaripov

Akademik R.Jo'rayev

Akademik X.Ibragimov

Director at House of

Leading&Learning Oy Hanne

Koli (Finland)

P.f.d., prof. Azizuddin Khan

(Kanpur IIT, Hindiston)

PhD. Tabassum Qazi (Kanpur

IIT, Hindiston)

F.f.d, prof. Z.N.Xudoyberganova

(Bartın Universiteti, Turkiya)

к.п.н. доцент Пежемская

Юлия Сергеевна (Санкт-

Петербург, Россия)

F.f.d., prof. D.Lutfullayeva

P.f.d., prof. O.Musurmonova

Iqt.f.d., prof. N.Murodova

P.f.d., prof. D.Narzikulova

P.f.d., prof. A.Ahmedov

F.f.d., prof. M.Ernazarova

F.f.d., prof. N.Safarova

I.f.f.d. I.S.Zaynutdinov

I.f.f.d. M.Kalonova

T.f.d. A.Aminova

B.f.d. S.Shodiyev

P.f.d. U.Mirsanov

T.f.n., prof. I.Kamolov

T.f.n. X.Qurbonov

P.f.n. T.O'tapov

P.f.n. G'.R.Yodgorov

F.-m.f.n. R.Ro'ziyev

F.f.n. T.Xo'jaev

F.-m.f.n. B.Izbosarov

B.f.n. A.Kushakov

Texnik muharrirlar:

A.Bahromov

I.Mahmudov

S.Saydullayev

Manzil: Navoiy sh., Ibn Sino ko'chasi, 45-uy.

Navoiy davlat universiteti, Bosh bino.

Tel.: (8436) 522-19-30, Faks: 225-19-30; web-sayt: nspi.uz

e-mail: @nspi.uz yoki isfan2006@mail.ru

MUNDARIJA // CONTENTS:

PEDAGOGIKA			
1	Ibraimov X.I.	Zamonaviy sharoitda MTT tarbiyachilari professional-kommunikativ kompetentligini rivojlantirishning pedagogik aspektlari	6-11
2	Xudaybergenova Z.N.	Til o'qitishda kommunikativ kompetensiyani shakllantirishning ijtimoiy-psixologik omillari	11-20
3	Пежемская Ю.С., Терентьева Ю.А.	К проблеме создания опросника педагогической оценки адаптации студентов к обучению в вузе	20-31
4.	Samiyeva SH.X Ruziyeva Sh.F	Oliy ta'lim muassasalarida akademik mobillikni joriy etish pedagogik muammo sifatida	32-39
5.	Jalilov Sh.I.	Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida musiqa mashg'ulotlarini tashkil etishning zamonaviy integrativ usullari	39-49
6.	Korayeva L.Z.	Boshlang'ich sinf o'quvchilarida munosabat motivatsiyasi shakllanishining ijtimoiy – psixologik xususiyatlari	49-56
7.	SHamiyeva O.R.	Влияние цифровых технологий на обучение и психическое развитие детей дошкольного возраста	57-65
8	Xolmatova Zulfiya Tillavoldievna	Hozirgi ijtimoiy-madaniy o'zgarishlar sharoitida oila tarbiyasining roli	65-75
TILSHUNOSLIK			
9.	Davlatova R.H.	So'zning inson ruhiyati va tanasiga ta'siri to'g'risida ayrim mulohazalar	76-81
10.	Саидова М.Р.	Система работ над глагольными синонимами	82-89
11.	Haydarova D.	Xushmuomalalik va nutqiy etiket munosabati	90-94

EKOLOGIYA			
12.	Karimova D.A.	Ekologik muammolar va ularni hal etishda fanlarni ekologiyalashtirishning ahamiyati	95-101
TARIX			
13.	Toshturov Sh.E.	BMT va O'zbekiston: global dasturlar doirasidagi hamkorlik masalalari	101-108
14.	Narzullayev U.O.	Sarmishsoy merosini o'rganishning ba'zi masalalari	108-115
ADABIYOTSHUNOSLIK			
15.	Suvonqulova L.M.	Adabiyotshunoslikda badiiy obraz va obrazlilik xususiyati	115-121

PEDAGOGIKA

ZAMONAVIY SHAROITDA MTT TARBIYACHILARI PROFESSIONAL-KOMMUNIKATIV KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK ASPEKTLARI

Ibraimov Xolboy Ibragimovich

T.N.Qori Niyoziy nomidagi O'zbekiston pedagogika fanlari ilmiy tadqiqot
instituti direktori, pedagogika fanlari doktori, akademik.

Annotatsiya. Mazkur maqolada professional-kommunikativ kompetentlik mohiyati, uning MTT tarbiyachisi faoliyatidagi ahamiyati, professional-kommunikativ kompetentlik tarbiyachi shaxsining o'ziga xos xususiyatlar majmui ekanli asoslangan. Har bir tarbiyachi ega bo'lishi zarur bo'lgan kompetentsiyalar: ijtimoiy kompetentlik, maxsus kompetentlik, psixologik kompetentlik, metodik kompetentlik, kreativ va kommunikativ kompetentlik tushunchalari izohlangan.

Kalit so'zlar: professional-kommunikativ kompetentlik, tarbiyachi shaxsi, kompetentsiya, ijtimoiy kompetentlik, maxsus kompetentlik, psixologik kompetentlik, metodik kompetentlik, kreativ va kommunikativ kompetentlik, konstruktiv qobiliyat.

Аннотация. В данной статье обосновывается сущность профессионально-коммуникативной компетентности, ее значение в деятельности воспитателя ДОО, то, что профессионально-коммуникативная компетентность - это совокупность особенностей личности воспитателя. Объяснены понятия социальной компетентности, специальной компетентности, психологической компетентности, методической компетентности, творческой и коммуникативной компетентности, которыми должен обладать каждый воспитатель.

Ключевые слова: профессионально-коммуникативная компетентность, личность воспитателя, компетентность, социальная компетентность, специальная компетентность, психологическая компетентность, методическая компетентность, креативно-коммуникативная компетентность, конструктивная компетентность.

Annotation. This article substantiates the essence of professional and communicative competence, its importance in the activities of a preschool teacher, and the fact that professional and communicative competence is a set of personality characteristics of a teacher. The concepts of social competence, special competence, psychological competence, methodological competence, creative and communicative competence, which every educator should possess, are explained.

Keywords: professional and communicative competence, educator's personality, competence, social competence, special competence, psychological competence, methodological competence, creative and communicative competence, constructive competence.

Kirish. Mamlakatimizda ta'lim tizimiga davlat siyosati darajasida e'tibor qaratilmoqda. O'tgan davr mobaynida mamlakatimizda o'sib borayotgan avlodni sog'lom va har tomonlama yetuk voyaga yetkazish, ta'lim-tarbiya jarayoniga

samarali ta'lim va tarbiya shakllari hamda usullarini joriy etishga qaratilgan maktabgacha ta'limning samarali tizimini tashkil etish bo'yicha keng ko'lamli ishlar amalga oshirildi. Shu bilan birga, olib borilgan tahlil, bolalarning maktabgacha ta'lim bilan qamrovini ta'minlash, maktabgacha ta'lim muassasalarini zamonaviy o'quv-metodik materiallar va badiiy adabiyotlar bilan to'ldirish, sohaga malakali pedagog va boshqaruv kadrlarini jalb qilish masalalarini hal etish zarurligini ko'rsatmoqda.

Ilmiy kuzatish va tadqiqotlar natijasida inson o'z hayoti davomida oladigan barcha ma'lumotning yetmish foizini besh yoshgacha bo'lgan davrda olib ulgurishi aniqlangan. Darhaqiqat, bu davrda inson bolasi dunyoni anglaydi, o'z ona tilini o'zlashtiradi, ota-ona, oila, mahalla, Vatanga mehri uyg'onadi, umr davomida oladigan bilimlarga zamin hozirlaydi. Bunda, eng avvalo, oila asosiy rol o'ynasa, maktabgacha ta'lim muassasasining hissasi ham bu borada muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois mamlakatimizda aynan maktabgacha ta'lim uzluksiz ta'lim tizimining ajralmas bo'lagiga, ta'bir joiz bo'lsa, uning debochasiga aylangan.

2024 yilning 21-fevral kuni "O'zbekiston – 2030" strategiyasini "Yoshlar va biznesni qo'llab-quvvatlash yili"da amalga oshirishga oid Davlat dasturi to'g'risida"gi Prezident farmoni qabul qilindi.

Davlat dasturida bolalarning maktabgacha ta'lim bilan qamrov darajasini 76 foizga yetkazish ko'zda tutilgan. Buning uchun 1400 ta davlat-xususiy sheriklik asosidagi, shu jumladan, oilaviy maktabgacha ta'lim tashkilotlarini tashkil etish hamda investitsiya dasturi doirasida 43 ta maktabgacha ta'lim tashkilotini qurish va 133 tasini rekonstruktsiya qilish orqali 5570 ta qo'shimcha yangi quvvatlar yaratish belgilangan.

Albatta, o'tgan yetti yillik vaqt va tajribadan kelib chiqib qaralsa, sohaga davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarining joriy etilishi tufayli har yili bu yo'nalishda davlat dasturlarida belgilangan vazifa va chora-tadbirlar ortig'i bilan bajarib kelinmoqda. Xususan, yirik shaharlarimizdan tortib, chekka tumanlar, qishloq va ovullarimizda yangi-yangi zamonaviy bog'chalar barpo etilyapti.

Ushbu natijalar nafaqat yosh avlodni barkamol qilib tarbiyalash, shu bilan birga, minglab onalarga o'z hududlarida tashkil etilgan yangi sanot korxonalarida ishlab ro'zg'orlari farovonligini oshirish, kasb-hunar o'rganish imkonini ham yaratib bermoqda.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review). Shu o'rinda aytib o'tish joizki, mamlakatimizda Maktabgacha ta'lim vazirligi tashkil etilmasdan avval tizimda zamonaviy dasturlar joriy etilmagan, bolalarni maktabga tayyorlash bo'yicha muqobil, moslashuvchan modellar yetarli darajada rivojlanmagan.

Taraqqiy etgan mamlakatlardagi kabi bolalarni ijtimoiy, shaxsiy, hissiy, nutqiy, matematik, jismoniy va ijodiy rivojlantirish, atrof-muhit bilan tanishuvga yo'naltirilgan maxsus davlat ta'lim dasturlari tatbiq qilinmagan edi. Davlat maktabgacha ta'lim muassasalarida faoliyat yuritayotgan pedagog kadrlarning aksariyati o'rta maxsus ma'lumotga ega bo'lib, bolalarni maktab ta'limiga talab darajasida tayyorlash imkonini bermas edi.

Qadimgi mashhur yunon faylasufi Aflotun «Agar kosib yomon usta bo'lsa, bundan davlat juda katta narsa yo'qotmaydi – faqat xalq yomonroq kiyinadi, xolos. Lekin yoshlar tarbiyachisi agarda o'z vazifalarini yomon bajarsa, u holda mamlakatda nodon, johil, bilimsiz va ahmoqlar toifasi vujudga keladi» [1], degan ekan.

Mamlakatimizda ham pedagog kadrlarga, xususan MTT tashkilotlari tarbiyachilarini tayyorlash va malakasini oshirish masalalariga, ularning ma'naviy qiyofasi, aqliy salohiyati hamda kasbiy mahoratiga nisbatan hozirgi kunning zaruriyatidan kelib chiqib, jiddiy talablar qo'yilmoqda.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Mutaxassis faoliyati o'zagini, shubhasiz, professional-kommunikativ kompetentlik tashkil etadi. Professional-kommunikativ kompetentlik MTT tarbiyachisi tomonidan kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarning egallanishi va ularni amalda sifatli qo'llay olishi hisoblanadi. Professional-kommunikativ kompetentlik har bir alohida soha bo'yicha zarur bilimlar va harakatlarning o'zlashtirilishini nazarda tutadi. Shuningdek, professional-kommunikativ kompetentsiya bilimlarini doimo boyitib borish, yangi ma'lumotlarni o'rganish, zimmasidagi talablarni anglay olish, yangi axborotlarni izlab topish, ularni qayta ishlash va o'z faoliyatida qo'llay bilishni taqozo etadi.

Pedagogik va psixologik adabiyotlar sharhi shuni ko'rsatdiki, pedagog va tarbiyachilarning professional-kommunikativ sifatlari murakkab integrativ fenomen sifatida mutaxassisning ta'lim jarayoni boshqa qatnashchilari bilan aloqa o'rnatishi, uni davomiy saqlab turishi va rivojlantirishini ta'minlovchi professional malakalari sifatida namoyon bo'ladi [2]. Umuman insoniyat evolyutsion taraqqiyoti davomida bir qancha bosqichlarni bosib o'tgan: "homo habilis" (tik yuruvchi odam), "homo potensis" (uddaburon odam), "homo sapiens" (aql-zakovatli odam). Bizning davrimizni esa ko'p tadqiqotchilar "homo loguens" ya'ni so'zlashuvchi odam deb nomlashni taklif qilishgan [3]. Chunki, har bir inson ma'lumot uzatish yoki uni qabul qilish jarayonidan chetda emas, bu esa o'z navbatida professional-kommunikativ faoliyat ahamiyatini yanada oshiradi.

Professional-kommunikativ kompetentligi faqatgina kasbiy faoliyat uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar, shaxsiy sifatlar majmui sifatida emas, balki, muloqot qila olish, o'z-o'zini takomillashtirish va rivojlantirish, kasbiy faoliyatga ijodkorlik va mas'uliyat bilan yondashish kabilarni qamrab oladi.

Shuningdek, professional-kommunikativ kompetentlik tarbiyachi shaxsining o'ziga xos xususiyatlar majmui bo'lib, kasbiy faoliyatning mustaqil tashkil etishni ta'minlovchi, refleks asosida amalga oshiruvchi jarayon hisoblanadi. U tarbiyachining mukammal ijodiy kasbiy vazifasini bajarish san'atidir. Har bir ta'lim oluvchiga shaxs sifatida shakllanishi uchun ijtimoiy-psixologik sharoit yaratish, aqliy rivojlanishini yuqori darajada ta'minlash, ularda odob-axloq sifatlarini tarbiyalash va ma'naviy jihatdan boyitishdan iborat.

Maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachilari, shuningdek quyidagi kompetentsiyalarga ega bo'lishi va ularni doimiy ravishda rivojlantirib borishi kerak. Har bir tarbiyachi ega bo'lishi zarur bo'lgan kompetentsiyalar:

1. Ijtimoiy kompetentlik – ijtimoiy masalalarda faollik ko'rsatish ko'nikma va malakalariga ega bo'lish.

2. Maxsus kompetentlik – kasbiy-pedagogik faoliyatni tashkil qilishga tayyorlanish, kasbiy muammolarni hal qilish, faoliyat natijalarini oqilona baholash [4]. Bu tur kompetentsiyalar bir necha turlarga ajratiladi:

a) psixologik kompetentlik – pedagogik jarayonda sog'lom psixologik muhitni yarata olish, tarbiyalanuvchi bolalar bilan samarali muloqot jarayonini yarata olish, ular bilan til topishish.

b) metodik kompetentlik – jarayonni metodik jihatdan to'g'ri tashkil qilish, tarbiya faoliyati shakllarini oqilona tanlash, metod va vositalardan maqsadga muvofiq foydalana olish.

c) kreativ va kommunikativ kompetentlik – o'zining ijodkorligini namoyish eta olish hamda ta'lim va tarbiya jarayonining barcha ishtirokchilari bilan samarali muloqotda bo'lish, ularga ijobiy tasir o'tkazish va tinglay bilishda namoyon bo'ladi.

Mahoratli tarbiyachi tarbiyalanuvchilarda konstruktiv qobiliyatni rivojlantira olishi, shuningdek, mashg'ulot jarayonida tarbiyalanuvchilardagi mavjud bilimlarni kelgusida oladigan bilimlar bilan uyg'unlashtirishga erishishi lozim. Ko'pchilik tarbiyachilar tashkiliy va kommunikativ faoliyat jarayonida qiyinchiliklarga duch keladilar. Bu esa ta'lim jarayonini samarali tashkil etishga halal beradi. Tarbiyachining bunday qiyinchilikka uchrashining asosiy sababi yaratuvchanlik ko'nikmasini yetarli emasligi hamda oldindan mashg'ulot jarayonini loyihalashtira olmaslikdir. Tarbiyachilar muntazam ravishda bolalar

psixologiyasi va maktabgacha ta'lim sohasiga oid ma'lumotlardan xabardor bo'lish va ularni amaliyotga qo'llash malakasiga ega bo'lishlari lozim [5]. Pedagogik mahoratning yuzaga kelish xususiyatlari kasbiy kompetentlik darajasi bilan uzviy bog'liq.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Xulosa sifatida aytganda, maktabgacha ta'lim tashkilotlarining asosiy vazifasi jismoniy va psixologik jihatdan sog'lom, ma'naviy barkamol, mehnatga tayyor shaxsni shakllantirib berishdan iborat. Shu sababli MTT tarbiyachilari professional-kommunikativ kompetentligini rivojlantirish bugungi kunning dolzarb masalasi va kelajak uchun tikilgan ma'naviy investitsiya hisoblanadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. http://www.filosense.ru/vzglyadi_platona_na_vospitanie-433.htm. – Из фундаментального сочинения Платона «Государство».
2. <https://www.elibrary.ru/item.asp?id=22877941>
3. Соловьева Э.Б. Формирование профессиональной коммуникативной компетентности будущего учителя иностранного языка : Дис. ... канд. пед. наук : - Магнитогорск, 2001.- 156 с.
4. Oizi T. K. S. Topical Issues Formation of Inclusive Competence of Future Teachers in the Republic of Uzbekistan //JournalNX. – С. 103-106.
5. Тоджибаева К. С. К. Профессиональная педагогическая компетентность учителя: феноменология понятия //Вопросы науки и образования. – 2018. – №. 27 (39). – С. 95-97.
6. Ibragimov, X., Abdullayeva Sh. "Pedagogika nazariyasi (darslik)." – T.: Fan va texnologiya, 288 (2008).
7. Ibraimov Kh. I. Creativity as one of the characteristics of the personality of the future teacher // Science, education and culture. – 2018. – No. 3 (27). – P. 44-46.
8. Ibraimov X.I., Quronov M. Umumiy pedagogika (darslik). – T., "Shaffof", 2023, 416-bet.
9. Ibragimovich Kh.I. Peculiarities of using credit-module technologies in the higher education system of Uzbekistan //Integration of science, education and practice. Scientific-methodical journal. - 2021. - P. 209-214.
10. Ibraimov Kh. "Theoretical and methodological basis of quality control and evaluation of education in higher education system." International journal of discourse on innovation, integration and education 1 (2020): 6-15.

11. Ibragimov, X., Abdullayeva Sh. "Pedagogika nazariyasi (darslik)." T.: Fan va texnologiya 288 (2008).
12. Ibraimov X.I., M.Quronov. Umumiy pedagogika (darslik). –T., “Shaffof”, 2023, 416-bet.
13. Ibragimovich I. K. et al. PEDAGOGICAL ABILITIES OF A TEACHER, STRUCTURE AND DEVELOPMENT //湖南大学学报 (自然科学版). – 2021. – Т. 48. – №. 12
14. Ибрагимов Х. И. ПЕДАГОГИКА И ВОСПИТАНИЕ //Экономика и социум. – 2021. – №. 1-1 (80). – С. 608-611.
15. Ibragimovich, Ibraimov Kholboy. "Intensive methods of teaching foreign languages at university." Вопросы науки и образования 27 (39) (2018): 78-80.
16. Ибраимов Х. И. Педагогические и психологические особенности обучения взрослых //Academy. – 2019. – №. 10 (49). – С. 39-41.
17. Ибрагимов Х. И. Организация самостоятельной работы студентов в условиях цифровизации вузовского образования //Наука и образование сегодня. – 2020. – №. 7 (54). – С. 74-75.

TIL O‘QITISHDA KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYANI SHAKLLANTIRISHNING IJTIMOIIY-PSIXOLOGIK OMILLARI

Xudaybergenova Zilola Narbayevna

filologiya fanlari doktori, professor
Bartin universiteti professori (Turkiya)

aloliz74@mail.ru

zkhudaybergenova@bartin.edu.tr

Annotatsiya. Mazkur maqolada chet tilini o‘rganish jarayonida qo‘llaniladigan to‘rt mezon - o‘qish, tinglash, yozish va so‘zlashdan asosiysi bo‘lgan, ko‘pincha muammo bo‘ladigan kommunikatsiyaga kirishish malakasini shakllantirish masalasi ko‘tariladi. Kommunikativ kompetensiyani shakllantirish bir qator omillarga bog‘liq bo‘ladi. Kommunikativ kompetensiya zamonaviy ma’noda murakkab bir yaxlit tushuncha bo‘lib, uni bitta nazariya doirasida ta’riflash mumkin emas. Kommunikativ kompetensiyaning mazmuni – bu muloqot vaziyatlarini shakllantiruvchi barcha tarkibiy qismlarning uslubiy, lingvistik, psixologik va sotsiolingvistik jihatdan muvofiqlashtirilgan birlashmasi, shuningdek talabalarning o‘z nutqiy xatti-harakatlar dasturlarini tushunishlari va yaratishlari uchun zarur bo‘lgan bilim va ko‘nikmalar jamini qamrab oladi. Kommunikativ kompetensiyaning o‘ziga xosligi va ko‘lami o‘quvchilar o‘zlari oldiga qo‘ygan tillarni o‘rganish maqsadlariga, ularning qiziqishlari va turtkilariga, tanlangan rollariga, o‘quv jarayoniga bog‘liq bo‘ladi. Maqolada kommunitiv kompetansiyaning mazmuni, tarkibi,

kommunikativ kompetensiyani shakllantirishda muhim o‘rin tutgan ijtimoiy-psixologik omillar haqida so‘z ketadi.

Kalit so‘zlar: til, kommunikativ kompetensiya, introvert, ekstravert, metodika, metod.

Abstract. This article raises the issue of formation of communication skills, which is the main one of the four criteria used in the process of learning a foreign language - reading, listening, writing and speaking, which is often a problem of learning a foreign language. Formation of communicative competence depends on a number of factors. Communicative competence in the modern sense is a complex concept that cannot be defined within the framework of a single theory. The content of communicative competence is a methodological, linguistic, psychological and sociolinguistically coordinated combination of all components that form communication situations, as well as the sum of knowledge and skills necessary for students to understand and create their speech behavior programs. The specificity and scope of communicative competence depends on the language learning goals set by students, their interests and motivations, chosen roles, and the learning process. The article talks about the content, composition of communicative competence, socio-psychological factors that play an important role in the formation of communicative competence.

Key words: language, communicative competence, introvert, extrovert, methodology, method.

Kirish. Bugungi globallashuv davrida har qanday tashabbusning yakuniy maqsadi samarali natijaga erishishdan iborat. Muvaffaqiyatga erishishning kaliti esa muloqot, kommunikatsiyaga borib taqalishi olimlar tarafidan e’tirof etilgan. Madaniyatlararo, davlatlararo muvaffaqiyatli muloqotning garovi esa, nafaqat til bilish, balki milliy madaniyat va milliy mentalitet, milliy urf-odatlar va an’analarni bilish taqozo etiladi. Bu o‘rinda haqli savol tug‘iladi: Jamiyatning har bir a’zosi ham osonlik bilan muloqotga kirisha oladimi? Albatta, yo‘q. Chunki muloqot tipiga ko‘ra barcha insonlarni shartli ravishda ikki guruhga bo‘lish mumkin: **introvertlar va ekstravertlar** (Shustikova, 2006 : 34). Ba’zi odamlar muloqotga osonlik bilan kirishishga moyil bo‘ladilar, suhbat jarayonida yetakchilik qiladilar. Ular uchun suhbatni boshlash yoki boshqa odamlar bilan tanishish qiyin emas. Bunday odamlar ekstravert hisoblanadi. Bunday shaxslarning tanishlari, o‘rtoqlari ko‘p bo‘ladi. Bunday talabalarga til o‘rgatishda mustaqillikka yo‘naltirilgan, ijodiylikni rivojlantiruvchi topshiriqlar lozim.

Introvertlar boshqa masala. Ular muloqotda faol emas, ko‘pincha jim o‘tirishadi, suhbat jarayonida tashabbus ko‘rsatishmaydi, boshqalar bilan osonlikcha tanishishmaydi, savollarga ko‘pincha qisqa javob berishadi. Introvert talabalarga mustaqil qaror qabul qilish kerak bo‘lgan topshiriqlarni, aktivlik talab etiladigan mashqlarni yoqtirishadi. Ularga aniq tashkil etilgan, o‘qituvchi batafsil tushuntirishiga asoslangan darslar ma’qul keladi (Chesnokova, 1995: 9). Tilni o‘qitishda introvert va ekstravert talabalarni farqlay bilish kerak. Fandan belgilangan maqsadga erishish uchun talabalarning ichki xususiyatlarini hisobga

olish kerak. Talabalarning nutqiy faoliyatini tahlil qilish orqali talabalarning ekstravertligi/introvertligini aniqlash mumkin (Brown, 2001: 67): tanish/notanishlar bilan suhbatda tortinchoqlik/so‘zamollik, talabaning nutqiy statusi, odatiy va noodatiy vaziyatlardagi xulqi, shaxsiy ishlarini muhokama qilishga tayyorlik/ tayyor emaslik va boshqalar. Shuningdek, talabalarning ekstravert/introvertligini aniqlashtiruvchi anketa so‘rovnomasi o‘tkazish mumkin.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review). Uzoq muddat davomida til o‘qitish nazariyasi va amaliyotida grammatik-tarjima uslubining ustunligi tufayli nutqiy kompetensiyani egallash grammatik va semantik jihatdan to‘g‘ri jummalarni qurish uchun til tizimini ongli yoki intuitiv bilishni anglatgan edi (Tarnashin, 2005: 78). Xususan, uning amalga oshirilishi, deyilganda, nutq orqali tizim haqidagi bilimlarni namoyish etish ko‘nikmasi va qobiliyati nazarda tutilgan.

Chet tillarni o‘qitish metodikasida bunday kompetensiya g‘oyasi va uni amalga oshirish yo‘llari tilshunoslik sohasi ta’siri ostida shakllandi, ular til fanida grammatikaning yetakchi o‘rinni belgilab berdilar hamda ular taklif qilgan grammatik tizimlarning muloqotni boshqaradigan psixologik grammatikalarning ajralmas qismi ekanligini isbotlashga harakat qildilar (Demircan, 1990: 112). Psixolingvistikaning yuzaga kelishi bilan vaziyat tubdan o‘zgardi. Tadqiqotning markaziy obyektini kommunikativ faoliyat egalladi, natijada o‘quv mashg‘ulotining maqsadi nutq faoliyati va muloqot sohalarining har xil turlari bo‘yicha kommunikativ kompetensiyani egallashga aylandi (Shahin, 2013: 45). Tilshunoslarning avvalgi muvaffaqiyatsizliklari kompetensiyani nutq harakatlari va so‘zlar bilan emas, balki jumlar bilan shug‘ullanadigan lingvistik soha deb tushunganlari sababli yuzaga chiqqanligi psixolingvistika sohasidagi mutaxassislar tomonidan juda aniq va ishonchli dalillangan.

Faoliyat nazariyasi va psixolingvistika doirasida ishlab chiqilgan xorijiy tillarni o‘qitishga faoliyatli-psixologik yondashish olimlarga va amaliyotchi metodistlarga, umuman, tillarni o‘qitishning kommunikativ yo‘nalishi va xususan, kommunikativ kompetensiya mohiyatini tushunishga imkon berdi (Güneş, 2013: 88). Kommunikativ kompetensiya zamonaviy ma’noda murakkab bir yaxlit tushuncha bo‘lib, uni bitta nazariya doirasida ta’riflash mumkin emas. Bizning fikrimizcha, kommunikativ kompetensiya muammolarini uslubiy, lingvistik, psixologik va sotsiolingvistik muammolar deb guruhlariga ajratish mumkin. Shubhasiz, ushbu yondashuvga ko‘ra, kommunikativ kompetensiyaning mazmuni – bu muloqot vaziyatlarini shakllantiruvchi barcha tarkibiy qismlarning uslubiy, lingvistik, psixologik va sotsiolingvistik jihatdan muvofiqlashtirilgan birlashmasi, shuningdek talabalarning o‘z nutqiy xatti-harakatlar dasturlarini tushinishlari va

yaratishlari uchun zarur bo'lgan bilim va ko'nikmalar jamini qamrab oladi. Kommunikativ kompetensiyaning o'ziga xosligi va ko'lami o'quvchilar o'zlari oldiga qo'ygan tillarni o'rganish maqsadlariga, ularning qiziqishlari va turtkilariga, tanlangan rollariga, o'quv jarayonida va u tugallangandan so'ng amalga oshiriladigan aloqa faoliyati turlariga bog'liq (Doğan, 2012: 67). Kommunikativ kompetensiya tarkibining ko'plab obyektiv va subyektiv omillarga bog'liqligi uni turli toifadagi talabalar uchun o'zgaruvchan qiladi, bu, albatta, har qanday aloqa vaziyatlarida zarur bo'lgan ko'nikmalar, tayyorlik va qobiliyatlar to'plamidan iborat bo'lgan umumiy kommunikativ yadro mavjudligini istisno yetmaydi.

Kommunikativ ko'nikmalarni shakllantirishning qonuniyatlari mavjud. Kommunikativ ko'nikmalarni shakllantirishning asosiy qonuniyatlari - tinglash, gapirish, o'qish va yozish malakalari hali ham yetarlicha o'rganilmagan, дейиш mumkin (Tarnashin, 2005: 5). Shunga qaramay, o'qituvchining e'tiborini jalb qilish zarur bo'lgan, til o'rgatish uchun nutq faoliyatining bir nechta asosiy qonuniyatlarini ajratib ko'rsatish mumkin.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Birinchi qoida: Muloqot qilishni faqatgina kommunikativ faoliyat jarayonida o'rganish mumkin. Tinglash, gapirish, o'qish va yozish ko'nikmalarini rivojlantirish jarayonida har qanday faoliyatni o'rganishning asosiy qonuniyatiga tayanish kerak, ya'ni har qanday faoliyatni faqat shu faoliyat jarayonida o'rganishingiz mumkin.

Aynan shu qonuniyat chet tilidagi muloqot orqali chet tilida muloqot qilishni o'rganishga asoslangan yotadi: gapirish orqali gapirish, o'qish orqali o'qish, tinglash orqali tinglash, yozish orqali yozish o'rganiladi (7). Shuning uchun ham kommunikativ ko'nikmalarni shakllantirishning eng muhim sharti talabalarning nutq faoliyatining tegishli turlarida mashq qildirishdir.

Ikkinchi qoida: Muloqot ko'nikmalarini shakllantirish muntazam ravishda amalga oshirilishi kerak, shu bilan birga, nutq amaliyoti jarayonining asta-sekin murakkablashuvini ta'minlash zarur.

Muloqot ko'nikmalarini rivojlantirish uchun mo'ljallangan mashqlar - nutqiy yoki kommunikativ topshiriqlar - muntazam ravishda bajarilishi kerak. Optimal holatda nutq faoliyatining har bir turi bo'yicha mashqlar har bir mashg'ulotda muntazam amalga oshiriladi. Bunda darsdan darsga muloqot hajmi asta-sekin o'sib borishi lozim (o'quv materiallari hajmi oshadi). Til materiali murakkablashadi, topshiriqlarni bajarish tezligi oshadi, tinglash va o'qish uchun matnlarda noma'lum so'zlar soni ko'payadi, o'quv topshiriqlarini bajarish paytida talabalarning mustaqil ishlash darajasi oshadi.

Uchinchi qoida: Muloqot ko‘nikmalarini rivojlantirish jarayonida talabalar xotirasi mexanizmiga tayanish. Xotira bu, inson tomonidan to‘plangan hayotiy tajribaning asosiy ombori bo‘lib, undagi ma’lumotlarni yetkazish, saqlash va keyinchalik ko‘paytirish mexanizmi hisoblanadi. Shu jumladan, nutqiy ko‘nikmalarning doimiy (uzoq muddatli) xotirasidir ham.

Shu sababli, xotiramizda so‘zlar, iboralar va jummalarning eshitish-artikulyatsion va grafik tasvirlari, ularning bog‘lanish qoidalari va sxemalari, lisoniy shakllarning ma’nolari bilan aloqasi jamlangan. O‘qish va tinglash paytida ishlaydigan (qisqa muddatli) xotira nutqni idrok yetish jarayonining barcha bosqichlarida kiruvchi ma’lumotlarning saqlanishini ta’minlaydi (Shustikova, 2006: 98). Gapirish va yozish paytida ishchi xotira nutq birliklarini hosil qilishda undan keyingi foydalanish maqsadida uzoq muddatli xotiradan ajratilgan nutq birliklarini qisqa muddatli saqlashni ta’minlaydi.

Chet tilida muloqot qilishni o‘rganishning yo‘li ko‘p. Har bir talaba tilni o‘rganish uchun o‘z yo‘lini tanlaydi. Ruhshunoslar tilni o‘rganishning ikki asosiy usulini ko‘rsatishadi: kommunikativ va nokommunikativ tiplar. Shunga ko‘ra til o‘rganayotgan talabalarni kommunikativ va nokommunikativ tip sifatida yana ikki guruhga ajratishimiz mumkin. Albatta har bir talabaning til o‘rganish uslubini diqqatga olish qiyin bo‘lsa-da, til o‘rgatishning samarali usuli hisoblanadi.

Bu masalaning til o‘qitish ahamiyatidagi asosiy omillari quyidagilardir:

A) ta’lim jarayoniga talabaning faol ishtiroki;

B) talabalarning individual xususiyatlarini anglash;

V) talabalarning avvalgi bilimlari va avvalgi tajribasi (Doğan, 2012: 28).

Avvalombor, til o‘qitishda yetakchi o‘rin egallaydigan omil – ularning bilimi va tajribasiga to‘xtalaylik:

Xo‘sh, talabalar nimani bilishadi?

Talabalar, birinchi navbatda, ona tilini biladi, til tabiati, tilni o‘rganish qanday amalga oshiriladi, bulardan xabardor, shu bilan birga, dunyo haqidagi ekstralingvistik global bilimlarga egadir. Talabalar, shuningdek, mustaqil o‘qish, o‘rganish, ularga mos keladigan ta’lim usullari, strategiyalari haqida xabardordir. Ba’zi talabalar ichki hissiyotiga ko‘ra “qanday o‘qish” haqida ma’lumotga ega, boshqa talabalar esa bilishmaydi. Buning natijasida o‘qituvchi ba’zi talabalarni “yaxshi”/“qobiliyatli”, boshqalari esa “yomon”/“qobiliyatsiz” deb qabul qiladi. Tabiiyki, o‘qituvchi tomonidan talabalarni bunday guruhlashtirish ularning qobiliyatlarini aniq baholash imkonini bermaydi. Kognitiv psixologiya sohasidagi tadqiqotlarga ko‘ra, talabalarning qobiliyatiga bo‘lgan munosabat o‘zgarmoqda

hamda har bir individual talabaga alohida optimal va samarali yondashuvni talab etadi.

Ta'lim jarayonida va bilimlarni egallash strategiyalarida, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim uchun matnlar va topshiriqlarni tanlashda quyidagi kognitiv xususiyatlar e'tiborga olinishi mumkin:

Talabalar qobiliyati quyidagi o'lchovlar orqali xarakterlanadi (Güneş Firdevs, 2013: 77):

1. Umumiy intellektual qobiliyatlar (ota-onadan o'tgan va jamiyatda, oilada o'zlashtirilgan qobiliyatlar).

2. Birlamchi intellektual qobiliyatlar (qabul qilish tezligi, so'z orqali ifoda qilish qobiliyati, interpretatsiyaning tezligi va darajasi, keng mushog'ada, xotira, induktiv mushohada).

3. Kognitiv tipdagi talabalar ikki xil bo'ladi:

- **kontekstga bog'liq talabalar** (kontekstga bog'liqlik, kontekstga bog'liq bo'lmagan talabalar); Kontekstga bog'liq talabalar materiallarni kontekstda yaxshiroq o'rganishadi, ular lug'atga qaramasdan, grammatik jadvallarni o'rganmay turib, so'zning ma'nosini anglashga harakat qilishadi. Bunda kontekstga bog'liq bo'lmagan talabalar materiallarni osonlik bilan tahlil etishadi va ularni jadvallar, grafik organizatorlar, so'zlar ro'yxati orqali o'zlashtirishadi. Kontekstga bog'liq va bog'liq bo'lmagan talabalarni aniqlashning yo'li qiyin emas: krossvordlar, rebuslar, rasmlarga qarab figuralar, sonlarni aniqlashni yaxshi ko'radiganlar kontekstga bog'liq bo'lmagan talabalaridir. Bunday mashg'ulotlarni yoqtirmaydiganlar, aksincha, kontekstga bog'liq kommunikativ tipdagi talabalar bo'ladi.

- **kognitiv moslanuvchanlik** talabalarning diqqatini jamlash, mashg'ulotlar va darslardan chalg'imaslik mahoratida, yangiliklarni tajriba qilishga tayyorlikda kuzatiladi. Katta kognitiv moyillikka ega talabalar uchun ijodiy topshiriqlar berish, murakkablashtirilgan vazifalar berish kerak. Kognitiv moyillik darajasi past bo'lgan talabalarga aniq belgilangan topshiriqlarni takrorlash va yodlash vazifalari berilishi kerak.

- **kognitiv tezlik** – talabalarga topshiriqlarni bajarish uchun qancha vaqt berilganligi bilan belgilanadi. Bu kategoriyaning hisobga olinishi auditoriyadagi va uy vazifalarini belgilash va tashkil etishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bir vazifaning bajarilishi turli talabalarda turli vaqtni taqozo etadi;

- diqqatning jamlanganligi;

- kognitiv murakkablik/soddalik (atrof-muhitni qabul qilish, baholash, tahlil qilish, bashorat qilish qobiliyati);

- kuchli/zaif avtomatlashish (takrorlanuvchi vazifalarning bajarilishidagi avtomatlashish darajasi).

Shu bilan birga, talabalarning til o'rganish qobiliyati qaysi bosh miya yarim sharlarining dominantligiga ham bog'liq bo'ladi. Tadqiqotlarga ko'ra:

- chap yarim miya sharining dominantligi (tahlilga moyillik)ga ega bo'lgan talabalar materialni bosqichma-bosqich o'rganishni afzal ko'radi, muammolarni hal qilishda analitik tahlilga asoslanishadi, o'rganishni detallarda umumiyga qarab olib borishadi;

- o'ng yarim miya sharining dominantligi (sintezga moyillik)ga ega bo'lgan talabalar umumiy manzarani ko'rishni afzal ko'rishadi, materialni o'rganishda sintetik yondashuvni qo'llashadi.

Talabalarning qaysi yarim miya shari yetakchi ekanligini aniqlash uchun quyidagicha test o'tkazish mumkin: Talabalar ko'proq nimani eslash qolishadi: Ismlarnimi yoki yuzlarnimi? Ismlarni eslab qoluvchi talabalarning chap yarim miya shari rivojlangan bo'ladi. Yuzlarni eslab qolgan talabalarning o'ng yarim miya shari rivojlangan bo'ladi. Matematika va aniq fanlar bilan qiziquvchi talabalarning chap miya yarim shari rivojlangan bo'ladi. Gumanitar fanlar bilan qiziquvchi talabalarning o'ng yarim miya shari rivojlangan bo'ladi.

Chap yarim miya shari rivojlangan talaba so'zlarni va grammatikani osonlik bilan eslab qoladi, lingvistik tizimlarni, so'zlarni qismlarga ajratib tahlil etadi (Chesnokova, 1995: 112). Yanglishishdan cho'chish ko'pincha bunday talabalarga chet tilida gaplashishga xalaqit beradi.

O'ng miya yarim shari rivojlangan talabalarning eshitishga asoslangan xotirasi, detallarni emas, umumiy manzarani qabul qilishga moyillik bo'ladi. Bunday talabalar jon-jon deb ko'p gapirishadi, lekin ko'p grammatik xatolarga yo'l qo'yadi. Ular uchun grammatik mashqlar uchun o'z kontekstini yaratishi, o'qish va yozishda kichik detallarga diqqat qaratishi kerak.

Talabalarning tilni o'rganishda qaysi taraflari kuchli ekanligini aniqlash uchun ma'lum bir testlar o'tkazish mumkin. Misol uchun, **sensor qobiliyatlarni** aniqlash uchun quyidagicha test o'tkazish mumkin:

25 ta so'zdan iborat besh dona ro'yxat talabalarga tarqatiladi. Ularga quyidagi topshiriqlar beriladi. Har bir topshiriqqa 15 daqiqa beriladi:

1-ro'yxat. So'zlarni bir necha marta ichingizda o'qing va ularni eslab qolishga harakat qiling. 15 daqiqadan keyin nechta so'zni eslab qolganligingizni tekshiring.

Agar talabalar bu usul bilan eng ko'p so'z eslab qolgan bo'lsa, uning ko'rish xotirasi rivojlangan bo'ladi.

2-ro'yxat. Diskda, magnitofonda yozilgan so'zlarni 15 daqiqa davomida tinglang. Zarur bo'lsa, diskni to'xtatib eshitishingiz mumkin. Nechta so'zni eslab qolganligini tekshiring.

Agarda talaba bu usulda nechta so'z eslab qolgan bo'lsa, uning eshitish xotirasi ustun bo'ladi.

3-ro'yxat. Har bir so'zni bir necha marta takroran yozing. Nechta so'zni eslab qolganligingizni tekshiring.

Agar talaba bu usulda eng ko'p so'zni eslab qolgan bo'lsa uning qo'l/taktil xotirasi rivojlangan bo'ladi.

4-ro'yxat. So'zlarni og'zaki talaffuz qiling. Qancha so'zlarni eslab qolganligingizni tekshiring.

Agar talaba bu usulda ko'p so'zlarni eslab qolgan bo'lsa, uning talaffuzga aloqador xotirasi rivojlangan bo'ladi.

5-ro'yxat. So'zlar yozilgan kartochkalarning o'rnini almashtiring va istagan biron harakatni 16 daqiqa davomida bajaring, masalan, jismoniy harakatlarni bajaring. Qancha so'zlarni eslab qolganligingizni tekshiring.

Agar talaba bu usulda eng ko'p so'zni eslab qolgan bo'lsa, uning kinestik xotirasi rivojlangan bo'ladi.

Sensor xotiralar qorishiq shaklda bo'lishi mumkin. Bunday kombinatsiyalarni aniqlash uchun topshiriqlarni ham qorishiq shaklda berish mumkin: 1. O'qing va xonada yuring. 2. Bir paytning o'zida tinglang va o'qing.

Auditoriyada bunday testni o'tkazish uchun so'zlar sonini va test vaqtini qisqartirish mumkin.

Tadqiqotlarga ko'ra, talabalarning sensor xotirasi hisobga olingan holda o'qitish natijasida ularning samarali ta'lim olganligi ma'lum bo'ladi.

Sensor xotirani hisobga olishga asoslangan topshiriqlar tiplari

Sensor xotira turlari	Topshiriqlar tiplari
Ko'rish xotirasi	Boshlang'ich bosqichlarda matnni o'qish tinglash bilan birgalikda olib borilishi kerak. Asta-sekinlik vizual dastakdan voz kechish kerak.
Eshitish xotirasi	Ayni vazifani bajartirish, asta-sekinlik bilan tinglash dastagidan voz kechish lozim. So'zlar yozilgan disklarni, chet tilidagi qo'shiqlar va

	matnlarni tinglash
Talaffuzga asoslangan xotira	Jo‘r bo‘lib takrorlash, audiolingval usul unsurlarini qo‘llash, eshitib qaytarish, o‘zi bilan suhbatlashish
Somatosensor xotira (qo‘l xotirasi)	O‘qituvchi doskaga yozgan matnlar, ma‘lumotlarni yozib borish, darsliklardagi mashqlarni yozma bajarish
Somatosensor xotira (kinestik xotira)	Sahna ko‘rinishlarini o‘ynash, to‘la jismonan mashqlarda ishtirok etish, sinfda o‘yinlarda ishtirok etish, kichik guruhlarda va juft ta‘limda ishtirok etish.
Somatosensor xotira (taktil xotira)	Odatda qo‘shimcha istak-xohishlardir. Kartochkalar asosida eslab qolish, hidlashni qo‘shimcha usul sifatida qo‘llashi mumkin.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Demak, til o‘rganishdagi muhim talablardan biri muloqotga kirishish hisoblanadiki, zero, biron tilni mukammal egallashni maqsad qilgan talabalarda aksariyat holatlarda aynan ma‘lum bir vaziyatlarda bemaol, tortinmasdan, turli mavzularda suhbatlashish borasida muammolarga duch keladi. Tadqiqotlarning ko‘rsatishiga qaraganda, bu muammoning yuzaga kelishida hisobga olinmayotgan ijtimoiy-psixologik omillar mavjud. Til o‘qitish jarayonida talabalar bilan tegishli testlar o‘tkazish orqali ularning psixologik xususiyatlarini aniqlash, dars jarayonini tashkil etishda tatbiq qilish yuqori samara beradi. Ta‘lim jarayonida va bilimlarni egallash strategiyalarida, shaxsga yo‘naltirilgan ta‘lim uchun matnlar va topshiriqlarni tanlashda talabalarning kognitiv xususiyatlari e‘tiborga olinishi ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bu masalada esa talabalarning sensor qobiliyatlarini aniqlash, til o‘qitishni ularning qobiliyatlariga ko‘ra tashkil etish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Brown H. D. (2001). *Teaching by principles an interactive approach to language pedagogy*. New York: Longman.
2. Demircan Ömer. (1990). *Yabancı Dil Öğretim Yöntemleri*. İstanbul: Ekin Eğitim-Yayıncılık ve Dağıtım.

3. Doğan Candemir. (2012). *Sistematik Yabancı Dil Öğretim Yaklaşımı ve Yöntemleri*. İstanbul: Ensar Neşriyat.
4. Durmuş M. ve Okur A. (2013) *Yabancılar Türkçe Öğretimi El Kitabı*. Ankara: Grafiker Yay.
5. Güneş Firdevs. (2013). *Türkçe Öğretimi-Yaklaşımlar ve Modeller*. Ankara: PegemAkademi.
6. Şahin Yusuf. (2013). *Farklı Boyutlarıyla Yabancı Dil Öğrenimi ve Öğretimi*. Konya: Eğitim Kitabevi.
7. Тарнашин Н.В. (2005). *Обучение иностранных студентов-нефилологов устному рассуждению*. Санкт-Петербург.
8. Чеснокова М.П. (1995). *Методические рекомендации к организации учебного процесса по русскому языку в отсутствие языковой среды*. Москва: МАДИ.
9. Шустикова Т.В. (2006). *Грамматика в преподавании русского языка как иностранного. Лингвистический и коммуникативно-прагматический аспект*. Москва.

К ПРОБЛЕМЕ СОЗДАНИЯ ОПРОСНИКА ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ ОЦЕНКИ АДАПТАЦИИ СТУДЕНТОВ К ОБУЧЕНИЮ В ВУЗЕ

Пежемская Юлия Сергеевна

РГПУ им. А. И. Герцена, Санкт-Петербург, Россия

Кандидат психологических наук, доцент, доцент кафедры психологии
развития и образования

pjshome@mail.ru

Терентьева Юлия Алексеевна

РГПУ им. А. И. Герцена, Санкт-Петербург, Россия

Лаборант кафедры психологии развития и образования, студент 1 курса
магистрантуры института психологии

terenteva_yulechka1@mail.ru

Аннотация. Целью данной работы является разработка опросника по педагогической оценке адаптации студентов к обучению в ВУЗе. Актуальность темы обоснована в рамках задач магистерской программы консорциума педагогических университетов России и Благотворительного фонда Сбербанка «Вклад в будущее» по проведению исследований, разработки и внедрения методик, направленных на развитие личностного потенциала в системе образования. Результаты исследования педагогической оценки характеристик адаптации студентов к обучению в ВУЗе средствами разработанного опросника послужат базой для программы психолого-педагогического сопровождения, направленной на продуктивную адаптацию студентов-первокурсников.

Ключевые слова: адаптация студентов, опросник, характеристики адаптации, педагогическая оценка.

Abstract. The aim of this paper is to develop an author's toolkit for pedagogical assessment of students' adaptation to higher education. The development of the questionnaire is based on the objectives of the Master's programme of the Consortium of Russian's Pedagogical Universities and the Sberbank Charitable Foundation "Investment to the Future" for research, development and implementation of methods aimed at the development of personality potential in the education system. The results of the study of pedagogical assessment of students' adaptation characteristics to study at a university using the author's questionnaire will serve as a basis for a programme of psychological and pedagogical support focused on productive adaptation of first-year students.

Keywords: students' adaptation, questionnaire, adaptation characteristics, pedagogical assessment.

Введение. Оценка показателей адаптации студентов педагогами, которые их обучают, является важным этапом проектирования персонализированного образовательного маршрута для студентов в связи с тем, что позволяет методом включенного наблюдения в образовательную среду осуществить раннюю диагностику дезадаптации. Ранняя диагностика дезадаптации студента может стать профилактикой его академической неуспеваемости и позволит оказать студенту необходимую психолого-педагогическую поддержку и при необходимости скорректировать его образовательный маршрут.

Работа над опросником для педагогов по оценке адаптации студентов к обучению в ВУЗе велась в несколько этапов. На начальном этапе разработки были выделены критерии адаптации студентов к обучению в ВУЗе по ряду теоретических и практических исследований отечественных авторов в период с 2018 по 2023 год. В следствие чего, удалось выявить основные критерии и обобщить их в три группы:

- 1) объективные показатели академической успешности;
- 2) социальное и психологическое благополучие;
- 3) актуализация личностного потенциала [1, 2, 3, 5, 8, 9].

Результаты первого этапа были представлены нами в докладе «Критерии педагогической оценки адаптации студентов к обучению в ВУЗе» на Всероссийской XI научно-практической конференции «Педагогическая наука и современное образование» 9 февраля 2024 года на базе института педагогики РГПУ им. А.И. Герцена, город Санкт-Петербург, Россия.

Анализ литературы и методология. Результаты эмпирического исследования Коржавиной Т.Н. показали, что условием успешной адаптации

студентов к ВУЗу, являются такие критерии адаптированности студентов к обучению в ВУЗе, как:

1. Интеграция личности в новый для нее социум;
2. Вовлеченность студентов в научно-исследовательскую деятельность;
3. Академическая успеваемость студентов (результаты экзаменационной сессии и учебной аттестации по дисциплинам) [4].

В свою очередь, Попова Е.Н. выделила следующие критерии:

1. адаптационный потенциал (самооценка, нервно-психическая устойчивость, социальная поддержка);
2. профессионально важные качества студентов (интеллектуальная лабильность, стрессоустойчивость, эмоциональный интеллект, коммуникативные навыки) [6].

Филиппченкова С.И. выделила следующие психологические критерии успешной адаптации студентов к учебной деятельности:

- моральная нормативность поведения;
- коммуникативные способности;
- нервно-психическая устойчивость;
- адаптационный потенциал;
- показатели субъективного благополучия [7].

В результате анализа литературы [1, 2, 3, 6] в качестве базовых векторов педагогической оценки адаптации студентов к обучению в ВУЗе были выделены:

1. академическая адаптация;
2. социокультурная адаптация;
3. психологическая адаптация;
4. адаптация смены среды.

В качестве методов исследования в работе использовались: теоретический анализ, метод экспертной оценки, методы первичной статистики, сравнительный анализ (U-критерий Манна-Уитни).

На основании выделенных в ходе теоретического анализа векторов адаптации студентов к обучению в ВУЗе были сформулированы характеристики педагогической оценки адаптации для опросника.

Апробация методики по педагогической оценке адаптации студентов к обучению в ВУЗе была проведена на базе РГПУ им. А. И. Герцена, институт

психологии (профиль обучения студентов – психология человека и социального взаимодействия) в феврале и марте 2024 года очно.

В качестве экспертов для апробации опросника были приглашены 7 преподавателей ВУЗа (средний стаж работы в ВУЗе – 16 лет), которые ведут практические занятия у одной и той же группы студентов 1 курса. Таблицу педагогической оценки адаптации полностью заполнили 4 преподавателя, результаты их ответов и были приняты в обработку. Респондентами, характеристики адаптации которых оценивались педагогами, выступили студенты-первокурсники очного отделения в количестве 29 человек в возрасте от 18-ти до 23-х лет (средний возраст 18,8).

Педагогам было предложено оценить двенадцать характеристик адаптации студентов по четырём бальной шкале:

«0» - не могу оценить;

«1» - характеристика не выражена в поведении студента;

«2» - характеристика проявляется в поведении студента время от времени;

«3» - характеристика наблюдается в поведении постоянно.

Бланк опросника представлен в приложении к статье.

Каждый вектор адаптации оценивался преподавателем по трём характеристикам, которые проявляются в поведении обучающихся и могут быть зафиксированы педагогом-экспертом при непосредственном наблюдении в образовательной среде.

Академическая адаптация студентов к обучению в ВУЗе, оценивалась по таким характеристикам как учебная активность, успеваемость, ответственность, когда:

1. Студент активно работает во время учебных занятий – задает вопросы и вступает в дискуссию.

2. Студент имеет хорошую успеваемость по предмету, успешно справляется с заданиями.

3. Студент ответственно подходит к выполнению домашних заданий и посещению учебных занятий.

Социокультурная адаптация оценивалась по таким характеристикам как социальная активность, познавательный социокультурный интерес, межкультурная коммуникация:

4. Студент принимает активное участие в общественной жизни ВУЗа.

5. Студент-иностранец/иногородний студент стремится к познанию нового для него региона или другой страны (посещает музеи, театры, выставки и тд.).

6. Студент активно общается с одноклассниками разных этнических групп.

Психологическая адаптация оценивалась по таким характеристикам как умение устанавливать контакт, психоэмоциональное состояние и дружелюбие:

7. Студент вступает в зрительный контакт и реагирует на преподавателя.

8. Студент выглядит расслабленным и довольным на занятиях.

9. Студент проявляет дружелюбие.

Адаптация к ситуации смены среды оценивалась для иностранных и иногородних студентов по таким характеристикам как мотивация обучения в данном Вузе, умение обращаться за помощью, самостоятельность в организации быта:

10. Студент-иностранец/иногородний студент заинтересован в продолжении обучении в ВУЗе и не хочет отчислиться.

11. Студент-иностранец/иногородний студент, в случае трудностей, обращается за помощью к студентам-местным жителям.

12. Студент самостоятельно справляется с жизнью в общежитие.

Результаты. В результате обработки данных экспертной оценки методами первичной статистики было выявлено, что преподаватели ВУЗа наиболее успешно оценивают выраженность проявления признаков академической (1,62) и психологической (1,89) адаптации студентов. У преподавателей ВУЗа возникли сложности с оценкой признаков проявления социокультурной адаптации (0,48) и адаптации смены среды (0,04). Результаты графически представлены на Рисунке 1.




Рис. 1. Педагогическая оценка выраженности векторов адаптации студентов

На следующем этапе анализа данных нами были выделены две группы студентов: студенты группы риска дезадаптации и студенты, адаптированные к обучению в ВУЗе. Основанием для выделения групп послужил средний суммарный балл (экспертная оценка) академической и психологической адаптации. Количество студентов группы риска дезадаптации составило 12 человек (экспертная оценка адаптации меньше 1,5 баллов). Группу студентов, адаптированных к обучению в ВУЗе составили 12 человек (экспертная оценка адаптации более 2 баллов).

Сравнительный анализ, проведенный с помощью U-критерия Манна-Уитни, показателей выраженности характеристик адаптации студентов (рис. 2) и показателей векторов педагогической оценки адаптации студентов (рис. 3) позволил выявить значимые достоверные различия ($p \leq 0,01$) между сравниваемыми группами (табл. 1).




Рис. 2. Выраженность характеристик адаптации студентов групп сравнения (экспертная оценка)




Рис. 3. Выраженность векторов адаптации студентов групп сравнения (экспертная оценка)

Табл. 1. Значимые достоверные различия в показателях выраженности векторов и характеристик адаптации студентов в исследуемых группах

	Группа адаптированных студентов к обучению в ВУЗе (средние значения)	Студенты группы риска дезадаптации (средние значения)	Uэмп (при Uкр=31, $p \leq 0.01$)

Векторы адаптации			
Академическая адаптация	2,31	0,89	0
Социокультурная адаптация	0,67	0,29	5,5
Психологическая адаптация	2,44	1,23	0
Характеристики адаптации			
Студент активно работает во время учебных занятий – задает вопросы и вступает в дискуссию	2,1	0,69	0,5
Студент имеет хорошую успеваемость по предмету, успешно справляется с заданиями	2,4	0,92	1
Студент ответственно подходит к выполнению домашних заданий и посещению учебных занятий	2,44	1,06	0,5
Студент активно общается с одноклассниками разных этнических групп	1,81	0,88	6,5
Студент вступает в зрительный контакт и реагирует на преподавателя	2,19	1,21	3
Студент выглядит расслабленным и довольным на занятиях	2,52	1,25	0
Студент проявляет дружелюбие	2,63	1,23	0

Обсуждение. Сравнительный анализ выявил значимые различия по таким показателям выраженности характеристик адаптации студентов как «Студент активно работает во время учебных занятий – задает вопросы и вступает в дискуссию», «Студент имеет хорошую успеваемость по предмету, успешно справляется с заданиями», «Студент ответственно подходит к выполнению домашних заданий и посещению учебных занятий», «Студент активно общается с одноклассниками разных этнических групп», «Студент вступает в зрительный контакт и реагирует на преподавателя», «Студент

выглядит расслабленным и довольным на занятиях», «Студент проявляет дружелюбие».

Полученные результаты означают, что у группы студентов, адаптированных к обучению в ВУЗе наблюдается большая выраженность показателей характеристик адаптации (перечисленных выше), чем у студентов группы риска дезадаптации. Это может быть связано с тем, что группа студентов, адаптированных к обучению в ВУЗе проявляет большую активность во время аудиторных занятий, легко входит в контакт не только с одноклассниками, но и с преподавателями, образовательная среда для данной группы сравнения не несет никакой опасности.

Также, сравнительный анализ выявил значимые различия по таким показателям выраженности векторов адаптации как «Академическая адаптация», «Социокультурная адаптация» и «Психологическая адаптация». Группа студентов, адаптированных к обучению в ВУЗе имеет лучшую академическую успеваемость, высокий уровень коммуникативных навыков и низкий уровень академического стресса, нежели студенты группы риска дезадаптации.

Выявленные с помощью опросника векторы экспертной оценкой адаптации меньше 1,5 баллов могут стать предметом углубленного изучения причин риска дезадаптации студентов-первокурсников и последующего их анализа. Низкие показатели адаптированности к учебной деятельности говорят о том, что студент с трудом осваивает учебные предметы и выполняет учебные задания; ему трудно выступать на занятиях, выражать свои мысли. По многим изучаемым предметам он нуждается в дополнительных консультациях, не может проявить свою индивидуальность и способности на учебных занятиях. Для таких студентов необходимо разрабатывать программы психолого-педагогического сопровождения. Мишени программы психолого-педагогического сопровождения студентов, в первую очередь, могут быть нацелены на социокультурную адаптацию и адаптацию смены среды как наименее поддающиеся педагогической оценке феномены.

Полученные результаты свидетельствуют о том, что важной частью определения адаптации студентов к обучению является привлечение педагогов, включенных в учебный процесс в качестве экспертов, которые профессиональны и компетентны в выявлении характеристик дезадаптации студентов, что поможет быстро и эффективно оказать студенту необходимую

психологическую и педагогическую поддержку, и обеспечить профилактику академической неуспеваемости.

Заключение. Результаты педагогической оценки выраженности векторов адаптации студентов играют важную роль при проектировании персонализированного образовательного маршрута.

Перспективой работы с опросником по педагогической оценке адаптации студентов к обучению в ВУЗе является расширение выборки исследования по полу и профилю обучения, а также определение дополнительных факторов адаптации студентов таких как: уровень диспозиционного оптимизма, выраженность академической адаптации студентов, копинг-стратегии, проблемная отягощенность студентов и психологическая безопасность образовательной среды. Результаты таких исследований послужат базой для проектирования персонализированного образовательного маршрута, направленного на психолого-педагогическую поддержку студентов-первокурсников.

Приложение. Уважаемый преподаватель!

Просим Вас принять участие в качестве эксперта в оценке характеристик адаптации студентов 1 курса.

Инструкция. Пожалуйста, оцените каждую характеристику адаптации студентов по предложенным ниже 12-ти показателям. Если Вам НЕ знаком студент, то отмечать не нужно.

Четырёх-бальная система оценки:

«0» - не могу оценить;

«1» - характеристика не выражена в поведении студента;

«2» - характеристика проявляется в поведении студента время от времени;

«3» - характеристика наблюдается в поведении постоянно.

Характеристики:

1) Студент активно работает во время учебных занятий – задает вопросы и вступает в дискуссию.

2) Студент имеет хорошую успеваемость по предмету, успешно справляется с заданиями.

3) Студент ответственно подходит к выполнению домашних заданий и посещению учебных занятий.

4) Студент принимает активное участие в общественной жизни ВУЗа.

5) Студент-иностранец/иногогородний студент стремится к познанию нового для него региона или другой страны (посещает музеи, театры, выставки и тд.).

6) Студент активно общается с одноклассниками разных этнических групп.

7) Студент вступает в зрительный контакт и реагирует на преподавателя.

8) Студент выглядит расслабленным и довольным на занятиях.

9) Студент проявляет дружелюбие.

10) Студент-иностранец/иногогородний студент заинтересован в продолжении обучения в ВУЗе и не хочет отчислиться.

11) Студент-иностранец/иногогородний студент, в случае трудностей, обращается за помощью к студентам-местным жителям.

12) Студент самостоятельно справляется с жизнью в общежитии.

п/п	ФИО обучающихся	характеристики адаптации студентов											
											0	1	2
9													

ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА

1. Амбарова П.А., Зборовский Г.Е., Никольский В.С., Шаброва Н.В. Академическая и социокультурная адаптация студентов в вузах России // Высшее образование в России. – 2022. – №12. – С. 9-30. – URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/akademicheskaya-i-sotsiokulturnaya-adaptatsiya-studentov-v-vuzah-rossii>.

2. Баева И.А., Микляева А.В., Пежемская Ю.С., Хороших В.В. Особенности адаптации студентов – представителей коренных и малочисленных народов Севера, Сибири и Дальнего Востока Российской Федерации к образовательной среде колледжа // Социальная психология и общество. – 2023. – Том 14. – №3. – С. 136-153. – DOI: 10.17759/sps.2023140309.

3. Захарова А.Н., Дулина Г.С., Григорьева Н.В., Петунова С.А. Особенности психологической адаптации студентов первого курса к условиям образовательной среды вуза // Russian Journal of Education and Psychology. – 2018. – №2-2. – С. 90-99. – URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/osobennosti-psihologicheskoy-adaptatsii-studentov-pervogo-kursa-k-usloviyam-obrazovatelnoy-sredy-vuza>.
4. Коржавина Т.Н. Система педагогических условий успешной адаптации студентов к условиям вуза / Т. Н. Коржавина // Современные проблемы науки и образования. – 2023. – № 3. – С. 5. – DOI 10.17513/spno.32603. – EDN TPQEEQ.
5. Миронов И.П., Белозерова Т.А. Адаптация студентов вуза к учебному процессу в посткарантинный период обучения // Известия Уральского федерального университета. Сер. 1, Проблемы образования, науки и культуры. — 2022. — Т. 28, № 2. — С. 200-212.
6. Попова Е.Н. Критерии и показатели адаптации студентов первого курса к образовательному процессу в вузе / Е. Н. Попова // Психолого-педагогический журнал Гаудеамус. – 2021. – Т. 20, № 1(47). – С. 87-93. – DOI 10.20310/1810-231X-2021-20-1(47)-87-93. – EDN KLKCAN.
7. Филиппченкова С.И. Психологические критерии успешной адаптации студентов к учебной деятельности / С. И. Филиппченкова // Вестник Тверского государственного технического университета. Серия: Науки об обществе и гуманитарные науки. – 2022. – № 3(30). – С. 79-84. – DOI 10.46573/2409-1391-2022-3-79-84. – EDN DLJRRW.
8. Фишман Б.Е., Фишбейн М.Х., Буховцева О.В. К вопросу об оценке адаптированности студентов к социокультурной среде вуза // МНКО. - 2018. – №3 (70). – С. 19-22. – URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/k-voprosu-ob-otsenke-adaptirovannosti-studentov-k-sotsiokulturnoy-srede-vuza>.
9. Шевченко Н.Н., Раевская Е.А., Богданова Н.А., Янюшкина Г.М. Особенности адаптации студентов-первокурсников в условиях дистанционного обучения // Непрерывное образование: XXI век. – 2022. – №3 (39). – С. 118-138. – URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/osobennosti-adaptatsii-studentov-pervokursnikov-v-usloviyah-distantsionnogo-obucheniya>.

OLIIY TA'LIM MUASSASALARIDA AKADEMIK MOBILLIKNI JORIY ETISH PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA

Shaxnoz Xikmatovna Samiyeva

pedagogika fanlari doktori, professor

Buxoro davlat texnika universiteti

Ruziyeva Shoxida Fatilloyevna

3-bosqich tayanch doktoranti

Buxoro davlat universiteti

Annotatsiya. Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasida akademik mobillik tizimining huquqiy-normativ bazasi va amaliy joriy etilish mexanizmlari tahlil qilingan.

Tadqiqotda 2019-2021 yillarda qabul qilingan Prezident farmonlari, Vazirlar Mahkamasi qarorlari va "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun asosida akademik mobillikni tartibga soluvchi huquqiy tizim chuqur o'rganilgan. Bologna jarayoni, Erasmus+ dasturi va UNESCO tavsiyalarining milliy ta'lim tizimiga integratsiyalashuvi ko'rib chiqilgan. "El-yurt umidi" jamg'armasi orqali amalga oshirilayotgan davlat moliyalashtiruv, oliy ta'lim muassasalari o'rtasidagi hamkorlik memorandumlari va 2020 yildan joriy etilgan kredit-modul tizimi akademik mobillikni rivojlantirishning asosiy tashkiliy mexanizmlari sifatida taqdim etilgan.

Ichki va tashqi mobillik shakllari, o'zlashtirgan kreditlarni tan olish tartibi, talaba va professor-o'qituvchilarni xorijga yuborish mexanizmlari hamda xalqaro hamkorlik istiqbollari batafsil yoritilgan. Maqola oliy ta'limni modernizatsiyalash va xalqaro standartlarga moslashtirish, shuningdek, raqobatbardosh mutaxassislar tayyorlashda akademik mobillikning strategik ahamiyatini ilmiy asoslaydi.

Kalit so'zlar: bilim, akademik mobillik, resurs, manba, g'oya.

Abstract. This article analyzes the legal and regulatory framework and practical implementation mechanisms of the academic mobility system in the Republic of Uzbekistan.

The study deeply studies the legal system regulating academic mobility based on the Presidential Decrees, Cabinet of Ministers' Resolutions and the Law "On Education" adopted in 2019-2021. The integration of the Bologna Process, the Erasmus+ program and UNESCO recommendations into the national education system is considered. State funding implemented through the "El-Yurt Umidi" Foundation, memorandums of understanding between higher education institutions and the credit-module system introduced in 2020 are presented as the main organizational mechanisms for the development of academic mobility.

Forms of internal and external mobility, the procedure for recognizing acquired credits, mechanisms for sending students and professors abroad, and prospects for international cooperation are covered in detail. The article scientifically substantiates the strategic importance of academic mobility in the modernization and adaptation of higher education to international standards, as well as in the training of competitive specialists.

Keywords: knowledge, academic mobility, resource, source, idea.

Аннотация. В данной статье анализируется правовая и нормативная база, а также механизмы практической реализации системы академической мобильности в Республике Узбекистан.

Исследование углубленно изучает правовую систему, регулиующую академическую мобильность, на основе указов Президента, постановлений Кабинета Министров и Закона «Об образовании», принятого в 2019-2021 годах. Рассматривается интеграция Болонского процесса, программы Erasmus+ и рекомендаций ЮНЕСКО в национальную систему образования. В качестве основных организационных механизмов

развития академической мобильности представлены государственное финансирование, осуществляемое через Фонд «Эль-Юрт Умиди», меморандумы о взаимопонимании между высшими учебными заведениями и кредитно-модульная система, введенная в 2020 году.

Подробно рассматриваются формы внутренней и внешней мобильности, порядок признания полученных кредитов, механизмы отправки студентов и преподавателей за границу, а также перспективы международного сотрудничества. В статье научно обосновывается стратегическая важность академической мобильности в модернизации и адаптации высшего образования к международным стандартам, а также в подготовке конкурентоспособных специалистов.

Ключевые слова: знание, академическая мобильность, ресурс, источник, идея.

Kirish. Jahonda hozirgi kunda oliy ta'lim tizimining jadal rivojlanishi, xalqaro ta'lim maydoniga integratsiyalashuvi, hamda raqobatbardosh kadrlar tayyorlash zarurati ta'lim jarayonida ko'plab innovatsion yondashuvlarni, xususan akademik mobillik tizimining joriy etilishini taqozo etmoqda.

O'zbekiston Respublikasi ham ta'lim tizimini xalqaro standartlarga muvofiq takomillashtirish yo'lida akademik mobillikni rivojlantirishni ustuvor vazifalardan biri sifatida e'tirof etgan. Biroq, bu tizimni amaliyotda joriy etish jarayonida bir qator ijtimoiy, tashkiliy va psixologik muammolar mavjud bo'lib, ular chuqur tahlilni va ilmiy asoslangan yondashuvni talab qiladi.

Oliy ta'limning asosiy maqsadi - mustaqil fikrlovchi, yuqori salohiyatli, ijtimoiy faollikka ega, zamon talablariga mos bilim va kompetensiyalarga ega mutaxassislarni tayyorlashdan iborat. Akademik mobillik esa ana shu maqsadlarga erishishda eng samarali vositalardan biri sifatida qaralmoqda.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-sonli farmoni va 2020-yil 2-martdagi PF-5953-sonli farmonlarida oliy ta'lim tizimini modernizatsiya qilish, xalqaro standartlarga moslashtirish hamda akademik mobillikni keng joriy etish bo'yicha qator vazifalar belgilab berilgan. Ushbu dissertatsiya mazkur siyosiy

hujjatlarda qayd etilgan vazifalarning ilmiy-pedagogik jihatdan tahlil etilishi va amaliy yechimlar ishlab chiqilishiga xizmat qiladi.¹

Akademik mobillik - bu talaba, professor-o‘qituvchi yoki ilmiy xodimning muayyan vaqt davomida boshqa oliy ta’lim muassasasida o‘qish yoki faoliyat yuritish orqali kasbiy va shaxsiy kompetensiyalarini rivojlantirishga qaratilgan harakatidir. Mazkur tushuncha O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligida nisbatan yangi bo‘lsa-da, xalqaro huquqiy-amaliy tajribalar asosida bu soha izchil rivojlanmoqda.

O‘zbekiston Respublikasida akademik mobillikni tartibga soluvchi asosiy hujjatlar quyidagilar hisoblanadi(1-rasm)



1-rasm. O‘zbekistonda akademik mobillikni tartibga soluvchi asosiy hujjatlar.

O‘zbekiston Respublikasi “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni (yangi tahrir, 2020 yil 23 sentabr): ushbu qonunning 4-moddasida ta’lim tizimining asosiy prinsiplari sifatida xalqaro hamkorlik, ochiqlik va akademik almashinuvlar ko‘zda

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son Farmoni – “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”. // <https://lex.uz/docs/4545886>

tutilgan. Shu bilan birga, 9-moddada oliy ta'lim sohasida ta'lim oluvchilarning harakatlanishi (mobilligi) uchun sharoitlar yaratish davlat siyosatining bir yo'nalishi sifatida qayd etiladi.²

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PQ-5847-sonli qarori - "O'zbekiston Respublikasining oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi"da akademik mobillikni rivojlantirish asosiy strategik maqsadlardan biri sifatida belgilangan. Qarorda OTMLararo, milliy va xalqaro darajadagi mobillik dasturlarini rivojlantirish, ular uchun qonunchilik bazasini yaratish ko'zda tutilgan.³

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 22-iyuldagi 436-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Oliy ta'lim muassasalari talabalari va o'qituvchilarining akademik mobilligini amalga oshirish tartibi to'g'risidagi nizom" mazkur sohani to'liq tartibga soluvchi muhim hujjat bo'lib xizmat qiladi. Ushbu nizomda ichki va xalqaro mobillikning shakllari, muddatlari, baholash va kreditlarni tan olish tizimi belgilanadi.⁴

2021–2025 yillarda oliy ta'lim tizimini rivojlantirish strategiyasi doirasida akademik mobillik davlat siyosati darajasida ustuvor yo'nalish sifatida ilgari surilgan bo'lib, mazkur hujjatda "akademik mobillik infratuzilmasi", "talabalarning chet elda malaka oshirishi" va "xalqaro o'quv dasturlarini ishlab chiqish" kabi bandlar aniq ko'rsatilgan.⁵

² O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. Qabul qilingan sana: 23.09.2020 y. // <https://lex.uz/docs/5013007>

³ PQ-5847-sonli Qaror. "O'zbekiston Respublikasining oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi", 08.10.2019 y. // <https://lex.uz/docs/4545883>

⁴ VMQ-436-sonli Qaror. "Akademik mobillik tartibi to'g'risidagi nizom". 22.07.2021 y. // <https://lex.uz/docs/5564055>

⁵ "2021–2025 yillarda O'zbekiston Respublikasining oliy ta'lim tizimini rivojlantirish strategiyasi". O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Iqtisodiy tadqiqotlar va islohotlar markazi, 2021.

O‘zbekiston akademik mobillik sohasida xalqaro huquqiy tizimlarga integratsiyalashgan holda quyidagi asosiy hujjat va tashabbuslardan foydalanmoqda:

1.Bologna jarayoni - 1999 yilda boshlangan bu jarayon Yevropa oliy ta’lim makonini shakllantirishga xizmat qiladi. O‘zbekiston bu tizimga rasmiy a’zo bo‘lmasa-da, uning asosiy prinsiplari (kredit-modul tizimi, o‘quv natijalari, diploma ilovalari) mamlakatda bosqichma-bosqich joriy etilmoqda.⁶

2.Erasmus+ dasturi - Yevropa Ittifoqi tomonidan moliyalashtiriladigan bu dastur O‘zbekiston talabalariga Yevropa universitetlarida qisqa muddatli o‘qish imkonini beradi. 2014 yildan boshlab O‘zbekiston universitetlari bu dasturda faol qatnashib kelmoqda.⁷

3.UNESCO tavsiyalari - Xalqaro ta’lim tashkiloti sifatida UNESCO akademik mobillikni ta’lim sifatining tarkibiy elementi sifatida ko‘rib chiqadi. 2019 yilda qabul qilingan “Global konvensiya akademik malakalarni tan olish to‘g‘risida” hujjatida akademik mobillikni yengillashtirish uchun davlatlararo hamkorlikka chaqirilgan⁷.

Natijalar. O‘zbekiston Respublikasida akademik mobillikni yo‘lga qo‘yish bo‘yicha tizimli yondashuv mavjud bo‘lib, bu borada bir nechta huquqiy va tashkiliy mexanizmlar ishlab chiqilgan. Ular mamlakatdagi oliy ta’lim muassasalarining xalqaro maydonga chiqishiga, talaba va o‘qituvchilarning malakasini oshirishga xizmat qilmoqda.

Davlat tomonidan moliyalashtiriladigan akademik mobillik dasturlari doirasida O‘zbekiston fuqarolari xorijiy oliy ta’lim muassasalarida qisqa muddatli o‘qish yoki malaka oshirish uchun yuboriladi. Bu tartib O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 6-noyabrdagi PQ-5269-sonli qarori bilan belgilangan “El-

⁶ European Higher Education Area (EHEA) official website — <https://www.ehea.info/>

⁷ Erasmus+ Uzbekistan Country Fact Sheet. European Commission. 2023.

yurt umidi” jamg‘armasi faoliyati orqali amalga oshiriladi.⁸ Mazkur qarorga muvofiq, jamg‘arma quyidagi yo‘nalishlarda ta’lim va stajirovkani qo‘llab-quvvatlaydi:

magistratura va doktorantura bosqichlarida xorijiy ta’lim olish;
xorijda malaka oshirish va ilmiy stajirovka;
qisqa muddatli kurslar, seminarlar va loyihalarda ishtirok etish.

Bu mexanizm davlat tomonidan moliyaviy qo‘llab-quvvatlanadigan akademik mobillikning eng yirik shakllaridan biri hisoblanadi va qat’iy tanlov asosida amalga oshiriladi. Nomzodlar jamg‘arma tomonidan belgilangan me’yoriy-huquqiy talablarga javob berishi shart.

Muhokama. 2021-yil 22-iyulda tasdiqlangan “Akademik mobillik to‘g‘risidagi nizom”ga ko‘ra, OTMlar o‘zaro va xalqaro hamkorlik asosida talabalar va o‘qituvchilarni yuborishi yoki qabul qilishi mumkin. Nizomda quyidagi shakllar belgilangan:

1.Ichki mobillik – O‘zbekiston ichidagi OTMlararo almashuv.

2.Tashqi mobillik – xorijiy oliy ta’lim muassasalari bilan hamkorlikda tashkil etiladigan almashuv. Bu nizomga muvofiq, talabalar faqatgina maqsadli tanlangan OTMda 1 semestrda 1 yilgacha o‘qishi mumkin. O‘qish yakunida to‘plangan kreditlar bazaviy OTM tomonidan tan olinadi.⁹ Kredit-modul tizimi akademik mobillikni muvofiqlashtirishda muhim vosita hisoblanadi. 2020-yil 31-dekabrda 824-sonli VMQ qarori bilan “Oliy ta’limda kredit-modul tizimini joriy etish tartibi” belgilandi. Bu tizim:

o‘quv dasturlarini moslashtirish;
baholash mezonlarini yagonalashtirish;

⁸ PQ-5269-sonli Qaror. “El-yurt umidi” jamg‘armasining faoliyatini takomillashtirish to‘g‘risida, 06.11.2021 y. // <https://lex.uz/docs/5715519>

⁹ VMQ-436-sonli Qaror. “Akademik mobillik tartibi to‘g‘risidagi nizom”. 22.07.2021 y. // <https://lex.uz/docs/5564055>

o‘zaro tan olinadigan kreditlar bazasini yaratishga imkon beradi.¹⁰

Xulosa. Xususan, O‘zbekistondagi barcha davlat OTMlarida 2020/2021 o‘quv yilidan boshlab kredit-modul tizimi bosqichma-bosqich joriy qilinmoqda. Bu esa akademik mobillikni xalqaro mezonlar asosida yo‘lga qo‘yish imkonini berdi. Bugungi kunga kelib, ko‘plab O‘zbekiston OTMlari xorijiy universitetlar bilan hamkorlik memorandumlarini imzolagan. Bu hujjatlar asosida: talaba almashinuvi, qo‘shma o‘quv dasturlari, professor-o‘qituvchilar stajirovkasi; xalqaro ilmiy loyihalarda ishtirok etish imkoniyati yaratilmoqda va yanada kengaymoqda. Buning natijasida esa ta’lim yanada rivojlanmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. European Higher Education Area (EHEA) official website — <https://www.ehea.info/>
2. Erasmus+ Uzbekistan Country Fact Sheet. European Commission. 2023.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son Farmoni – “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”. // <https://lex.uz/docs/4545886>
4. O‘zbekiston Respublikasi “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. Qabul qilingan sana: 23.09.2020 y. // <https://lex.uz/docs/5013007>
5. PQ-5847-sonli Qaror. “O‘zbekiston Respublikasining oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi”, 08.10.2019 y. // <https://lex.uz/docs/4545883>
6. VMQ-436-sonli Qaror. “Akademik mobillik tartibi to‘g‘risidagi nizom”. 22.07.2021 y. // <https://lex.uz/docs/5564055>
7. “2021–2025 yillarda O‘zbekiston Respublikasining oliy ta’lim tizimini rivojlantirish strategiyasi”. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Iqtisodiy tadqiqotlar va islohotlar markazi, 2021.

¹⁰ VMQ-824-sonli Qaror. “Kredit-modul tizimini joriy etish to‘g‘risida”. 31.12.2020 y. // <https://lex.uz/docs/5238097>

8. PQ-5269-sonli Qaror. “El-yurt umidi” jamg‘armasining faoliyatini takomillashtirish to‘g‘risida, 06.11.2021 y. // <https://lex.uz/docs/5715519>
9. VMQ-436-sonli Qaror. “Akademik mobillik tartibi to‘g‘risidagi nizom”. 22.07.2021 y. // <https://lex.uz/docs/5564055>
10. VMQ-824-sonli Qaror. “Kredit-modul tizimini joriy etish to‘g‘risida”. 31.12.2020 y. // <https://lex.uz/docs/5238097>
11. Olimov, S., Samiyeva, S., Ibragimov, U. B., Mirzoeva, S., & Sharopov, S. (2024, December). Methodology for Developing Students’ Information and Communication Competence in the Process of Distance Learning in the Modern Educational Environment. In International Workshop Hybrid methods of modeling and optimization in complex systems (pp. 305-318). Cham: Springer Nature Switzerland.
12. Hikmatovna S. S. et al. Professional development of the teacher's personality in the system of secondary special vocational education //Annals of the Romanian Society for Cell Biology. – 2021. – T. 25. – №. 2. – C. 2946-2949.

MUSIQA

MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTLARIDA MUSIQA MASHG’ULOTLARINI TASHKIL ETISHNING ZAMONAVIY INTEGRATIV USULLARI

Jalilov Shokir Isomiddinovich

NavDU, “Musika ta’limi” kafedrası dotsenti

Jalilovshokir8@gmail.com

Annotatsiya. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar hamda axborot texnologiyalarining ta’lim jarayoniga kirib kelishi maktabgacha ta’lim tashkilotlaridagi musiqa rahbarlari faoliyatiga yuqori talablarni qo‘ymoqda. Mazkur maqolada maktabgacha ta’lim muassasalarida musiqiy mashg‘ulotlar olib borayotgan musiqa rahbarlari uchun musiqa ta’limining boshlang‘ich bosqichlarida qo‘llashlari kerak bo‘lgan nazariy-amaliy, psixologik hamda pedagogik bilimlarini oshirish maqsadida, zamonaviy texnologiyalarga asoslangan integrativ uslublarni samarali qo‘llash bo‘icha metodik tavsiyalar berilmoqda.

Kalit soʻzlar: musiqa, metodika, axborot texnologiyalari, musiqiy–estetik tarbiya, integrativ uslublar, ritmik harakatlar, taʼlim, qoʻshiq, diapazon.

Abstract. The introduction of modern pedagogical technologies and information technologies into the educational process puts high demands on the activities of music leaders in preschool educational organizations. In this article, in order to improve the theoretical-practical, psychological and pedagogical knowledge of music leaders conducting music classes in preschool educational institutions, which they should apply in the initial stages of music education, effective use of integrative methods based on modern technologies methodological recommendations are given.

Key words: music, methodology, information technologies, musical-aesthetic education, integrative methods, rhythmic movements, education, song, range.

Kirish. Maktabgacha taʼlim tashkilotlaridagi musiqa mashgʻulotlari bola tarbiyasida muhim bosqich sanaladi. Musiqiy–estetik tarbiya yosh avlodning maʼnaviy qiyofasini shakllantirish, ularni chinakam vatanparvarlik, insonparvarlik ruhida tarbiyalash, ular ruhiyatida maʼnaviy barqarorlikni shakllantirish uchun xizmat qiladi. Maktabgacha taʼlim tashkilotlarida musiqa mashgʻulotlarini tashkil etishning zamonaviy integrativ uslublaridan ijodiy foydalanish konsepsiyasini ishlab chiqish va uni amaliyotga tatbiq etish hozirgi davrning eng eng aktual masalalardan biri boʻlib turibdi.

Bolalarda yoshlik davridan idrok etish, his etish, turmush va sanʼatdagi goʻzallikni tushunish ishtiyoqi tarbiyalanadi va bu kabi goʻzallikni yaratishga intilish kuchayadi. Bolaning badiiy faoliyatga boʻlgan qiziqishi ortadi. Unda badiiy-ijodkorlik qobiliyati rivojlanadi. Musiqiy-estetik tarbiya demokratik jamiyat kishisini garmonik tarbiyalash yoʻlida olib borilayotgan ulkan ishning tarkibiy qismiga aylanmogʻi kerak. Musiqa bola qalbida kuchli emotsional tuygʻuni uygʻotadi. Musiqa yordamida uning badiiy idroki oʻsib, estetik hissiyoti yanada boyitib boriladi.

Musiqaga yoshlikdan uygʻongan qiziqish kishining keyingi musiqiy rivojiga kuchli taʼsir koʻrsatadi. Shunga koʻra, musiqani idrok etishning vazifasi va mazmunini aniqlash muhimdir. Bular shaxsning har tomonlama rivoji, jumladan estetik tarbiya vazifalari bilan bogʻliq umumiy maqsadlar bilan belgilanadi. Maʼlumki, bunday vazifalar bolalarni musiqa sohasidagi faoliyatlarga jalb etish, musiqa sanʼatini estetik idrok etishni va emotsional oʻzlashtirishni rivojlantirish, musiqiy qobiliyatlarini oʻstirish, musiqiy didni shakllantirish, bolalarning badiiy ijodkorligi hamda iqtidorini rivojlantirishga xizmat qilishi lozim.

Ushbu maqola maktabgacha taʼlim tashkilotlarida musiqa tarbiyasi boʻyicha bolajonlarga bilim berish, ularda oʻziga xos koʻnikmalarni, malakalarni shakllantirishning zamonaviy axborot texnologiyalariga asoslangan kreativ uslublarini yoritib berishga qaratilgan. Musiqa mashgʻulotlarining mazmuni

bolalar tomonidan bajariladigan qator faoliyatlarni taqozo etadi. Bunda tinglash, kuylash, musiqiy ritmik harakatlar, musiqa cholg'ularida ijro etish jarayonida bolalar ijrochiligi va ijodkorligi malakalarini shakllantirish kabi faoliyat turlari asosiy o'rin tutadi. Bolalar ijodkorligini - kuylash, musiqiy ritmik harakatlar, musiqa cholg'ularida ijro etish kabi faoliyatlarini takomillashtirish hozirgi kunda o'zining dolzarbligi bilan ko'pgina pedagog-olimlarning diqqat markazidadir.

Uzluksiz ta'lim tizimida musiqiy ta'lim tizimi bir necha bosqichlardan iborat. Musiqa ta'limi maktabgacha ta'lim muassasalaridan boshlanadi va ta'lim tizimining barcha jabhalarida davom etadi. Shuning uchun biz kelajak avlodning musiqiy bilimga ega bo'lishlariga zamin yaratar ekanmiz, ularning musiqiy-estetik tarbiyasiga alohida e'tibor qaratmog'imiz zarur.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Insonning shaxs sifatida shakllanishida yetakchi omillardan biri muhitdir. Psixologlarning ta'kidlashicha, inson bolasi tayyor qobiliyat bilan emas, balki biror bir qobiliyatning ro'yobga chiqish va rivojlanish manbai bo'lgan layoqat bilan tug'iladi. Layoqat o'z holicha rivojlana olmaydi, uning rivojlanishi uchun qulay muhit kerak. Bola musiqaga layoqat bilan tug'ilishi mumkin, lekin uning musiqiy xususiyatlari shakllanishi uchun qulay muhit yaratilmasa, musiqaga bo'lgan layoqati rivojlanmay qoladi. Insondagi musiqiy layoqatning rivojlanishi va shakllanishi uchun ijtimoiy va oila muhiti muhimdir. Odob, axloq, fe'l-atvor - shaxsning barcha ruhiy sifatlari faqat muhit va tarbiyaning o'zaro ta'siri asosida vujudga keladi. Estetik va emotsional muhit musiqa olamida bolaga emotsional qulayliklar yaratib, undagi ijodga bo'lgan qiziqishni shakllantiradi. Biroq, musiqiy muhitning samaradorligi faqat tashqi sharoitlarga bog'liq bo'lmay, balki bola musiqiy rivojlanishini tartibga soluvchi muloqot, musiqiy-nazariy bilimlar, ijodiy usullarga ham bog'liq.

B.M.Teplov o'zining «Musiqiy qobiliyatlar psixologiyasi» asarida musiqiy-pedagogik amaliyotdagi musiqiy qobiliyatlarni uch asosiy guruhga bo'ladi:

- musiqiy eshitish qobiliyati - kuydagi tovushlarning lad funktsiyalarini, tovush ifodaliligini emotsional jihatdan ajrata olish,
- ritm hissi - musiqiy ritm ifodasini his eta olish va musiqiy kechinmalarni faol (harakatlar bilan) aks ettirish,
- musiqiy xotira (musiqiy ma'lumotlarni eslab qolish va qayta tiklash)

Masalan, bolani ilk bolalik davridan tovushlar balandligini ajratishga o'rgatilmasa, u yetti yoshga yetganida o'zidan kichik bolalar osongina bajara oladigan vazifalarni bajara olmaydi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning musiqiy rivojlanishining muhim xususiyatlari quyidagilardan iborat:

1. Ularning eshitish sezgisi, musiqiy eshitish qobiliyati rivojlanib boradi;
2. Har xil xarakterdagi musiqaqa emotsional ta'sirchanlikning sifati va darajasi ortadi;
3. Qo'shiq kuylash, musiqiy-ritmik ijrochilikda qo'llaniladigan sodda ko'nikma va malakalar shakllanadi.

Har bir bola musiqaning qaysi yo'nalishini o'rganishidan qat'iy nazar uning yosh xususiyatlarini, psixologik rivojini musiqa rahbari nazarda tutishi lozim. Bolaning musiqiy rivoji bu to'g'ri va uzluksiz ravishda yo'lga qo'yilgan faol musiqiy jarayondir. Bu rivojlanish quyidagicha kechadi:

- Hissiy munosabat - oddiy musiqiy tasavvurdan murakkab va ko'ptomonlama rivojlangan musiqiy asarlarni tushuna olish;
- Musiqani eshitish qobiliyati — musiqaning tembri, tovush balandligi, musiqa ifoda vositalarini idrok etishi.
- Ijrochilikning ilk shakllanishi - olgan bilim va ko'nikmalariga tayanib, unga tanish bo'lgan musiqaqa matn yoki raqs elementlarini ijro eta olishi.

Musiqa tarbiyasi boshqa sohalar kabi o'ylab chiqilgan tizim va rejalarga asoslanib uzluksiz olib boriladigan jarayondir, ya'ni har bir mashg'ulotda o'ylab chiqilgan ma'lum maqsadga birin-ketin erishiladi. Bu jarayonda musiqa rahbari sardor vazifasini o'taydi va bolalarni o'zi bilan ergashtirib yuradi. Bu jarayonning yana bir muhim jihatlaridan biri - har bir bolaning individual dunyoqarashi va iqtidorini nazarda tutish kerak.

Musiqiy tarbiyaning vazifalari quyidagilardan iborat:

1. Musiqaga muhabbat va qiziqishni o'stirish.
2. Bolalarning musiqiy tajribasini boyitish (musiqiy asarlar asosida).
3. Bolalarni oddiy musiqiy tushunchalar bilan tanishtirish, musiqa tinglash, kuylash, musiqiy ritmikasi borasida malakalarni rivojlantirish.
4. Bolalarda emotsional hisni shakllantirish. Ularda lad hissi, ritm tuyg'usini o'stirish va ritmik harakatni shakllantirish.
5. Musiqiy didni o'stirish (musiqiy taassurotlar asosida).
6. Bolalarda ijodkorlikni o'stirish (barcha faoliyatlar asosida). Bu maqsadga erishish uchun to'g'ri yo'lga qo'yilgan musiqiy mashg'ulotlar tashkil etiladi.

Qo'shiq kuylash mashg'ulotlari metodikasi. Jamoa bo'lib kuylaganda bolaga kuy qo'shiq matniga nisbatan kuchlirok ta'sir qiladi. Ko'pgina hollarda o'g'il bolaning shaxdam yurib marshni kuylayotganini, qiz bolaning esa qo'g'irchoqni allalab, kuylayotganini kuzatishimiz mumkin.

Bolaning ovozi — tabiiy cholg'udir, chunki bu cholg'u uning yoshligidan mavjud. Mana shuning uchun ham hayoti davomida unga bu jarayon hamroh

bo'ladi va turli o'yinlarda ishtirok etadi. Undan tashqari qo'shiq bola hayotining boshqa faoliyatlarida ham qo'llanadi. Masalan, raqs, xorovod, bolalar cholg'ularida ijro etganda. Qo'shiq bolaning dunyoqarashini kengaytirib, yorqin obrazli tasavvurga ega bo'lishga yordam beradi. Qo'shiqlarda tabiatga, Vatanga muhabbat, kattalarga, ajdodlarga hurmat o'zaro munosabatlarni yaxshilash va boshqa tarbiyaviy axloqlarni o'stirishga yordam beradi.

Kichik yoshdagi bolalar 2-3 ta nota oralig'idagi qo'shiqlarni kuylay oladilar. Bolalar kattalar kuylarini eshitib, keyin o'zlari ham shu kuyni kattalardek kuylashga harakat qiladilar. Maktabgacha yoshdagi bolalarda ovoz apparati mukammal rivojlanmagan bo'ladi (tovush paylari rivojlanmagan, nozik, nafas kuchsiz va boshqalar). Bola rivojlangani sari organizm va qo'shiqchilik organlari ham takomillashadi. Maktabgacha yoshdagi bola ovozining yetarli darajada yorqinligi bo'lmaydi. Bu muammolar ustida ko'pgina tadqiqotchilar ilmiy ishlar va izlanishlar olib borishadi. Bolaning ovoz xususiyatlari, ularning diapazoni imkoniyatlari haqida N.D.Orlov, Ye.I.Almazov, N.A.Metlov, N.A.Vetlugina, A.D.Voynova, R.T.Zinich kabi olimlar ilmiy tadqiqotlar olib borishgan. Ular o'z ilmiy ishlarida bolaning tabiiy ovozi birinchi oktava re tovushidan - si tovushigacha, degan xulosaga kelishgan.

Natijalar. Undan yuqori va pastki notalarni bola kuylaganda tovushi zo'riqishi va siqib kuylashi mumkin. Bu bolalarning tovush paylarining shikastlanishiga olib kelishi mumkin. Bu muammolarga yo'l qo'ymaslik uchun aniq maqsadga yo'naltirilgan va puxta o'ylab chiqilgan repertuar tanlanishi kerak. Bolalarning ovoz diapazoniga mos repertuar tanlash uchun quyidagi jadvaldan foydalanishimiz mumkin:

Yoshi	Diapazoni
<i>2 — 3 yosh</i>	<i>mi 1 — lya 1</i>
<i>3 - 4 yosh</i>	<i>re 1 — lya 1</i>
<i>4 — 5 yosh</i>	<i>re 1—si 1</i>
<i>5 —6 yosh</i>	<i>re 1 — si 1 (do 2)</i>
<i>6 —7 yosh</i>	<i>do 1 (re 1)-do 2</i>

Berilgan jadvalda bolalar ovozining pastki, yuqori va ishchi diapazoni mavjuddir. Har bir yangi qo'shiq oldingisidan hosil etilgan kuylash malakalarini mustahkamlaydi va ularni rivojlantiradi. Qo'shiq diapazonining bolalar ovoziga mosligiga, qo'shiqning badiiy g'oyaviy mazmuniga, bolalar dunyoqarashi va yoshiga mos bo'lishiga e'tibor qaratish kerak. Qo'shiqlarni quyidagi talablarga ko'ra tanlash tavsiya etiladi:

1. Qo‘shiqning tarbiyaviy ahamiyati, g‘oyaviy mazmuni, musiqiy tuzilishi va xarakterining bolalar yoshiga mosligi.

2. Qo‘shiq matnining osonligi, badiiy yuksakligi, bolalarning lug‘at boyligiga mosligi va ularning nutqini va tafakkurini o‘stirish uchun xizmat qilishi.

3. Qo‘shiq ohangi, uning xarakteri (xushchaqchaq, quvnoq, marsh, mungli, g‘amgin, bayramona, ko‘tarinki ruhda), lad va tessituras, ovoz diapazoni bolalar yoshiga mos bo‘lishi.

4. Qo‘shiqning badiiy xususiyatlari va ifodaviyligi, bolalar idrokiga mosligi, garmonik tuzilishi va ohangdoshligi.

5. Qo‘shiq shakli (1, 2 qismli yoki kuplet shaklida tuzilganligi), naqaratning mavjudligi.

Qo‘shiqni tanlashda bolalarga qisqa, mazmunli, obrazli, qiziqarli hikoya qilib beriladi. Qo‘shiq mazmunidagi axloq-odob, tabiat, ona Vatan, mehr-muhabbat haqidagi g‘oyalarni bolalar ongiga singdirib, ularda qiziqish o‘yg‘otadi.

Badiiy qo‘shiqlar sirasiga D.Omonullaevaning bolalar uchun yozilgan «Diloromning qo‘shig‘i», «Buvijonim», «Aziz bo‘ston - O‘zbekiston», «Navro‘zim», «O‘zbekiston - Vatanim manim», N.Norxujaevning «O‘ynasangchi tipratikon», «Nevaralar qo‘shig‘i», «Kapalak va kamalak», «Kakligim», «Shaftoliga savolim», «Navro‘zim — sho‘x sozim», «Salom bergan bolalar», «Buvijonim yaxshisiz», «Gullar manim kulganim», «Yaxshi bola», «Biz askarmiz»; Sh.Yormatovning «Ay-yay-yay», A.Mansurovning «Muzqaymoq», «Vatanginam», F.Nazarovning «Inoq o‘ynaymiz», «Paxtaoy», «Qish chog‘lari» va boshqa ko‘plab O‘zbekiston kompozitorlarining qo‘shiqlari bolalar ijodiyotida so‘nmas iz qoldirib, ularning badiiy tarbiyasi va didini o‘stirishga yordam beradi.

Qo‘shiqni tarbiyachi ifodali qilib ijro etib beradi. Qo‘shiqni mazmuniga mos tasvirlab, qo‘shiq mazmuniga va tuzilishiga xos savol-javoblar qilib, qo‘shiqni musiqiy jumalarga bo‘lib o‘rgatadi. So‘ngra qo‘shiq mazmunga mos musiqiy-ritmik harakatlar bilan o‘rgata boshlaydi. Matn va ohang talaffuzning aniqligi ma‘lum me‘yorga tushgandan so‘ng, qo‘shiqning badiiy ijrosiga erishiladi. Qo‘shiqni vaqti-vaqti bilan sayr vaqtida, o‘ynayotganda, mashg‘ulotdan-mashg‘ulotga takrorlab kuylab turish lozim, aks holda uning matni bolalar xotirasidan ko‘tariladi va unga nisbatan qiziqish susayadi. Har bir mashg‘ulotda, ayniqsa, yangi qo‘shiqni o‘rganishdan oldin, ilgari o‘rgatilgan qo‘shiqni takrorlab turish, bolalar ijrosidagi ayrim nuqsonlarni tuzatib borishga yordam beradi. Bolalar toliqmasligi uchun qo‘shiq o‘rgatish shakllari o‘zgartirib turiladi. Masalan, guruhlariga bo‘lib o‘rgatish, yakkaxon va guruh jo‘rligida, musiqiy harakatlar yordamida amalga oshirilish, qo‘shiq matniga mos raqs elementlarini o‘ylab

ko‘rishga va o‘zlari uni ijro etishga undab ko‘rish yaxshi samara beradi. Qo‘shiq mukammal o‘rganilgandan so‘ng, ularning qiziqishi yanada ortadi. Shuningdek, mashg‘ulot shakllarini (noan‘anaviy mashg‘ulotlar) o‘zgartirilib turish ham mashg‘ulotlarda bolalar zerikishining oldini olib, qiziqishini kuchaytiradi.

Metodik usullar:

1. Musiqa rahbari tomonidan qo‘shiqni ifodali emotsional ijroda ko‘rsatish;
2. Qo‘shiqni birinchi bor tanishtirish jarayonida rasm, o‘yinchoqlar bilan qo‘shiqni mazmunini ochib berishga yordam beradi.
3. O‘yin shakllarini qo‘llash. Aks-sado usuli.
4. Ta‘limiy usul - musiqa rahbari asarni 2-3 marta fortepianoda chalib beradi va bolalar bilan birgalikda kuylaydilar.
5. Qo‘shiq matni kuy bilan birgalikda o‘rganiladi.

Musiqiy ritmik faoliyatlar metodikasi. Musiqa tarbiyasidagi faoliyatlarning eng muhimlaridan biri musiqiy - ritmik faoliyatdir. Bu faoliyat ertalabki badan tarbiya mashqlari sifatida amalga oshiriladi. Mashqlar havosi toza xonalarda yoki ochiq havoda o‘tkaziladi. Buning uchun bolaning kiyimi yengil va qulay bo‘lishi kerak. Muntazam mashq bajarish bolalarni yelka, qorin va boshqa a‘zolarini mustahkamlaydi. Oyoq uchi va tovon uchun bajariladigan mashqlar yassi oyoqlikning oldini oladi. Bundan tashqari bunday mashqlar bolalarning qon aylanish tizimiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi.

Musiqiy rahbar mashg‘ulot o‘tkazish jarayonida bolalarga musiqa ostida harakat qilishlariga yordam beradi va ularga raqs elementlarini o‘rgatib boradi. Musiqiy mashg‘ulotlarni boshlashdan avval bolalarni musiqa ritmiga mos holda yugurish va sakrashga o‘rgatish lozim.

Boshlang‘ich guruhlarda ritmik harakatlarni bajarish, bolalarni jismoniy rivojlantirish uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Musiqaga mos raqs, o‘yin harakatlarini bajarish, bolalar diqqatini jamlashda, xotirasini mustaxkamlashda va jismonan o‘sishiga yordam beradi.

Mashg‘ulotlar davomida quyidagi harakat turlaridan foydalanish tavsiya etiladi: marsh musiqalariga qadam tashlash, yugurish raqsi elementlarini bajarish, mustaqil o‘yinlar o‘tkazish, musiqali harakatlarni, turli qo‘l va tana harakatlari bilan ifodalash. Ma‘lumki, milliy musiqa madaniyatida raqs muhim o‘rin tutadi va unga har bir bola qiziqadi. Raqs harakatlari musiqa mashg‘ulotlarida bolalar faollashuvini oshiradi.

Bolalar cholg‘u asboblariida ijro etish faoliyati. Musiqa mashg‘ulotlarida bu faoliyat turi eng qiziqarli jarayonlardan biridir. Bu faoliyat bolalarni ijodkorlikka undaydi. Bolalar cholg‘u asboblari jonli tovushli o‘yinchoqlar sifatida

har bir bolani qiziqtiradi. Chapak va bolalar cholgʻu asboblari ritmik joʻr boʻlish, musiqaning xarakter va obrazlarni chuqurroq his etishda, ularga mos emotsional tuygʻular hosil qilish, ayniqsa, bolalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Musiqa mashgʻulotlarida bolalar cholgʻu asboblari foydalanish ijobiy natijalar berish bilan birga bolalarning mashgʻulotga intiluvchanligi, qiziqishi va ularning xotirasini, ritmni his qilish tuygʻusini, nutqini oʻstiradi. Bu borada koʻplab pedagog olimlar metodik qoʻllanmalar yaratganlar. Ilmiy ishlar va tadqiqotlar olib borganlar. Misol qilib, N.A.Vetluginaning «Musiqiy alifbo», N.G.Kononovning «Обучение дошкольников игре на детских музыкальных инструментах» kitoblarini aytib oʻtish mumkin.

Oʻzbekiston Davlat Konservatoriyasi professori A.Livievning «Oʻzbek xalq cholgʻularida ijrochilik» nomli kitobini metodik qoʻllanma sifatida tavsiya etiladi. Bu kitobning oʻziga xosligi shundaki, birinchidan, oʻzbek kompozitorlarining bolalar uchun yozgan qoʻshiqlaridan foydalanilgan. Bu bolalarda tanish boʻlgan qoʻshiqlarni cholgʻularda ijro etib kuylashlariga katta turtki boʻladi. Ikkinchidan, aynan oʻzbek xalq kuylaridan namunalar keltirilganligidir. Bu bolalarda yoshligidan oʻzbek xalq kuylariga mehr-muhabbat hissini, ularga hurmatni uygʻotadi.

Musiqa rahbari bolalar kuy ritmini toʻgʻri his etib ijro etishlari uchun, bolalar cholgʻu asboblari cholib, musiqaga joʻr boʻlish haqida batafsil soʻzlab berishi lozim. Soʻng biror cholgʻuda kuyni oʻzi ijro etib, chapak bilan joʻr boʻlishni koʻrsatadi. Keyin barchani kuyga chapak cholib, joʻr boʻlishni taklif etadi va ijro jarayonini diqqat bilan kuzatib, bolalar cholgʻu asboblari tarqatish uchun ilgor va zehni bolalardan birini tayinlaydi (birinchi marta ilgʻor bolalarni tanlashdan maqsad kuy chiroyli va toʻgʻri boʻlib ijro etilsa, keyin qolgan bolalar ham oʻz tengdoshlari ijro etganlaridek chalishadi).

Birinchi ijrodagi yutuq va kamchiliklarni bartaraf qilish uchun yana bir takrorlab, chiroyli, toʻgʻri ijro etilishi kerak. Soʻngra musiqa rahbari ijro etmagan bolalarga cholgʻuasboblari joʻr boʻlishni taklif etadi. SHu tarzda guruhdagi barcha bolalar galma-gal cholgʻu asboblari joʻr boʻlishga undab, ularning qiziqishini oshiradi. Cholgʻularda chalishga hamma intiladi, albatta. SHuning uchun berilgan asarni bolalar xato qilmay musiqani his etishga va xotirada saqlashga harakat qiladilar.

g) Ansamblni his qilish, ansambl tempiga e'tibor berish va shu tempda ijro etish;

d) Ritmik va melodik mashqlarni erkin ijro etish va improvizatsiya qila olish.

Mashg'ulotlarni yuqorida ko'rsatib o'tilgan metodlar va yangi pedagogik texnologiyalar asosida olib borish natijasida mashg'ulotlarning har uchchala turida kutilgan, kafolatlangan natijalarga erishish nazarda tutiladi. Ushbu mashg'ulotlarni talab darajasida o'tish uchun musiqa rahbari yuksak ijrochilik mahoratiga ega bo'lishi, fortepiano va milliy cholg'ularda professional darajada chala olishi bilan bir vaqtda bolalar cholg'u asboblarida bolalarning yoshiga mos bo'lgan kuylarni sodda, ularga tushunarli tarzda ijro etish talab etiladi. Buning uchun musiqa rahbari ijrochilik mahoratidan tashqari, pedagogik-psixologik hamda aktyorlik mahoratiga ham ega bo'lishi maqsadga muvofiqdir.

Xulosa. Kelajak jamiyat a'zosining insoniy va ijobiy fazilatlari aynan bolalikdan boshlab shakllana boradi. Aynan shu davrda musiqa ijobiy sifatlarni shakllantiruvchi vosita sifatida qo'llaniladi. Musiqa yosh avlodning ma'naviy, badiiy-axloqiy madaniyatini shakllantirishga, milliy g'ururi va vatanparvarlik tarbiyasini amalga oshirishga, fikr doyrasini kengaytirishga, ijodiy mahorati va badiiy didi o'sishiga, mustaqilligi va tashabbuskorligini tarbiyalashga xizmat qiladi. Shu sababli Respublikamizdagi har bir maktabda hozirgi kunda musiqiy-estetik tarbiyaga pedagogikaning shaxsni shakllantiruvchi eng muhim omili sifatida qaralmokda.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida musiqa mashg'ulotlarini tashkil etishning zamonaviy integrativ uslublarini keng qo'llash hozirgi davrning eng dolzarb talablaridan biri bo'lib, buning uchun yuqorida ko'rsatib o'tilgan tavsiyalarni keng joriy etish maqsadga muvofiqdir. Musiqani bolalarga majburlab o'rgatib bo'lmaydi. Ularni turli musiqali didaktik o'yinlar orqaligina musiqa san'atiga qiziqtirish va shu orqali ularga fanga xos bo'lgan bilimlarni o'rgatish mumkin. Maktabgacha ta'lim tashkiloti musiqa rahbari o'z faoliyatida maktabgacha yoshdagi bolalarga musiqa san'ati haqidagi bilimlarni o'rgatar ekan, u albatta zamonaviy, ilg'or pedagogik texnologiyalardan, zamonaviy integrativ uslublardan samarali foydalanishi lozimdir. Shu bilan bir vaqtda maktabgacha yoshda bo'lgan bolalarning yosh-fiziologik xususiyatlaridan kelib chiqqan holda, ularga fanga xos bo'lgan barcha ma'lumotlarni ularga yoqadigan, qiziqarli o'yinlar orqali, ya'ni musiqali didaktik o'yinlar orqali o'rgatib borish tavsiya etiladi.

Ushbu maqoladan o'rin olgan metodik tavsiyalar, ilmiy xulosalar va amaliy namunalar maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi musiqa rahbarlarining ish faoliyatlarida oz bo'lsa-da metodik yordam bo'lib xizmat qiladi, degan

umiddaman. Undan joy olgan metodik tavsiyalardan foydalanish jarayonida musiqa rahbarlariga o'z tajribalari va imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda, ijodiy tarzda yondoshish taklif etiladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Jalilov, Sh. (2022). *Musiqa nazariyasi (solfedjio)*. Kamolot.
2. Liviev A. (2020) *O'zbek xalq cholg'ularida ijrochilik*. Musiqa.
3. Qodirov R. (2005) *Musiqa psixologiyasi*. Musiqa.
4. Sharipova, G., Yakubova Sh. (2007). *Maktabgacha ta'lim muassasalarida musiqa o'qitish metodikasi*. G'afur G'ulom nomidagi nashriyot matbaa uyi.
5. Soipova, D. (2019). *Musiqa o'qitish nazariyasi va metodikasi*. Musiqa.

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA MUNOSABAT MOTIVATSIYASI SHAKLLANISHINING O'ZIGA XOS IJTIMOY – PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Korayeva Latifa Zarifovna

Navoiy innovatsiyalar universiteti o'qituvchisi (PhD)

latifaqorayeva@mail.ru

Annotatsiya. Ushbu maqolada munosabat jarayonini shaxs umumiy yo'nalaganligi doirasida talqin qilish, boshlang'ich sinf o'quvchilarida ta'lim jarayonida ijtimoiy munosabatlar doirasida, kichik maktab yoshidagi bolalardada o'quv faolligiga munosabat motivatsiyasi o'rganish, tadqiq, qilish usullari hamda boshlang'ich sinf o'quvchilarida o'quv jarayonlariga bo'lgan munosabat motivatsiyasi dastavval maktab hayotiga qiziqish, maktab hayotini his etish maktab hayotiga ma'lum e'tiqodlarning shakllanish yo'llari usullari haqida fikr yuritilgan. Maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilrining maktabga munosabat motivatsiyasini o'rganish, o'quv komponentlarini shakllanganlik darajalarini o'rganish, shaxs yo'nalganligini o'rganish orqali o'quv faoliyatiga munosabat motivatsiyasini tadqiq qilishga qaratilgan metodlar yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: ijtimoy munosabat, sub'ektiv munosabat, o'quv faoliyat, motiv, shaxs, motivatsiya, individ.

Abstract. In this article, the interpretation of the attitude process within the framework of the general orientation of the individual, within the framework of social relations in the educational process of elementary school students, the motivation of attitude to educational activity in children of junior school age, the methods of learning, research, and elementary First, the motivation of attitude towards educational processes among graders, interest in school life, feeling of school life, ways of formation of certain beliefs about school life were discussed. The

article describes the methods aimed at researching the motivation of primary school students' attitude to school, studying the levels of formation of educational components, and studying the orientation of the individual.

Keywords: social attitude, subjective attitude, educational activity, motive, person, motivation, individual.

Kirish. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida o'quv faoliyatiga munosabat motivatsiyasining shakllanishi juda ko'plab ijtimoiy – psixologik omillar bilan, jumladan, shaxs umumiy yo'nalganligi doirasidagi o'z – o'ziga, muloqotga va faoliyatga nisbatan munosabatlar tizimi bilan ham bevosita bog'liqdir. Tabiiyki, munosabat tushunchasi keng qamrovli va keng ko'lamli tushuncha bo'lib, uning talqini ham shu qadar keng va xilma-xildir. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida o'quv faoliyatiga munosabat motivatsiyasining shakllanishi juda ko'plab ijtimoiy – psixologik omillar bilan, jumladan, shaxs umumiy yo'nalganligi doirasidagi o'z – o'ziga, muloqotga va faoliyatga nisbatan munosabatlar tizimi bilan ham bevosita bog'liqdir. Chunki, talaygina ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatdiki, o'quv faolligiga munosabat eng avvalo o'z – o'ziga, o'zgalarga va faoliyat natijalariga munosabatdan boshlanadi va rivojlanadi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Munosabatning turli sohalaridagi ijtimoiy psixologik mezonlari bo'yicha tadqiqot olib borgan faylasuflar, psixologlar, sotsiologlar, psixofiziologlar, pedagoglar va qator ijtimoiy fanlarning vakillari munosabat kategoriyasining u yoki bu yo'nalishini ilmiy jihatdan asoslab beradilar. O'quv faoliyati esa xuddi shu tadqiqiy yo'nalishlarga tayanadi va shaxs faoliyati tarkib topishi uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Bu o'rinda professor E. G'oziev tomonidan talaygina ilmiy mulohazalar bildirilgan. Chunonchi, hozirgi kunda shaxsga sub'ektiv munosabat muammosini ijtimoiy jihatdan turmushda qaror toptirish uchun «odam-inson-shaxs-individuallik-sub'ekt-komillik» ierarxiyasiga rioya qilish, shaxsga sub'ektiv munosabat, ya'ni unda robot sifatida barcha xususiyatlarni bir tekis shakllantirish mumkin, degan xato nazariyadan voz kechish, «sub'ekt-sub'ekt» aloqasini vujudga keltirish, har kanday sub'ekt – shaxs, lekin har qaysi shaxs sub'ekt emasligi muammosini echish, shaxs sub'ekt bo'lishi uchun mustaqillik, shaxsiy pozitsiya, qat'iyatlilik, dunyoqarash va ularni hayotga tatbiq qilish imkoniyati mavjudligini tan olish kabi mulohazalar shaxs munosabatlari motivatsiyasi talqinida muhim o'rin tutadi[5]. K.Obuxovskiy motivni «ma'lum faoliyatni yo'naltiruvchi maqsad dasturi» sifatida talqin qilsa, X.Xekxauzen esa «motiv bu – individ-muhit munosabati doirasidagi yo'naltirilgan harakatlarni izohlovchi jarayon» ekanligini asoslab beradi. Ilmiy adabiyotlar tahlili

shuni ko'rsatadiki, shaxs shakllanishida muhim o'rin tutuvchi dunyoqarash, e'tiqod, ideallar, xulq-atvor motivlari u yoki bu qadriyatlarga asoslanadi. qolaversa, qadriyatlar ijtimoiy tajriba asosida ham shakllanadi [1].

Shu nuqtai nazardan, munosabat motivatsiyasi tadqiq etilgan ilmiy adabiyotlarni shartli ravishda quyidagi guruhlariga bo'lib talqin qilishni va shu talqin asosida tadqiqot vazifalarini belgilab olish lozim.

1. Munosabat motivatsiyasi asosida shaxsning qiziqishlari yotadi. Bu qiziqishlarning beqaror yoki barqarorligini ta'minlovchi ichki turtkilar tizimi ma'lum darajada munosabat tizimini ham belgilaydi.

2. Munosabat motivatsiyasiga shaxs yo'nalganligining u yoki bu darajada ta'siri namoyon etiladi. Ushbu ta'sir jarayonida shaxs yo'nalganligi va munosabat motivatsiyasi uyg'unligining ayrim ko'rinishlari yuzaga keladi.

3. Munosabat motivatsiyasi ma'lum ustanovkalar zahirida ham shakllanadi. Jumladan, o'quv faolligi bilan bog'liq ustanovkalar o'quvchi shaxsi ijtimoiy taraqqiyotiga daxldor omillarini belgilashga xizmat qiladi.

4. Munosabat motivatsiyasi zahirida qadriyatlar ko'lamining u yoki bu darajadagi ta'siriga ham baho berish mumkin[2].

Natijalar. Kuzatishlar va ilmiy tahlillar shuni ko'rsatdiki, o'quv faoliyatiga munosabat jarayoni ham shaxs psixologik yo'nalishida o'ziga xos ierarxik tizimga ega bo'lib, mazkur tizim asosida shaxs faolligining namoyon bo'lish belgisini, natijasi va dinamikasini tadqiq qilish mumkin. O'quv faolligiga munosabat motivatsiyasini shakllantirishga xizmat qiluvchi quyidagi yo'nalish tanlab olindi va shu yo'nalishlar tadqiqotning umumiy maqsadiga singdirildi: birinchi yo'nalishda maktabga munosabat motivatsiyasini o'rganish, ikkinchi yo'nalishda o'quv komponentlarini shakllanganlik darajalarini o'rganish, uchinchi yo'nalishda esa shaxs yo'nalganligini o'rganish orqali o'quv faoliyatiga munosabat motivatsiyasini tadqiq qilishga qaratilgan usullar majmuasi tanlab olindi va uni amaliyotga tatbiq etish vazifasi qo'yildi. Munosabat tizimi shkalasida o'quvchilar faoliyatida shakllanayotgan o'quv faolligini tanlash jarayoniga bo'lgan «faol-ijobiy», «ijobiy», «indifferent» munosabatlar motivatsiyasining kichik maktab yoshidagi o'quvchilar xarakteriga mos o'rtacha umumiy, qiyosiy-tipik ko'rsatkichlari ko'lamini kiritiladi va bu esa tadqiqot maqsadiga mos ijtimoiy psixologik mezonlarni tahlil qilish imkoniyatini yaratadi. o'quv faoliyatiga munosabat motivatsiyasini shakllantirishga xizmat qiluvchi quyidagi uch yo'nalish tanlab olindi va shu yo'nalishlar bo'yicha aniq yo'naltirilgan usullar majmuasi ishlab chiqildi. Jumladan, birinchi yo'nalishda maktabga va o'quv faoliyatiga umumiy munosabat motivatsiyasini tadqiq qilish usullari, ikkinchi yo'nalishda o'quv faoliyati

komponentlari asosidagi munosabat motivatsiyasini o'rganish usullari, uchinchi yo'nalishda shaxs yo'nalganligini o'rganish orqali o'quv faoliyatiga munosabat motivatsiyasini tadqiq qilish usullari; majmuasi tanlab olindi va uni amaliyotga tatbiq etish rejasini ishlab chiqildi. Shu nuqtai nazardan dastlabki usullar majmuasiga N.G.Luskanova tomonidan ishlab chiqilgan va tavsiya etilgan "Maktabga munosabat motivatsiyasini baxolash" metodikasini asos qilib olinadi. Albatta bu metodikaga qo'shimcha ravishda individual suhbatlar, anketa savollariga javoblar, maxsus kuzatuvlar hamda kontent tahlillar natijalaridan ham o'rni bilan foydalanildi[4].

Usul 10 ta vaziyatni o'z ichiga olgan va maxsus yo'naltirilgan anketa savollaridan iborat bo'lib, har bir savolning javobi shartli ravishda qabul qilingan ma'lum ma'nodagi munosabat motivatsiyasi darajalarini belgilashga xizmat qiladi. SHuning uchun dastavval anketa savollari tuzilib ishtirokchilarga tarqatiladi. Tarqatilgan anketa savollarining har birida 3 tadan javob varianti mavjud bo'lib ishtirokchidan shu variantlarning o'ziga nisbatan yaqinroq bo'lganini belgilash so'raladi. Belgilab bo'lingan anketa javoblarining haqqoniyligini bilish uchun eksperimentator savollar va ularning mazmunini yana bir bor takrorlash bilan birga har bir ishtirokchi bilan tanlangan javob yo'nalishi doirasida individual suhbat natijalarini ham qayd etib boradi. Barchasi tugagach, eksperimentator to'ldirilgan anketalarni terib oladi va ma'lumotlarni qayta ishlashga kirishadi.

Anketa savollaridagi javob variantlari quyidagi tartibda baholanadi.

Savol raqami	1-javob uchun ball miqdori	2-javob uchun ball miqdori	3-javob uchun ball miqdori
1	1	3	0
2	0	1	3
3	1	0	3
4	3	1	0
5	0	3	1
6	1	3	0
7	3	1	0
8	1	0	3
9	1	3	0
10	3	1	0

3 – ball - O'quvchining maktabga maktabdagi o'quv jarayoniga o'quv topshiriqlarini astoydil bajarishga bo'lgan xayrixohligi va barqaror qiziqishlarining mavjudligini ko'rsatadi.

1 – ball - Neytral javob, ya'ni “bilmayman”, “bo‘lib turadi”, “ba‘zan”, “aniq aytmayman” tarzidagi javoblar bo‘lib unda maktab ta‘limiga nisbatan bir muncha yuzakilik, loqaydlik ko‘rinishlarining ifodalanganligi anglashiladi.

0 – ball – Maktabga va maktab ta‘limiga nisbatan ijobiy munosabatning yo‘qligini bildiradi.

Muhokama. Usul asosan maxsus tuzilgan anketa savollari va unga berilgan javoblarni tahlil qilish orqali amalga oshiriladi. Chunonchi, o‘quvchiga tanlash uchun 24 juftlikdan iborat o‘quv topshiriqlari alternativ savolnoma tarzida taqdim etiladi. Ya'ni, tavsiya etilgan har bir topshiriqning bajarilishi o‘quvchi faoliyati uchun xarakterli bo‘lgan u yoki bu darajadagi munosabat motivatsiyasi ko‘rsatkichini belgilaydi. Masalan, “A” harfi orqali ko‘rsatilgan vaziyatdagi holatlarda ko‘proq ishtirok etish maylining mavjudligi (u yoki shu vaziyatning tanlanish) o‘quv faolligiga nisbatan indifferent (yuzaki) munosabat motivatsiyasining ustunligidan dalolat bersa, “V” vaziyatdagi holatlarning tanlanishi esa o‘quv faolligiga faol-ijobiy munosabat motivatsiyasi shakllanganligidan guvohlik beradi. Qisqacha qilib aytganda usulni qo‘llash tartibi quyidagicha:

Anketa savollarida qayd etilgan barcha javob variantlari o‘quv komponentlari tizimi bo‘yicha yuqoridagi tartibda belgilanadi. Ilgari ta’kidlanganidek, har bir alternativ savol raqamidagi “A” vaziyatning tanlanishi “0” ball bilan “B” vaziyatning tanlanishi esa “5” ball bilan belgilanadi. Jami 24 ta vaziyat uchun eng yuqori ball miqdori 120 ballni tashkil etadi. SHuningdek, har bir komponent uchun 8 ta vaziyat taklif etiladi. YA’ni har bir komponent uchun eng yuqori ball miqdori jami-40 ballni tashkil etadi. Barcha komponentlar bo‘yicha tanlangan “A” vaziyatlarga hech qanday ball qo‘yilmaydi. CHunki, taqdim etilgan barcha “A” vaziyatlar tegishli komponentga asoslangan faol-ijobiy munosabat motivatsiyasining mavjud emasligiga, “B” vaziyatlarda esa faol-ijobiy munosabat motivatsiyasi ishtirokining mavjudligi munosabat motivatsiyasiga asoslanib tuzilgan.

Ma’lumotlarning birlamchi qayta ishlanishi.

1. Yuqoridagi talablar asosida har bir ishtirokchi uchun xarakterli bo‘lgan ballar miqdori aniqlanadi.
2. Aniqlangan ballar miqdori shartli tarzda qabul qilingan munosabat motivatsiyasi shakllari (faol-ijobiy, ijobiy, indifferent) bo‘yicha joylashtiriladi.
3. Har bir ob’ekt ishtirokchilaridan olingan ballar miqdori o‘rtacha-umumiy ko‘rsatkichlar majmuasiga birlashtiriladi. SHuningdek, o‘rtacha umumiy foizlar miqdori ham belgilanadi.

4. Har bir sinf (2-sinf va 4-sinf) o'quvchilari uchun barcha ob'ektlar misolida xarakterli bo'lgan oraliq (diapazonlar) ko'rsatkichlari ham aniqlanib, umumiy xulosalar chiqariladi.

Ma'lumotlarning ikkilamchi qayta ishlanishi

1. Maktabga munosabat motivatsiyasi ko'rsatkichlari korrelyasion tahlil uchun qaytadan ko'rib chiqilib, maxsus jadvallarga kiritiladi.

2. Mavjud empirik ma'lumotlar o'rtasidagi korrelyasion bog'lanish natijalari, ma'lumotlarning ishonchlilik qiymati maxsus qabul qilingan statistik mezonlar yordamida qaytadan ko'rib chiqiladi. (SPSS dastruri bo'yicha).

3. Barcha ma'lumotlar bo'yicha yig'ilgan matematik statistik natijalarga tayanib umumiy qonuniyatlar aniqlanadi.

Shunday qilib mazkur birinchi yo'nalishdagi usullar majmuasi yordamida boshlang'ich sinf o'quvchilariga xos bo'lgan munosabat motivatsiyasining o'rtacha-umumiy hamda qiyosiy-tipik ko'rsatkichlari tahlil qilinadi. SHu tahlillarga tayanib tadqiqot maqsadiga mos ravishda tegishli ilmiy-amaliy xulosalar chiqarish mumkin. Avvalo uni aytish kerakki, mazkur usullar majmuasi o'quvchi shaxsi faoliyatidagi o'quv komponentlarining qay darajada tarkib topayotganligini aniqlashga xizmat qiladi. Chunki, har qanday faollik zamirida ma'lum omillar yotadi. Bizning nazrimizda esa, o'quv faolligi yoki o'quv faolligini namoyon qilishga bo'lgan munosabat motivatsiyasi zamirida o'quv kompanentlarining (kognitiv, hissiy-irodaviy, baholash) ishtiroki muhim o'rin tutadi. Ya'ni tegishli darajadagi o'quv komponentini shakllantirish orqali o'quv faolligi haqida gapirish mumkin.

Maktabga munosabat motivatsiyasi namoyon etilishining o'rtacha – umumiy qiyosiy tipik ko'rsatkichlari, ko'rsatkichlari bo'yicha oraliq diapazonlari va umumiy ishtirokchilar soniga nisbatan o'rinlar.


Boshlangich sinf ukuvchilarida maktabga munosabat motivatsiyasi namoyon etilishining urtacha umumiy ko'rsatkichlari bo'yicha korelyasion bog'lanish natijalari (2 sinf)

		Faol ijobiy	ijobiy	Indif ferent
Faol ijobiy	X^2 (Pirson)	1	0,313	0,400
		.	0,546	0,432
ijobiy	X^2 (Pirson)	0,313	1	0,650
		0,546		0,162
Indif ferent	X^2 (Pirson)	0,400	0,650	1
		0,432	0,162	


Boshlang'ich sinf ukuvchilarida maktabga munosabat motivatsiyasi namoyon etilishining urtacha umumiy ko'rsatkichlari bo'yicha korelyasion bog'lanish natijalari (4 sinf)

$(n_2=1000)$		Faol ijobiy	ijobiy	indiffere nt
Faol ijobiy	X^2 (Pirson)	1	0,985(**)	0,052
			0,000	0,923
ijobiy	X^2 (Pirson)	0,985(**)	1	0,046
		0,000	.	0,930
indifferent	X^2 (Pirson)	0,052	0,046	1
		0,923	0,930	

Maktabga munosabat motivatsiyasi ko'rsatkichlarining diagramma ko'rinishlari (% hisobida)



Shartli belgilarlar



- A faol ijobiy munosabat
- B ijobiy munosabat
- V indifferent munosabat

O'quv faolligiga bo'lgan indefferent munosabatlar o'quvchi shaxsi ijtimoiy va intellektual taraqqiyoti imkoniyatlaridan unumli foydalanishga bir muncha halaqit beradi. Kuzatishlar shundan dalolat bermoqdagi, indifferent munosabat ko'rsatkichlarining o'sib borishi o'quv faolligining pasayib borishiga yoki aksincha, indifferent munosabatlarning pasayib borishi o'quv faolligining ortib borishiga olib keladi. Aniqlangan bu holat esa boshlang'ich sinf o'quvchilari hamda maktab psixologlarining doimiy diqqat markazida bo'lishini taqozo etadi. Olingan bu ma'lumotlar metodika mazmuniga mos oldingi ma'lumotlar tahlilining ob'ektivligini yana bir bor tasdiqlaydi.

Xulosa. Demak, yuqoridagi tahlillardan ko'rinib turibdiki, boshlang'ich sinf o'quvchilarida o'quv jarayonlariga bo'lgan munosabat motivatsiyasi dastavval maktab hayotiga qiziqish, maktab hayotini his etish maktab hayotiga ma'lum e'tiqodlarning shakllanishi bilan bevosita bog'liqdir. Luskanova metodikasi asosida qo'lga kiritilgan empirik ma'lumotlar esa boshlang'ich sinf

o'quvchilaridagi maktabga munosabat darajalarining turli tumanligidan dalolat beradi. Maxsus yo'naltirilgan qo'shimcha individual suhbatlar va boshqa usullar orqali bu holatning sababini o'rganganimizda shu narsa ayon bo'ldiki, kichik maktab yoshidagi o'quvchilar ko'proq biror o'quv topshirig'ini bajarmoqchi bo'lsalar eng avvalo ular shu topshiriqni o'ziga xos ishtiyoq zavq-shavq bilan bajaradilar, shu bilan birga ular o'qituvchidan maqtov eshitish hissi bilan ko'proq harakat qiladilar va har qanday o'quv topshirig'ini bajarish uchun irodaviy kuch sarflayveradilar. Aniqrog'i, aksariyat hollarda ulardagi hissiy-irodaviy sifatlar o'quv faolliyatiga faol-ijobiy munosabat motivatsiyasining shakllanishiga xizmat qiladi.

Munosabat psixologiyasi shaxs ijtimoiy taraqqiyotiga daxldor dolzarb muammolardan biri ekanligi va bu muammo ichida shaxs faolligini ta'minlashga xizmat qiluvchi munosabat motivatsiyasining o'rganilishi esa bugungi ta'lim-tarbiya jarayonining samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida o'quv jarayoniga nisbatan faol – ijobiy munosabatlarning etrli darajada shakllanishi boshlang'ich ta'lim tizimida muvaffaqiyatli tashkil etilgan psixologik xizmat jarayoniga ham bog'liqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Andreeva G.M. Sotsialnaya psixologiya. - M., 1996.
2. Baratov SH.R. Sotsialno-psixologicheskie i nauchno-prakticheskie osnovy sozdaniya psixologicheskoy slujby v Uzbekistane. (Avtoref. diss. dokt.psix. nauk).–T.,1998.-37 s.
3. Barotov SH.R. Kichik yoshdagi o'quvchilar faoliyatini baholash. - T.: «O'qituvchi», 1992. - 48 b.
4. Barotov SH.R., Muxtorov E.M O'smirlarda psixologik muhofaza T.:Fan, 2008 y.-141 b.
5. Beruniy A. Tanlangan asarlar. II tom. – T., 1965. - 125 b.
6. Psixologicheskie osnovy formirovanie lichnosti v usloviyax obshchestvennogo vospitaniya.-M., 1979.
7. G'oziev E. Psixologiya. O'quv qo'llanma. - T.: «O'qituvchi», 1994. - 224 b.
8. Psixologiya praktiki obucheniya i vospitaniya. // Mater. nauchno-praktich. konferensii. - M., 1990.
9. Rabochaya kniga shkolnogo psixologa. (I.V.Dubrovina, M.K.Akimova, E.M.Borisova i dr.Pod.red.I.V.Dubrovinoj).M«Prosveshchenie»1991-303s.

ВЛИЯНИЕ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ НА ОБУЧЕНИЕ И ПСИХИЧЕСКОЕ РАЗВИТИЕ ДЕТЕЙ ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА

Шамиева Ойбахор Равшановна

канд. психол. наук, доц.

*Навоийского государственного горно-технологического
университета, Республика Узбекистан, г. Навои*

Аннотация: В статье рассматривается влияние цифровых технологий на обучение и психическое развитие детей дошкольного возраста. Анализируются психолого-педагогические подходы к их использованию, выявляются риски чрезмерного применения и обосновывается необходимость создания условий для гармоничного развития ребёнка в цифровой образовательной среде.

Ключевые слова: цифровые технологии; дошкольное образование; психическое развитие детей; когнитивное развитие; эмоциональная сфера; психолого-педагогические условия

Введение. Современная система дошкольного образования развивается в условиях активной цифровизации, затрагивающей содержание, формы и средства организации образовательного процесса. Цифровые технологии всё чаще используются в практике дошкольных образовательных организаций в качестве дополнительных развивающих средств, инструментов визуализации учебного материала, а также средств взаимодействия педагогов с детьми и родителями [1, 2, 6]. В связи с этим возрастает необходимость научного осмысления влияния цифровых технологий на обучение и психическое развитие детей дошкольного возраста.

Дошкольный возраст является сензитивным периодом психического развития, в ходе которого формируются базовые когнитивные процессы, эмоционально-волевая сфера, предпосылки учебной деятельности и основы личности ребёнка [1,3,7]. Включение цифровых технологий в образовательный процесс дошкольной организации требует особого психолого-педагогического подхода, учитывающего возрастные и индивидуальные особенности детей [4, 5, 8].

В научных исследованиях подчёркивается, что цифровые технологии обладают значительным развивающим потенциалом: способствуют повышению познавательной активности, развитию наглядно-образного мышления и расширению образовательных возможностей дошкольников [9, 10]. Вместе с тем, ряд авторов указывает на возможные риски, связанные с увеличением экранного времени, снижением уровня произвольной регуляции, изменениями игровой деятельности и особенностями эмоционального состояния детей дошкольного возраста [3, 4, 6].

Таким образом, в практике дошкольного образования возникает противоречие между объективной необходимостью использования цифровых технологий как элемента современной образовательной среды и недостаточной разработанностью научно обоснованных психолого-педагогических условий их применения с целью сохранения и поддержки психического развития детей [2, 6, 10]. Указанное противоречие определяет актуальность настоящего исследования.

Актуальность исследования обусловлена активной цифровизацией образовательной среды и ранним включением детей в цифровое пространство. Как отмечает Н. Е. Веракса, психическое развитие современных детей протекает в условиях постоянного взаимодействия с цифровыми технологиями, что влияет на формирование познавательных процессов и социальной активности ребёнка [1, 2].

В исследованиях А. А. Федонкиной подчёркивается, что современные дети формируются в условиях «цифрового детства», в котором цифровая среда становится значимым фактором социализации и психического развития [2, с. 27–30]. Эмпирические данные, представленные в работах М. Н. Гавриловой и Н. Е. Вераксы, свидетельствуют о том, что увеличение экранного времени у детей дошкольного возраста связано с изменениями

характеристик внимания, саморегуляции и игровой деятельности [3, с. 114–118].

При педагогически целесообразном использовании цифровые технологии могут выступать средством развития познавательной активности и наглядно-образного мышления дошкольников [4, с. 41–44]. Это подчёркивает необходимость создания психолого-педагогических условий, обеспечивающих гармоничное развитие детей в цифровой образовательной среде.

Теоретический обзор. Современное дошкольное образование развивается в условиях активной цифровизации, которая влияет на формы, методы и средства организации образовательного процесса. Цифровые технологии включают интерактивные панели, планшеты, обучающие приложения и образовательные платформы, используемые для повышения наглядности и развития познавательных процессов у детей дошкольного возраста [1, 6, 9].

Н. Е. Веракса [1, с. 12–17] отмечает, что дошкольный возраст является сензитивным периодом психического развития, когда ребёнок особенно восприимчив к новым образовательным воздействиям, включая цифровые технологии. Педагогически целенаправленное использование интерактивных средств способствует развитию внимания, памяти, наглядно-образного мышления и формированию основ учебной деятельности.

Использование цифровых технологий в образовательном процессе обеспечивает следующие преимущества:

- индивидуализацию обучения;
- стимулирование познавательной активности и креативности;
- развитие наглядно-образного мышления.

Однако, как отмечает Федонкина [2, с. 27–30], чрезмерное или неконтролируемое использование цифровых средств может приводить к

снижению произвольной регуляции, фрагментации внимания и изменению эмоционального состояния детей.

Цифровые технологии оказывают многоплановое влияние на психическое развитие детей дошкольного возраста. Их использование способствует развитию когнитивных процессов, таких как память, внимание и воображение. Вместе с тем, увеличение времени, проведённого за экраном, может приводить к снижению концентрации и возникновению трудностей в планировании действий [3, 7].

На эмоциональном уровне цифровые средства способны стимулировать положительные эмоции и повышать интерес к учебной деятельности. Однако при отсутствии педагогического контроля возможно возникновение эмоциональной нестабильности и снижение мотивации у детей [4, 5, 6].

В социальной сфере совместное использование цифровых технологий способствует развитию коммуникационных навыков и умению взаимодействовать с другими детьми. В то же время длительное индивидуальное использование гаджетов может ограничивать контакты со сверстниками и замедлять формирование социальных навыков [9, 10].

А. А. Федонкина [2, с. 27–30] вводит понятие «цифрового детства», подчеркивая, что современный ребёнок формируется в условиях постоянного взаимодействия с цифровыми образовательными ресурсами. Автор указывает на необходимость педагогического контроля за экранным временем и правильным подбором программного обеспечения, чтобы сохранить эмоциональное и психическое здоровье ребёнка.

М. Н. Гаврилова и Н. Е. Веракса [3, с. 114–118] исследуют влияние экранного времени на развитие саморегуляции и игровой деятельности детей дошкольного возраста. Они выявили, что чрезмерное или неконтролируемое использование цифровых технологий может приводить к фрагментации внимания, снижению произвольной регуляции и изменению игровых

навыков, что подчеркивает необходимость психолого-педагогических условий для безопасного использования цифровых средств.

Е. О. Смирнова [4, с. 41–44] рассматривает цифровые технологии как инструмент, стимулирующий познавательную активность дошкольников. Интерактивные приложения и обучающие платформы способствуют развитию воображения, исследовательской активности и творческого мышления, однако педагогический контроль является обязательным для предотвращения перегрузки и эмоциональной нестабильности.

Т. И. Захарова и Л. П. Кузнецова [6, с. 33–38] акцентируют внимание на практических аспектах использования цифровых технологий в дошкольном образовании. Они показывают, что интерактивные образовательные средства расширяют возможности индивидуального и дифференцированного подхода, способствуют интеграции когнитивного, эмоционального и социального развития детей, а также разнообразят формы организации занятий.

Таким образом, отечественные исследования подчёркивают двойственную природу цифровых технологий в дошкольной образовательной среде: с одной стороны, они обладают высоким развивающим потенциалом, с другой — могут быть источником рисков при неконтролируемом применении. Современные исследования направлены на разработку психолого-педагогических условий, обеспечивающих безопасное и эффективное использование цифровых технологий для гармоничного психического развития дошкольников [1–6, 9, 10].

Педагогическая практика и исследования авторов показывают, что для эффективного использования цифровых технологий в дошкольном образовании необходимо учитывать возрастные и индивидуальные особенности детей. Важно применять дифференцированный подход, сочетать цифровые и традиционные формы деятельности, а также создавать безопасную и развивающую образовательную среду, обеспечивающую

гармоничное психическое развитие дошкольников [1, 2, 6]. Такие психолого - педагогические условия позволяют использовать развивающий потенциал цифровых средств, минимизируя возможные риски, связанные с чрезмерным или неконтролируемым их применением.

Для проверки влияния цифровых технологий на психическое и когнитивное развитие детей в исследовании применялся комплекс теоретических и эмпирических методов. Теоретический анализ научной литературы [1–5] позволил систематизировать существующие подходы и выявить ключевые психолого-педагогические принципы использования цифровых образовательных средств. Эмпирические методы включали педагогическое наблюдение, тестирование когнитивных и эмоциональных показателей у дошкольников, а также анкетирование педагогов, работающих с цифровыми технологиями [3, 8, 9]. Полученные данные подвергались статистической обработке, включая сравнительный анализ показателей до и после применения цифровых средств, что позволило объективно оценить их влияние на психическое, эмоциональное и социальное развитие детей.

Результаты исследования. Исследование показало, что умеренное использование цифровых технологий положительно сказывается на когнитивном развитии детей дошкольного возраста, способствуя улучшению памяти, внимания и воображения. Вместе с тем у детей, длительно и неконтролируемо использующих планшеты и интерактивные приложения, наблюдалось снижение устойчивости внимания и возникали трудности в планировании действий [3, 7].

На эмоциональном уровне цифровые образовательные средства стимулируют интерес к занятиям и вызывают положительные эмоции у детей. Вместе с тем чрезмерное использование технологий может приводить к проявлению раздражительности, снижению эмоциональной устойчивости и мотивации [4, 5, 6].

В социальной сфере совместное использование цифровых средств с педагогом и сверстниками способствует развитию коммуникативных навыков, умению сотрудничать и взаимодействовать в группе. Напротив, длительное индивидуальное использование гаджетов может ограничивать социальные контакты и создавать трудности в межличностном взаимодействии [9, 10].

Таким образом, результаты исследования подтверждают, что цифровые технологии обладают значительным развивающим потенциалом, однако их эффект напрямую зависит от организации образовательной среды и педагогического сопровождения.

Обсуждение результатов. Результаты исследования подтверждают выводы учёных о том, что цифровые технологии обладают развивающим потенциалом при соблюдении психолого-педагогических условий использования [1, 2, 6]. Важнейшим условием является баланс между цифровыми и традиционными формами деятельности, дифференцированный подход и педагогический контроль.

На основании результатов исследования можно рекомендовать:

- ограничение продолжительности экранного времени;
- организацию совместной деятельности детей с использованием цифровых средств;
- использование технологий как вспомогательного инструмента, а не основного метода обучения.

Заключение. Цифровые технологии способны положительно влиять на психическое развитие детей дошкольного возраста при соблюдении педагогически целесообразных условий. Исследование выявило:

- значительный потенциал цифровых технологий для развития когнитивных, эмоциональных и социальных навыков;

- необходимость контроля продолжительности и характера использования цифровых средств;
- важность сочетания цифровых и традиционных форм обучения.

Данные выводы имеют практическое значение для педагогов дошкольных организаций и могут быть использованы при планировании развивающих занятий и организации образовательной среды.

Список литературы

1. Веракса Н. Е. Развитие ребёнка в образовательной среде дошкольной организации // Психологическая наука и образование. — 2021. — Т. 26, № 3. — С. 12–17.
2. Федонкина А. А. Особенности психического развития детей в условиях цифровизации общества // Психология и право. — 2022. — Т. 12, № 4. — С. 27–30.
3. Веракса Н.Е., Гаврилова М.Н. Экранное время и развитие саморегуляции у детей дошкольного возраста // Культурно-историческая психология. — 2023. — Т. 19, № 2. — С. 114–118.
4. Смирнова Е.О. Цифровые средства в дошкольном образовании: психологические риски и возможности // Современное дошкольное образование. — 2020. — № 6. — С. 41–44.
5. Романова К.В. Влияние технологий цифрового образования на эмоциональное состояние личности // Наука в мегаполисе. — 2024. — № 59. — С. 41–49.
6. Захарова Т.И., Кузнецова Л.П. Психолого-педагогические аспекты использования цифровых технологий в дошкольном обучении // Дошкольное образование. — 2022. — № 4. — С. 33–38.
7. Иванова А.В. Цифровая образовательная среда и развитие когнитивных процессов у дошкольников // Вестник педагогики и психологии. — 2021. — Т. 18, № 1. — С. 55–61.

8. Петрова М.Н. Влияние интерактивных технологий на развитие внимания и памяти у детей дошкольного возраста // Педагогика и психология образования. — 2020. — Т. 15, № 2. — С. 72–78.
9. Лебедева С.А. Использование планшетов и интерактивных приложений в развивающей деятельности дошкольников // Современные проблемы дошкольного образования. — 2021. — № 7. — С. 29–35.
10. Киселева Е.В. Психологические особенности освоения цифровых образовательных средств детьми раннего и дошкольного возраста // Дошкольная педагогика. — 2022. — Т. 23, № 5. — С. 15–21.

HOZIRGI IJTIMOIIY-MADANIY O‘ZGARISHLAR SHAROITIDA OILA TARBIYASINING ROLI

Xolmatova Zulfiya Tillavoldievna

Farg‘ona davlat universiteti,
pedagogika bo‘yicha falsafa fanlari doktori (PhD), dotsent

Annotatsiya: Oilaviy tarbiya shaxsni shakllantirish uchun asos bo‘lib, jamiyatning uyg‘un rivojlanishida muhim rol o‘ynaydi. O‘zbekistonda oilaviy tarbiya muammolarini shakllantirish va hal etishning tarixiy xususiyatlarini o‘rganish qimmatli an‘analarni aniqlash, shuningdek, ijtimoiy va madaniy o‘zgarishlar kontekstida ta’limga yondashuvlar evolyutsiyasini tahlil qilish imkonini beradi.

O‘zbekistonda oilaviy tarbiya haqidagi g‘oyalarning evolyutsiyasini kuzatish, turli tarixiy davrlarda oilaviy tarbiya muammolarini shakllantirish va hal qilish xususiyatlarini aniqlash, shuningdek, ularning zamonaviy jamiyat uchun dolzarbligini tahlil qilish.

Ilmiy yangilik: tadqiqot O‘zbekistonda oilaviy tarbiyaning o‘ziga xos xususiyatlari haqidagi bilimlarni tarixiy kontekstda chuqurlashtiradi, qimmatli an‘analarni ochib beradi va ularni zamonaviy sharoitlarga moslashtirish yo‘llarini taklif etadi.

Amaliy ahamiyati: tadqiqot natijalari o'qituvchilar, psixologlar, ijtimoiy ish bo'yicha mutaxassislar ishida, shuningdek, oilaviy ta'lim bo'yicha o'quv dasturlarini ishlab chiqishda ishlatilishi mumkin.

Kalit so'zlar: oilaviy tarbiya, o'zbek pedagogikasi tarixi, oilaviy tarbiya muammolari, oilaviy tarbiya an'analari, ijtimoiy-madaniy kontekst, oilaviy tarbiya evolyutsiyasi.

Annotation: family upbringing is the basis for the formation of personality and plays an important role in the harmonious development of society. The study of the historical features of the formation and solution of problems of family education in Uzbekistan makes it possible to identify valuable traditions, as well as analyze the evolution of approaches to education in the context of social and cultural changes.

The purpose of the study: to observe the evolution of ideas about family upbringing in Uzbekistan, to determine the features of the formation and solution of problems of family upbringing in different historical periods, as well as to analyze their relevance for modern society.

Scientific innovation: the study deepens knowledge about the peculiarities of family education in Uzbekistan in a historical context, reveals valuable traditions and offers ways to adapt them to modern conditions.

Practical significance: the results of the study can be used in the work of teachers, psychologists, social work specialists, as well as in the development of educational programs on family education.

Keywords: family education, history of Uzbek pedagogy, problems of family education, traditions of family education, socio-cultural context, evolution of family education.

Kirish. Oila jamiyatning eng kichik, lekin eng muhim bo'g'ini bo'lib, farzand tarbiyasining ilk maskani hisoblanadi. Qadimdan o'zbek xalqida oilani muqaddas bilish, farzandlarni tarbiyalashni millat taraqqiyoti uchun asosiy omil

deb qarash shakllangan. Darhaqiqat, tarixiy manbalarda allomalar oilada bola tarbiyasining ahamiyatini ko'p ta'kidlab, oila tarbiyasi konsepsiyasiga asos soldilar. Xususan, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino kabi mutafakkirlar farzand kamolotini oilasiz tasavvur qilib bo'lmashligini turli dalillar bilan isbotlaganlar. O'rta asr manbalarida oilada to'g'ri tarbiya jamiyat farovonligi garovi ekani, aksincha yomon tarbiya faqat bitta oilaga emas, balki butun atrofga salbiy ta'sir qilishi ta'kidlangan. Shu boisdan ota-ona farzandga birday mas'ul ekani, uyda sog'lom muhit yaratish orqali farzandning axloqiy-ruhiy rivojiga zamin hozirlash lozimligi uqtirilgan.

Bugungi kunda jamiyatda ro'y berayotgan ijtimoiy-madaniy o'zgarishlar — globallashuv, urbanizatsiya, raqamli texnologiyalarning kundalik hayotga kirib kelishi, gender tenglik tamoyillarining kuchayishi va ta'lim tizimidagi islohotlar — oiladagi tarbiya vazifalarini yangi kontekstga olib chiqmoqda. Endilikda bolalar maktabda ko'p bilim olishsa-da, ularning shaxs sifatida shakllanishida, ijtimoiy va emotsional ko'nikmalarni egallashida oila muhitining o'rne o'zgarmay qolmoqda. Shu sababli oilaviy tarbiya masalalarini zamonaviy nuqtai nazardan qayta ko'rib chiqish va xalqaro tajribalar bilan boyitish dolzarbdir.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Tadqiqotda sifat metodlari qo'llanildi. Avvalo, tarixiy-pedagogik tahlil usuli orqali o'zbek pedagogikasi tarixiga oid manbalar (Beruniy, Farobiy, Ibn Sino, Yusuf Xos Hojib va boshqalar asarlari) o'rganilib, ulardagi oila tarbiyasiga oid qarashlar tahlil qilindi. Shuningdek, adabiyotlar sharhi usuli yordamida zamonaviy ilmiy manbalar (Scopus va Web of Science bazalariga kiruvchi maqolalar, xalqaro tashkilotlar hisobotlari) tahlil qilindi. Xususan, ota-ona ishtiroki (parental involvement), ijtimoiy-emotsional rivojlanish (socio-emotional development) va raqamli ota-onalik (digital parenting) mavzularidagi so'nggi yillarda chop etilgan maqolalarga alohida e'tibor qaratildi. Mazkur manbalarni o'rganishda taqqoslash va kontent tahlili usullaridan foydalanilib, tarixiy yondashuvlar va zamonaviy konsepsiyalar o'rtasidagi uzviylik

va farqlar aniqlandi. Tadqiqotning nazariy qismi ilmiy maqolalar asosida olib borilib, ulardagi dalillar tahliliy tarzda umumlashtirildi. Olingan ma'lumotlar xalqaro pedagogik tamoyillar prizmasida talqin qilinib, o'zbek oilaviy tarbiya an'analari bilan qiyosiy o'rganildi.

Natijalar. Tarixiy asoslar: O'rganilgan tarixiy manbalarga ko'ra, o'zbek madaniy merosida oilaviy tarbiya muammolari juda qadimdan kun tartibida bo'lgan. Abu Rayhon Beruniy (973–1048) asarlarida oilada ota-ona va kattalarning bolalarga faqat yaxshi xulq-atvor va ezgu so'zlar bilan namuna bo'lishi lozimligi uqtiriladi. Beruniy yaxshi odob hamda yomon odatlarning ko'pi oila tarbiyasiga bog'liq ekanini ta'kidlab, oilada tarbiya usullari to'g'ri qo'llansa, oila baxtli bo'lishini va buning uchun tarbiyada yagona maqsad va talab bo'lishi zarurligini qayd etadi. Ibn Sino (980–1037) o'zining "Tadbir al-manzil" ("Xonadon boshqaruvi") risolasida oilaviy munosabatlarning deyarli barcha jihatlarini ko'rib chiqib, bola tarbiyasini ota-ona zimmasidagi asosiy vazifa deb belgilaydi. Uning fikricha, jamiyatdagi mavqeidan qat'i nazar har bir ota va ona farzandining tarbiyasiga birday mas'uldir. Ibn Sino farzandning ma'naviy kamolotida ota-ona namunasi hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanini ta'kidlab, sharoitga qarab bolaga yaxshi tarbiya berish uchun zarur choralarni tavsiya etadi. Yusuf Xos Hojib ham o'zining "Qutadg'u bilig" asarida axloq va ta'lim masalalariga to'xtalar ekan, bola tarbiyasi, odob-ahloq va ilm-ma'rifatning ahamiyatini didaktik yo'sinda bayon etadi. Ushbu tarixiy asoslarga ko'ra, oilaviy tarbiyaning poydevori ezgu fazilatlar, ota-onaning shaxsiy namuna ko'rsatishi va mas'uliyatli burchidan iborat bo'lgan.

Ota-onalar ishtiroki va bola muvaffaqiyati: Zamonaviy xalqaro tadqiqotlar oiladagi ota-onalar ishtiroki (parental involvement) bolalarning akademik va ijtimoiy muvaffaqiyatiga sezilarli ijobiy ta'sir ko'rsatishini isbotlamoqda. Xususan, 50 ta ilmiy tadqiqotni qamrab olgan meta-tahlil natijalariga ko'ra, ota-onalarning farzandlari ta'limidagi faol ishtiroki o'quvchilarning akademik yutuqlarini oshiradi. Eng muhimi, uyda o'qish uchun qulay muhit yaratish, bolaning

maktabdagi ishlari bilan qiziqish, oddiy suhbat va maslahatlar orqali ta'limni qo'llab-quvvatlash singari oddiy harakatlar ham bolalarning o'qishidagi yutuqlarini sezilarli darajada yaxshilashi mumkin. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ota-onalar tomonidan uyda va maktabda ko'rsatiladigan e'tibor va yordam nafaqat baholarni yaxshilaydi, balki bolalarda maktabga nisbatan ijobiy munosabat, yuqori motivatsiya va yakuniy bosqichgacha ta'limni davom ettirish ehtimolini oshiradi. Shu sababli ko'plab rivojlangan davlatlar ta'lim siyosatida ota-onalar bilan hamkorlikni kuchaytirishga alohida urg'u berilmoqda – masalan, AQShda No Child Left Behind (2002) qonuni ota-onalarning ta'lim jarayonida qatnashuvini shart qilib qo'ygan. Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, maktab va oila hamkorligi orqali o'quvchilarning bilim sifati va ijtimoiy faolligini oshirish, ijtimoiy tabaqalanishdan keluvchi farqlarni qisqartirish mumkin.

Ijtimoiy-emotsional rivojlanish: Farzandning ijtimoiy va emotsional rivojlanishi ko'p jihatdan oiladagi tarbiya va muhitga bog'liq. Xalqaro tadqiqotlarda ota-ona ishtirokining yuqori bo'lishi bolalarning nafaqat akademik, balki ijtimoiy-emotsional jihatdan ham barkamol o'sishiga hissa qo'shishi ta'kidlanadi. Masalan, OECD tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra, ota-onalar ta'lim jarayonida faol qatnashganda bolalarda o'z hissiyotlarini boshqarish, jamoadagi xulq-atvor va muloqot ko'nikmalari yaxshilanadi. Avstraliyada olib borilgan izlanishlar ham parental engagement (oilalarning qatnashuvi) bolalarning sinfdagi xulqi, maktabga davomati va hatto maktabni tamomlash ko'rsatkichlariga ijobiy ta'sir qilishini ko'rsatgan. Xususan, ota-onasi o'qishda ko'maklashadigan, kitoblar haqida suhbatlashadigan yoki maktabdagi ishlari haqida qiziqib so'raydigan bolalar ko'proq ijtimoiy moslashgan, sinfdoshlari bilan yaxshi muloqot qila oladigan va emotsional barqarorlikka ega bo'lishadi. Bu natijalar oilaning faqat bilim berish emas, balki bolaning hissiy dunyosini boyitish va ijtimoiy qobiliyatlarini shakllantirishdagi o'rni muhim ekanini isbotlaydi. Shu bois, dunyo bo'ylab ta'lim dasturlarida ijtimoiy-emotsional tarbiya (SEL – Social-Emotional

Learning) kontsepsiyasini amalga oshirishda ota-onalarni jalb etishga alohida e'tibor berilmoqda.

Raqamli tarbiya (digital parenting): Axborot texnologiyalari asrida oilaviy tarbiyaning yana bir muhim ko'rinishi – raqamli tarbiya yoki raqamli ota-onalikdir. Zamonaviy bolalar internet va gadjetlardan keng foydalanayotgan bir vaqtda, ularning raqamli dunyodagi xulqini yo'naltirish va nazorat qilish ota-onaning yangi vazifalaridan biriga aylandi. Ilmiy manbalarda digital parenting ota-onalarning farzandlariga raqamli qurilmalardan foydalanishda aniq chegaralar qo'yishi, onlayn faollikni kuzatib borishi va bu borada ochiq muloqot olib borishini nazarda tutuvchi tarbiya uslubi sifatida tariflanadi. Tadqiqotlarga ko'ra, agar bolaga internetdan foydalanishda yetarli yo'l-yo'riq va nazorat berilmasa, u turli salbiy hodisalarga duchor bo'lishi mumkin: shaxsiy identifikatsiya inqirozi, ijtimoiy tarmoqlarda noxush tajribalar (kiberbezorilik, aldovlar) yoki zo'ravonlik xavfi kabi. Masalan, bir tadqiqotda bolalarning 37% internetda kiberbezorilik qurboni bo'lganini bildirgan. Shu sababli ota-onalar farzandlarining onlayn faoliyatini tushunishi va nazorat qilishi, ularga raqamli xavf va odob qoidalarini o'rgatishi juda muhim. Tegishli choralar ko'rilsa, samarali raqamli tarbiya bolalarni onlayn xatarlardan asrab, ularning kelajakda zarur bo'ladigan raqamli ko'nikmalarini rivojlantirishi mumkin. Ilmiy kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, ota-onalar bolalari bilan birga ularning internetda nima qilayotganini muhokama qilib, vaqt va mazmun bo'yicha oqilona cheklovlar o'rnatib, bolalarda raqamli savodxonlik oshib, internetdan foydali maqsadlarda foydalanish malakalari shakllanadi. Raqamli tarbiya nafaqat cheklov o'rnatish, balki farzandning raqamli dunyoda o'zini ijobiy namoyon etishiga ko'maklashish, qiziqishlarini qo'llab-quvvatlashni ham anglatadi.

Gender tengligi va oiladagi rol taqsimoti: Hozirgi davr pedagogikasida gender teng tarbiya masalasi ham e'tibor markazida turibdi. An'anaviy oilalarda ota asosan ro'zg'or tebratish, ona esa bolani parvarishlash ro'lida ko'rilgan bo'lsa,

bugungi kunda bunday rol taqsimotiga tanqidiy yondashilib, farzand tarbiyasida ota va ona teng ishtirok etishi kerakligi ilgari surilmoqda. Xalqaro tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ota-onalar o'z oilalarida kooperativ ota-onalikni yo'lga qo'yib, majburiyatlarni teng baham ko'rganlarida va gender stereotiplarni cheklovchi xatti-harakatlardan tiyilganlarida, bolalarda gender tenglikka oid sog'lom qarashlar shakllanadi. Misol uchun, zamonaviy izlanishlar ota roli faqat moddiy ta'minot emas, balki tarbiyaviy jarayonning faol ishtirokchisi bo'lishi zarurligini ta'kidlaydi; otalar ta'lim va tarbiyada qanchalik faol qatnashsa, bolalarda ijobiy xarakter xususiyatlari va tenglik tamoyillariga sadoqat shunchalik kuchli bo'lishi aniqlangan. Oilada qiz va o'g'il farzandlarga teng imkoniyatlar yaratish, mas'uliyat va majburiyatlarni genderga qarab ajratmaslik ularning keyinchalik jamiyatda gender tenglik tarafdori bo'lib ulg'ayishiga zamin yaratadi. Shu bilan birga, onaning ish faoliyatida bo'lishi yoki otaning farzand parvarishida faol qatnashuvi kabi holatlar jamiyatda normal qabul qilinishi uchun ham tarbiya jarayonida bu qadriyatlar bolaga singdirilishi lozim.

Yuqoridagi natijalardan ko'rinadiki, oilaviy tarbiya sohasi bugungi kunda keng qamrovli tushunchaga aylangan bo'lib, u nafaqat an'anaviy axloqiy tarbiyani, balki zamonaviy dunyoning turli qirralariga moslashishni ham o'z ichiga oladi. Ota-onalarning ta'limdagi ishtiroki, farzandning emotsional-intellektual rivojiga e'tibor, ularning raqamli hayotini ko'z-quloq bo'lish va gender tenglik ruhida tarbiyalash – bular zamonaviy oilaviy tarbiyaning asosiy yo'nalishlari sifatida aniqlandi.

Olingan natijalar shuni tasdiqlaydiki, oila tarbiyasi jamiyat qancha o'zgarmasin, bolani har tomonlama kamol topgan inson etib voyaga yetkazishda hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lib qolmoqda. Tarixiy manbalardan kelib chiqqan holda, oila avvalo axloqiy qadriyatlar o'chog'i sifatida ko'rilgan – ota-ona o'z namunalari bilan farzandga odob-axloq, hunar o'rgatgan. Masalan, Beruniy va Ibn Sino asarlarida oilaning tarbiyaviy funksiyasi davlat boshqaruvidan ham muhimroq

ekani, farzand tarbiyasi oldida boshqa tashqi mas'uliyatlar ikkinchi o'rinda turishi lozimligi uqtirilgan. Shu bilan birga, o'sha davr manbalari o'z zamonasining ijtimoiy normalarini aks ettirgan – masalan, Ibn Sino oilada er-xotin rollarini aniq taqsimlab, erni boshliq, xotinni unga yordamdosh deb ta'riflagan. Bugungi kunda esa bunday yondashuvlar qayta ko'rib chiqilmoqda; zamonaviy pedagogika oilani bir tizim deb olib, unda hamkorlik va tenglik muhitini targ'ib qilmoqda. Gender tengligi nuqtai nazaridan, oilada erkak va ayolning teng huquq va majburiyatlarga egaligi farzandlarga namuna bo'lib xizmat qiladi – ota oshxonada ovqat tayyorlashi yoki ona moliyaviy masalalarni hal qilishi kabi holatlar kundalik hayotda qanchalik odatiy tus olsa, bolalar ongida gender stereotiplar shunchalik erta yo'qoladi. Mu (2025) kabi tadqiqotchilar aynan ota-onaning xulq-atvoridagi tenglik bolalarning kelgusida jamiyatda gender tenglik tarafdori bo'lib voyaga yetishida muhim omil ekanini qayd etishgan.

Hozirgi davrdagi ijtimoiy o'zgarishlar oilaviy tarbiyaga yangicha yondashuvlarni talab qilmoqda. Avvalo, globallashuv va axborot oqimining ortishi bilan farzandlar tashqi ta'sirlarga ko'proq duch kelishyapti. Bu esa oilani bolaga tanqidiy tafakkur, madaniyatlararo muloqot ko'nikmasini shakllantirishga yo'naltirishini anglatadi. Masalan, ota-ona farzandining internetda olgan axborotini birgalikda tahlil qilishi, turli qadriyatlarni muhokama qilishi muhim. Bu jarayonda ota-onalarning o'zlari ham yangilanishi, o'rganishi talab etiladi – raqamli savodxonlik buning yorqin misolidir. Afsuski, ayrim oilalar hali ham farzandlarining internet faoliyatidan bexabar yoki ularni to'liq nazoratsiz qoldirmoqda. Tadqiqotlar ko'rsatishicha, ko'plab ota-onalar raqamli texnologiyalar borasida farzandlaridan ortda qolayotgani, ularda bilim yetishmasligi tufayli xavotir paydo bo'lishi kuzatilgan. Demak, ota-onalarning o'zlarini o'qitish, ular uchun raqamli ota-onalik bo'yicha trening va qo'llanmalar ishlab chiqish bugungi kunda pedagogik hamjamiyat oldidagi vazifalardan biridir. Ba'zi mamlakatlarda allaqachon maktablar qoshida ota-onalarga digital parenting ko'nikmalarini

o‘rgatuvchi dasturlar joriy etilmoqda, bu esa ijobiy samara bermoqda (masalan, raqamli xavfsizlik bo‘yicha ota-onalar universitetlari, onlayn platformalarda maslahat xonalari va hk).

Ota-onalarning maktab bilan hamkorligi masalasi ham muhokamaga loyiq. Yuqoridagi natijalardan ma‘lum bo‘ldiki, ota-onalar ta‘limga qanchalik ko‘p jalb etilsa, bolaning muvaffaqiyati shunchalik ortadi. Biroq amaliyotda, xususan mahalliy sharoitda, barcha ota-onalar ham maktab hayotida faol emas. Buning sabablaridan biri ota-onalarning bandligi yoki maktab bilan muloqot qilishda o‘zini noqulay his etishi bo‘lishi mumkin. Shu bois pedagoglar va maktab ma‘muriyatlari ota-onalarni jalb etish uchun qulay platformalar yaratishi zarur – masalan, sinf yig‘ilishlarini interaktiv va do‘stona shaklda tashkil qilish, ota-onalarni maktabdagi kichik tadbirlarga taklif etish, bolalarning yutuqlarini uyga xabar berish orqali muloqotni mustahkamlash lozim. O‘zbekistonda so‘nggi yillarda joriy etilayotgan “ota-onalar universiteti” kurslari, maktablardagi ota-onalar qo‘mitasi faoliyatini kuchaytirish kabi tashabbuslar bu yo‘nalishda ijobiy qadamdir. Muhimi, ota-ona va o‘qituvchi o‘zaro sherik ekani, ular hamkorligidan yutuq faqat bolaning o‘ziga qaytishini anglashlari lozim.

Oilaviy tarbiyaning yana bir jihati – ijtimoiy tenglik va inklyuzivlikka erishish vositasi ekanidir. Ijtimoiy-iqtisodiy farqlar keskinlashgan bugungi davrda har bir bolaning barkamol o‘ssishi uchun oilaning qo‘llovi alohida ahamiyat kasb etadi. Kam ta‘minlangan yoki ijtimoiy chetlatilgan oilalardagi bolalarga teng imkoniyatlar yaratishda ota-onalarga ko‘mak berish, ular bilan individual ishlash kerak bo‘ladi. Xalqaro tadqiqotlar iqtisodiy qiyinchilik sharoitida ota-onaning ruhiy va emotsional qo‘llovi bola farovonligining asosiy manbai bo‘lishini ko‘rsatmoqda. Demak, maktablar psixologik xizmatlar orqali ayniqsa ehtiyojmand oilalar bilan alohida ishlashi, u yerda oilaga tarbiyaviy, psixologik maslahatlar berishi lozim. Bu ham zamonaviy oilaviy tarbiyaning kengaygan funksiyalaridan

biridir – oila endi yolgʻiz emas, balki maktab, mahalla, jamiyat bilan ijtimoiy hamkorlikda tarbiya vazifasini olib boradi.

Yuqoridagi mulohazalardan koʻrinadiki, hozirgi davr oilaviy tarbiyasi tarixiy anʼanalar va zamonaviy ehtiyojlar chorrahasida yangi mazmun bilan boyimoqda. Bir tomondan, avlodlar davomida shakllangan oilaviy tarbiya tamoyillari (farzandga mehr berish, hurmat-eʼtibor, odob-axloq oʻrgatish) oʻz qadrini yoʻqotgani yoʻq – ular hali-hanuz muhim. Ikkinchi tomondan, bugungi bola kechagi boladan farq qiladi: u raqamli texnologiyalar qurshovida ulgʻaymoqda, tengdoshlari bilan global tarmoq orqali muloqotda, dunyoqarashi ochiqroq va tanqidiyrok. Shunday sharoitda ota-ona ham zamonga hamnafas boʻlib, tarbiya usullarini takomillashtirishi shart. Bu esa doimiy ravishda yangi bilimlarni egallash, xalqaro tajribani oʻrganish va eng muhimi, farzand bilan muloqotni uzmaslikni taqozo etadi.

Xulosa. Xulosa oʻrnida taʼkidlash joizki, oilaviy tarbiya tizimi zamon oʻzgarishlariga moslashgan holda rivojlanishi lozim. Tarixiy merosimizdan kelib chiqqan holda, oila hali-hanuz bolaning maʼnaviy-axloqiy barkamolligi asosi ekanini unutmasligimiz kerak. Beruniy, Ibn Sino kabi allomalar asarlarida ilgari surilgan oila tarbiyasiga oid manyillar hozirgi davrda ham dolzarbligini saqlab qolmoqda – masalan, ota-onaning shaxsiy ibrati, oiladagi mehr-oqibat muhiti, farzand tarbiyasini birlamchi burch deb bilish kabi tamoyillar umumiy pedagogik qadriyat sifatida eʼtirof etiladi.

Shu bilan birga, global davr oiladan farzandga yangicha koʻnikmalarni berishni talab etmoqda. Farzandlarning har tomonlama rivojlanishi uchun ota-onalar endilikda nafaqat odob-axloqni, balki raqamli savodxonlik, ijtimoiy-emotsional intellekt va tenglik tamoyillarini ham singdirishlari darkor. Xalqaro ilmiy tadqiqotlar tahlili shuni koʻrsatdiki, ota-onalarning taʼlim jarayonidagi faolligi, bolalarga nisbatan mehribon va eʼtiborli munosabati ularning kelgusidagi yutuqlarini taʼminlaydi, hissiy va ijtimoiy kompetensiyalarini rivojlantiradi.

Raqamli makonda ota-ona nazorati va ko‘magi esa farzandni turli xavflardan himoya qilib, uni texnologiyalardan foydali maqsadlar yo‘lida foydalanishga o‘rgatadi. Gender tengligini qadrlaydigan oilada tarbiya topgan bola esa kelgusida jamiyatda adolat va teng huquqlilik tamoyillarini qo‘llab-quvvatlaydi.

Shunday ekan, milliy tarbiya tizimini boyitishda xalqaro ilg‘or tajribalarni inobatga olgan holda, oilalar uchun metodik qo‘llanmalar yaratish, ota-onalarni yangi xavf va imkoniyatlar xususida xabardor qilish muhimdir. Pedagog olimlar, maktablar va ota-onalar hamkorligida oilaviy tarbiya masalalariga bag‘ishlangan treninglar, seminarlar o‘tkazish, Scopus darajasidagi ilmiy ishlanmalarni amaliyotga joriy etish tavsiya etiladi. Oilaviy tarbiya faqat oila doirasidagi masala bo‘lib qolmasdan, butun jamoatchilik e‘tibor qaratadigan, davlat siyosati darajasida qo‘llab-quvvatlanadigan soha sifatida qaralishi zarur. Zero, barkamol avlod tarbiyasi – bu nafaqat maktab yoki ta‘lim muassasalarining, balki eng avvalo, oilaning zimmasidagi mas‘uliyatdir. Oila esa ushbu vazifani sharaf bilan ado etishi uchun jamiyatning ko‘magiga, zamonaviy bilimlarga va uzluksiz o‘shishga ehtiyoj sezadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Hill, N. E., & Tyson, D. F. (2009). Parental involvement in middle school: A meta-analytic assessment of the strategies that promote achievement. *Developmental Psychology*, 45(3), 740–763. <https://doi.org/10.1037/a0015362>
2. Cosso, J., von Suchodoletz, A., & Yoshikawa, H. (2022). Effects of parental involvement programs on young children’s academic and social–emotional outcomes: A meta-analysis. *Journal of Family Psychology*, 36(8), 1329–1339. <https://doi.org/10.1037/fam0000992>
3. Salsabila, S., Hasanati, N., & Pahmiah. (2024). Exploring Digital Parenting: A Systematic Review of Approaches, Challenges, and Outcomes. *Journal of Scientific Research Education and Technology*, 3(4), 1856–1867. <https://doi.org/10.58526/jsret.v3i4.601>
4. Mu, Y. (2025). The Role of Family Education in Shaping Gender Roles: Insights from Empirical Case Studies. *International Journal of Education and Humanities*, 18(1), 200–203. <https://doi.org/10.54097/xvb3a389>

TILSHUNOSLIK

SO‘ZNING INSON RUHIYATI VA TANASIGA TA’SIRI
TO‘G‘RISIDA AYRIM MULOHAZALAR

Davlatova Ra’no Haydarovna

Navoiy davlat universiteti, filologiya fanlari doktori (DSc.)

isfan2006@mail.ru

Annotatsiya. Mazkur maqolada psixolingvistika va uning ahamiyati, til birligi bo‘lgan so‘zning nafaqat inson ruhiy olamiga, balki jismoniy sog‘ligiga ta’siri natijasida hayotiga o‘zgartirish kiritishi to‘g‘risidagi qarashlar xususida fikr yuritiladi. Psixolingvistikaning muayyan bir yo‘nalishi deb tavsiflanayotgan psixosemantika va unga chambarchas bog‘liq psixosomatika masalalariga aniqlik kiritiladi.

Kalit so‘zlar: psixolingvistika, so‘z va uning quvvati, psixosemantika, psixosomatika.

Аннотация. В этой статье размышляется о психолингвистике и ее значении, взглядах на трансформацию слова в жизнь человека в результате его влияния на духовный мир человека. Проясняются вопросы психосемантизма, которое характеризуются как определенное направление психолингвистики.

Ключевые слова: психолингвистика, слово и его сила, психосемантика, психосоматика.

Annotation. This article reflects on psycholinguistics and its meaning, views on the transformation of a word into a person's life as a result of its influence on the spiritual world of a person. The questions of psychosemanticism, which are characterized as a certain direction of psycholinguistics, are clarified.

Key words: psycholinguistics, the word and its power, psychosemantic, psychosomatic.

Kirish. Dunyo tilshunosligida til tadqiqiga antropotsentrik yondashuvning yuzaga kelishi natijasida tilshunoslikning o‘rganish obyekti yanada kengaydi. So‘nggi yillarda tilshunoslikda til va jamiyatning bir-biriga ta’siri, tilda inson ruhiyati, olamni idrok etishi, tasavvurlari, qiziqishlari, milliy-madaniy qarashlarining namoyon bo‘lishi, matn (nutq) yaratuvchi lisoniy shaxs, unga xos shaxsiy sifatlarning matnda namoyon bo‘lishi kabi masalalarni o‘rganishga bo‘lgan qiziqish yanada kuchaydi. Ma’lumki, til insonlar o‘rtasidagi muloqot vositasi bo‘lishi bilan birga uning borliqni anglashida muhim ko‘prik vazifasini bajaradi. Har bir tilda shu til egalarining obyektiv borliq, dunyoning idrok etilgan va ongda qabul qilingan tarxi yoki ko‘rinishi ifodalanadi. Shuning uchun til «sodda reallik» [1.] deb ham ta’riflanadi. Aytish mumkinki, til «ko‘ringanidek», reallikning sodda ifodasi emas, balki murakkab va ko‘pqirrali hodisadir. Til nafaqat tashqi reallikni,

balki bir vaqtda undan foydalanuvchi bilan bog‘liq holda yuzaga chiquvchi xususiyatlarni ham namoyon etadi. Til tadqiqiga bunday yondashuvda, ayniqsa, pragmatik, kognitiv, lingvokulturologik, sotsiolingvistik, psixolingvistik aspektlardagi tadqiqotlarga keng o‘rin berildi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review). Til tadqiqiga bunday yondashuvda, ayniqsa, pragmatik, kognitiv, lingvokulturologik, sotsiolingvistik, psixolingvistik aspektlardagi tadqiqotlarga keng o‘rin berildi. Bu o‘rinda L.V.Shcherba, Apresyan, L.S.Vygotskiy, A.A.Leontev, N.Mahmudov, Sh.Safarov, D.Xudoyberganova, D.Lutfullayeva, R.Davlatovalar ilgari surgan nazariy qarashlar g‘oyat qimmatli.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Tilshunoslar nutqiy faoliyat bilan qiziqib, uning ishtirokchilari o‘rtasidagi muloqotni o‘rganishga qiziqishganda, psixologlar ular o‘rtasidagi munosabatlar va munosabatlarni yuzaga chiqarishda tanlanayotgan so‘zlar tahlili bilan shug‘ullangan o‘rinda psixolingvistika namoyon bo‘ldi. Ya’ni tilshunoslik va psixologiyaning tutashgan nuqtasida psixolingvistika yuzaga chiqdi. Psixolingvistikaning tadqiqot ko‘lami juda keng bo‘lib, shulardan bugungi kunda eng ommalashgan va nafaqat mutaxassislarni, balki til egalarining barchasini qiziqtirayotgan masalalardan biri til birligi bo‘lgan so‘zning inson ruhiy olamiga ta’siri natijasida hayotiga o‘zgartirish kiritishi to‘g‘risidagi qarashlardir. Psixolingvistikaning muayyan bir yo‘nalishi deb tavsiflanayotgan psixosemantika, ya’ni ongimizda mavjud tasvirlarga so‘z orqali ta’sir o‘tkazish va ijtimoiy haqiqatni o‘zgartirish tushunchasi, ya’ni bir so‘z bilan aytganda so‘z va uning ma’nosi orqali inson hayotiga ta’sir etishni o‘rganish; yoki tibbiyot va psixologiyada chuqur o‘rganilayotgan psixosomatika: atrofdagilar bilan munosabatlar, bajarilmagan istaklar, bostirilgan his-tuyg‘ular, ichki ziddiyatlar kabi ruhiy holatlarni tanaga ta’siri va bunda albatta so‘zning o‘rni masalasi nafaqat qiziqarli va davriy dolzarb muammolardan biri sanaladi.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Ma’lumki, nutq obyektiv voqelikni o‘zgartirish quvvatiga ega. Oddiygina misol: muayyan bir suhbatdan ilhomlanib biror ezgu ish qilishga qaror qilishimiz hech kim uchun sir bo‘lmagani kabi, shaxsiyatimizga qaratilgan bir nojo‘ya so‘z eshitsak, albatta, u ham bizning ruhiyatimizga ta’sir etadi. Natijada kimdandir shuni alamin olamiz, yoki yaxshigina noroziligimizni chiqaramiz. Ba’zan birgina so‘z katta bir bo‘ron to‘fonini uyushtirishi mumkin. Shubhasiz, so‘z bu o‘rinda boshqacha quvvat tarata boshlaydi. Fizik qonuniyatlardan ma’lumki, borliqda qo‘shuv va ayiruv belgili quvvatlar mavjud bo‘lganidek, tilimizda ijobiy va salbiy quvvatli so‘zlar

mavjudligini inkor etib bo'lmaydi. Shuning uchun ham so'z vositasida tabiat va jamiyatdagi barcha hodisalar, tushunchalar va ularning o'zaro munosabatlari lisoniy olamga o'tadi, nomlanadi. Hatto inson qalbida junbushga kelgan son-sanoqsiz his-tuyg'ular ham so'z orqali yuzaga chiqadi. Eng qizig'i, inson o'z his-tuyg'ularini tasvirlaganda, u ularni to'g'ridan-to'g'ri nomlamaydi, balki ularning tana ko'rinishlari haqida gapiradi. O'zbek tilida insonning psixosomatik holatlarini aks ettiruvchi ko'chma ma'noga ega ko'plab idiomatik iboralar mavjud. Ularning muhim qismi tananing biror qismi bilan bog'liq. Masalan: "Shoikrom xotinini *tarsakilab yubormaslik uchun yuzini o'girib, tishini g'ijirlatdi* (jahl, g'azab). - Hovliga chiqma, bolalar ham chiqmasin, o'ladi! – dedi Shoikrom ko'zlari yonib(vahima). ("Urushning so'nggi qurboni". O'.Hoshimov.) Nutqda bunday iboralardan ongli ravishda foydalanish inson organizmidagi fiziologik, hissiy va intellektual jarayonlarning bog'liqligidan dalolat beradi.

Mutafakkir Jaloliddin Rumiy "Har bir narsaning asli – so'z. Sening so'zdan xabaring yo'q va uni mensimaysan. So'z amal daraxtining mevasidir. Chunki u amaldan tug'iladi. Ulug' Tangri olamni so'z bilan yaratdi va "Bo'l deyishi" bilan u ham bo'la qoldi (Qur'ondan), deya So'zning yashirin qudratiga ishora etadilar.

Ma'lumki, so'zlar tovushlardan hosil bo'ladi, tovushlar esa moddiy dunyo qonunlariga muvofiq mavjud bo'lgan fizik tebranishlardir. Bu esa so'zning niyatlarimiz (xoh salbiy bo'lsin, xoh ijobiy) uchun real makondan joy ajratishdek holat.

Bu masala bo'yicha bugungi kunda ko'plab tadqiqotlar, turli tajribalar o'tkazildi, o'tkazilmoqda. Ijobiy so'zlar quvvati bilan suvning kristallsimon shaklga kirishi, salbiy so'zning quvvati bilan esa qorayishi va badbo'y hid tarata boshlashi to'g'risidagi, yoki ijobiy quvvatli so'zlar bilan bir gulning ochilishi va salbiy so'zlar bilan boshqa bir gulning qurib qolishi bo'yicha o'tkazilgan tajribalar bunga yaqqol misol.¹¹

Tadqiqotlar natijasida olimlar shunday xulosaga kelishdi: inson DNKsi fikrlar va so'zlarni idrok etishga qodir. Til egasi tomonidan aytilgan har qanday so'z o'z hayotini sezilarli darajada o'zgartirish qobiliyatiga ega bo'lgan to'lqinli genetik dasturdir. "Qozonga yaqin yursang, qorasi yuqadi" degan maqolni eslaylik. Bu

¹¹ 20-asrda Yapon olimi Masaru Emoto so'z ta'sirida suv o'zgarishi mumkinligini ilmiy jihatdan isbotladi. Tajribada suvga turli:ijobiy va salbiy so'zlar aytiladi va muzlatiladi. Muz mikroskop ostida kuzatilganda, ijobiy so'zlar aytilgan suvdan hosil bo'lgan muzda qor parchalariga o'xshash turli shakldagi kristallar namoyon bo'lgani, salbiy so'zlar aytilgan muzda hech qanday shakl hosil bo'lmagani aniqlanadi.

maqol odam kim bilandir suhbatlashganda yoki boshqa odamlarning suhbatlarini tinglaganida nima sodir bo'lishini juda yaxshi tasvirlaydi. Zero, irsiyat uchun mas'ul bo'lgan DNK akustik ma'lumotni shu tarzda oladi.

Tilshunos Noam Xomskiy o'zining «Karteziyanskaya lingvistika» asarida "Nutqni idrok etishda belgi va uning semantik tarkibini qabul qiluvchi ichki ong bo'lishi kerak", deya ta'kidlaydi[6]. Ayni shu ichki ongni bugun psixologiyada, psixogenetikada ong osti yoki DNK tarzida izohlanishi kuzatilmoqda. Biologiya fanlari doktori Ivan Belyavskiy 17 yildan beri so'z va inson ongi o'rtasidagi munosabatlar muammosi bilan shug'ullanadi. Matematik aniqlik bilan u har bir so'z quvvatga (ijobiy yoki salbiy) ega ekanligini isbotladi. Uning fikricha, so'z inson genetikasiga ta'sir qiladi: yo yoshlik va sog'likni uzaytiradi, yoki kasalliklar va erta qarilikni yaqinlashtiradi[10].

Biz nutqimizda qo'llayotgan so'zlarda qanchalik katta kuch borligini ba'zan anglamaymiz va ba'zan so'zni tanlab gapirish to'g'risida tushunchaga ega bo'lmagan insonlar ham uchraydi. Atrofimizda shunday insonlar ham borki, agar yomonlik (g'iybat) haqida gapirish ta'qiqlansa, nima haqida suhbatlashishni ham bilmay qolishadi. Vaholanki, psixologiyada biz nima haqida gapirsak ular aynan bizga vaziyatlar bilan o'z hayotimizga qaytib keladi, deyiladi. Masalan, bugungi kunda ko'pgina ayollarning eng katta muammosi vazn kamaytirish. Ular tinmay "*ozishim kerak, ozmoqchiman*" deyishadi. Ichki ong esa shu so'zning ma'nosinigina anglaydi. Ya'ni *faqatgina vazniy emas, hamma tomondan ozaymoq!* buyrug'i ishlaydi bu yerda. Zero, ozmoq – bu *kamlilik*, oz ma'no quvvatini tarqatadi. Nafaqat jismoniy, ham moddiy, ham ma'naviy kamayib ketavermaslik uchun esa ayollarimiz "Qaddi-qomatim chiroyli bo'lishini istayman", deyishlari to'g'ri. Yoki *rahmat* so'zining ma'nosiga e'tibor qarataylik. Albatta bu so'z "*Alloh rahm qilsin (ko'rsatsin)*" ma'nosida ijobiy niyatli, yoki ijobiy quvvatli so'z. Biroq bizga shunday niyat bildirilganda bizning "*Arzimaydi*" deb javob qaytarishimiz qay darajada to'g'ri?!

Taniqli professor Mirzakarim Norbekovning "Tentakning tajribasi" kitobida Qrim safari to'g'risida bir qiziqarli fakt keltirilgan. Bir shifo maskanida qand kasali bilan og'rigan bemor bolalar hech qanday dori-darmonsiz kasallikdan qutulib chiqishadi. U yerda qo'llanilayotgan yagona o'zgacha usul shundaki, har kuni ertalab xodimlar turli ranglarga bo'yalgan hovuzchalarni dengiz suvi bilan to'ldirishadi. Suv quyosh nurida iliydi va tush paytida bolalar shu suvga cho'miltiriladi. Bolalar cho'milayotganda tinimsiz "*Men qandman, men qandman*" deb takrorlashadi. Tabiiyki, bola bu so'zni ishonch bilan aytadi.

Bolalarning fikricha, ular cho‘milgan suvga qayta cho‘milib bo‘lmaydi, chunki qand suvda erib ketadi[5].

Biz kimningdir hayotini muhokama, g‘iybat qilmaslik to‘g‘risida ko‘p gapiramiz. Psixologiyada birovni muhokama qilish shu vaziyatni o‘z hayotingizga tortib olish, deb ta’kidlanadi. Tabbiyki, qanday? degan savol tug‘iladi. Qur’oni Karimning Hujurot surasida g‘iybat qilish o‘lgan birodarining go‘shtini yeyish bilan tengligi ta’kidlangan. G‘iybatchi kimsa g‘iybat qilayotgan paytda do‘stining, dindoshining go‘shtini yeb o‘tirgan bilan teng bo‘ladi. Nazarimizda, bu o‘rinda din, psixologiya, genetika, lingvistika fanlari bitta narsa haqida gapirishayapti. Ya’ni biz kimnidir g‘iybat qilish orqali, diniy nuqtayi nazardan uning go‘shtini (go‘sht bu qon) yeyish orqali shu insonning qonidan o‘z qonimizga, DNKmizga yoki aniqrog‘i genimizga, naslimizga qo‘shayotgan bo‘lmaymizmi?! Lingvistik nuqtayi nazardan esa yana so‘zning ko‘zga ko‘rinmas yashirin kuchi, uning ong bilan munosabati, so‘z ma’nosi to‘g‘risidagi qarashlarga e’tibor qaratamiz. Abduvali Berdialiyevning “ona” so‘zi kelib chiqishiga ko‘ra, o‘zbekcha ena (ona) va uning rus tilidagi *Gena, Jenya, jena, jenshina* kabi ma’nodosh muqobillari tarixan yunon-grek tiliga borib taqalishi to‘g‘risidagi qarashlari bu o‘rinda kitobxon diqqatini tortadi. Olimning fikricha, ularning asosida gen (a) so‘zi turadi. Gen, genos, (genezis) so‘zning o‘zak qismi. Bu so‘z *tug‘moq, paydo qilmoq, vujudga keltirmoq* ma’nolarini anglatadi[2].

Demak, onalar, ya’ni ayollar nasl tashuvchi sifatida so‘z mohiyatini chuqur anglashlari, birovlarini muhokama qilishda nasl tozaligini saqllovchi sifatida ham ehtiyotkorroq bo‘lishlari o‘ta muhim, nazarimizda.

Shuningdek, nemis psixoterapevti Nusrat Pezeshkian bemorlikni chaqiruvchi so‘zlar borligini birinchilardan bo‘lib isbotlab berdi. Insonning o‘z ichki ruhiy ahvolidan kelib chiqib aytadigan so‘zlari o‘zining salomatligiga singib borar ekan. Bizga ma’lumki, inson fiziologik organlari ishiga bevosita ta’sir qiluvchi so‘zlar "a’zolar nutqi" (“органический речь”) ham deb ataladi. Olimning fikricha, qanchalik sog‘lom bo‘lmaylik, o‘zimizga aytilgan quyidagi so‘zlar salomatligimizga putur yetkazadi. Masalan, *Barchasi meni bo‘ynimda, hamma muammo meni bo‘ynimda* deguvchilarda, osteoxondroz; *Barchasi jonimga tegdi* deguvchilarda- o’sma, *Yuragimga qattiq oldim, yuragimga to’kildi* deguvchilarda- yurak bilan bog‘liq, *Sabr kosam to’ldi* deguvchilarda-gipertoniya, *Ko‘zim ko’rmasaydi shuni, Hech ko‘zim yetmaydi-da shuni yaxshi bo‘lib ketishiga* deguvchilarda ko‘z bilan bog‘liq kasalliklar rivojlanishi va hokazo. Shu bilan birga, olim mazkur so‘zlar kasallik haqida ishora emas, balki uni keltirib chiqaruvchi ekanligini ta’kidlaydi[7].

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Aslida biz o‘z dunyomizni yaratadigan kichik ijodkorlarmiz. Va bizning hayotimiz nimani gapirishimiz va nimani tinglashimizga bog‘liq. Zero, dunyolarni, inson organizmini so‘zlar boshqaradi! Demak, so‘zlar katta kuchga ega. Bundan tashqari, bu kuch katta masofalarni yengishga qodir. Biror kishi uzoq manzilda turib bo‘lsa-da "Sizni sevaman", "Men sizni judayam yaxshi ko‘raman" mazmunida SMS yuborsa, xabarni olgan kishining yurak urishi va nafas olishi o‘zgarishi tabiiy. Hattoki vaqt ham so‘z kuchiga xalaqit bera olmaydi. Uzoq yillar avval yozilgan xatlar (sevgi maktublari) yoki eski kitoblar his-tuyg‘ularni qayta-qayta uyg‘otishi mumkin. Ko‘rinadiki, so‘z va unda yashiringan sehr va kuch uning ma’nosida, shu ma’noni tashuvchi «qiyofa»sida yashiringan bo‘ladi. Axir, miyamizning turli qismlari (Brok va Vernik markazi) nafaqat nutq uchun, balki boshqa kognitiv yoki fiziologik funksiyalarni ham bajaradi. Shunga ko‘ra nutqimizda doimiy ijobiy quvvatli so‘zlarni qo‘llash va ularning hayotimizga ta’sirini unutmaslik lozim. O‘zbek psixolingvistikasini chuqurroq o‘rganish esa nafaqat fanning rivojiga, balki insoniyat mavjudligi va salomatligiga ham xizmat qilishi shubhasiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati (References):

1. Апресян Ю. Д. Дейксис в лексике и грамматике и наивная модель мира//http://lpcs.math.msu.su/~uspensky/journals/siio/35/35_12APRES.pdf.
2. Бердиалиев А. "Подшо"ликка чек кўйган «почча»лар. – Хужанд, 2017. 108-б.
3. Бестужева Л. Влияние слов на человека и на его ДНК
Источник: <https://bestlavka.ru/vlijanie-slov-na-cheloveka-i-na-ego-dnk/>
4. Выготский Л.С. Мышление и речь [Текст] / Л.С. Выготский. – М.: Лабиринт, 1999. – 352 с. Лоуэн, А. Язык тела [Текст] / А. Лоуэн. – Ростов н/Д: Феникс, 1998. – 383 с.
5. Норбеков М. Тентаклинг тажрибаси. -Т., 2016.
6. Ноам Хомский "Картезианская лингвистика" (Noam Chomsky "Cartesian Linguistics", 1966) М: КомКнига, 2005, С.232.
7. Пезешкиан Н. Психосоматика и позитивная психотерапия: Пер. с нем. — М.: Медицина, 1996. — 464 с.
8. Щерба Л.В. Языковая система и речевая деятельность. – М.: Едиториал УРСС, 2004. – 432 с.
9. <https://krist-vlg.ru/zagadochnye-kristally-masaru-emoto/>
10. <https://zen.yandex.ru/media/irina/slova-razrushiteli-ili-kak-my-programmiruem-sebia-5bd6de5545d57300ab3d14f6>

СИСТЕМА РАБОТ НАД ГЛАГОЛЬНЫМИ СИНОНИМАМИ

Саидова Мохира Расулевна (Saidova Moxira Rasulevna)

Кандидат филологических наук, профессор кафедры

русского языкознания филологического факультета

Бухарского государственного университета

Saidovamahira80@gmail.com

Аннотация. В данной статье предлагаем систему работ над глагольными синонимами в национальном вузе. Одним из сложных вопросов по теме «Глагол» является употребление видов глагола. Предлагаемые упражнения направлены как на усвоение грамматической категории вида глагола, так и на определение и активное употребление глагольной синонимии в речи.

Ключевые слова: Глагольная синонимия, семантическая структура глагола, грамматическая категория, употребление видов глагола, несовершенный и совершенный вид.

Annotation. In this article, we propose a system of work on verbal synonyms in the national University. One of the most difficult questions on the topic of "Verb" is the use of verb types. The proposed exercises are aimed both at mastering the grammatical category of the verb type, and at determining and actively using verbal synonymy in speech.

Keywords: Verb synonymy, semantic structure of the verb, grammatical category, use of verb types, imperfect and perfect forms.

Annotasiya. Ushbu maqolada biz milliy universitetda og'zaki sinonimlar ustida ishlash tizimini taklif qilamiz. "Fe'l" mavzusidagi murakkab savollardan biri fe'llarning turlaridan foydalanishdir. Tavsiya etilgan mashqlar fe'ling grammatik toifasini assimilyatsiya qilish va nutqda sinonimini aniqlash va faol ishlatishga qaratilgan.

Kalit so'zlar: fe'l sinonimi, fe'ling semantik tuzilishi, grammatik kategoriya, fe'llarning turlarini ishlatish, tugallangan va tugallanmagan ish harakati.

При обучении студентов национальных групп неязыковых факультетов русскому языку необходимо учитывать специализацию вуза, где они учатся. Научить студентов активно пользоваться русским языком в пределах вузовской программы и подготовить их к самостоятельной работе с русским научно-техническим текстом, такова задача преподавателя русского языка неязыкового вуза.

На наш взгляд аспектом в обучении студентов специальной лексике является синонимия.

Задача преподавателя – научить их не только понимать синонимичные структуры при чтении текстов, но и свободно и быстро воспринимать их со слуха. В последние годы появились отдельные работы, в которых даются методические рекомендации по усвоению синонимов учащимся и студентами

русских групп, разработана система упражнений по изучению лексической синонимии.

Однако методика изучения синонимии в национальном вузе разработана недостаточно. Нет крупных исследований по изучению синонимии применительно к национальной аудитории. Выбор нами лишь глагольной синонимии ликуется тем, что » семантическая структура глагола более емка и гибка, чем всех других грамматических категорий.

Последовательность работы над глаголами, связь между разделами, объем программного материала, приемы и средства его изучения определяются задачами изучения данной части речи, ее лингвистическими особенностями и познавательными возможностями. Основные задачи заключаются в том, чтобы сформировать первоначальное понятие о глаголе как части речи, развить умение осознанно употреблять глагол в устных и письменных высказываниях, повысить уровень умственного развития учащихся, выработать навык правописания личных окончаний наиболее употребительных глаголов I и II спряжения. Все задачи решаются во взаимосвязи.


Лингвистические особенности глагола довольно сложны, поэтому учащиеся знакомятся только с некоторыми категориями, характерными для данной части речи. При отборе материала учитывается степень его необходимости для осознанного решения речевых и орфографических задач. Студенты наблюдают над употреблением в речи глаголов, отвечающих на вопросы что делать? и что сделать?, учатся правильно ставить вопрос к слову. Научить различать вид глагола с помощью вопросов важно, так как без этого невозможно изучение изменения глаголов по временам.

Систему работ над глагольными синонимами в национальном вузе строим в той последовательности, какая предусмотрена программой по русскому языку при изучении глагола. Упражнения можно сгруппировать по разделам темы «Глагол» и выполнять на всех этапах развития.

Одним из сложных вопросов по теме «Глагол» является употребление видов глагола. Предлагаемые упражнения направлено как на усвоение грамматической категории вида глагола, так и на определение и активное употребление глагольной синонимии в речи.

Знакомим студентов с темой «Синонимы». Синонимы – это близкие или тождественные по значению слова, по-разному называющее одно и то же понятие: уничтожить, ликвидировать, искоренить, упразднить. Несколько слов- синонимов образуют синонимический ряд. Члены

синонимического ряда имеют общую смысловую основу. Например, синонимический ряд распоряжение- приказание – повеление -директива- предписание имеет общее значение «указание о выполнении чего – либо». Обычно это общее значение выражается основным словом синонимического ряда – его доминантой.(Доминантой приведенного выше синонимического ряда является слово *приказание*). Другие члены синонимического ряда, кроме общего для всех значения, выражают дополнительные лексико – стилистические оттенки: собственно лексические (катастрофа- *крах*), градационные (большой - **огромный** - **громадный**) ,оттенки эмоционально – экспрессивной окрашенности (убежать - удирать - улепетывать) и.т.д.



Виды синонимов

Синонимы делятся на две большие группы: абсолютные и частичные. Последние, в свою очередь, классифицируются на несколько подтипов. В отдельный вид выделяются вспомогательные синонимы, которые сами по себе таковыми не являются, но становятся при определенных условиях.

• Абсолютные (дублеты)

Абсолютные синонимы — слова, которые имеют совершенно одинаковое значение. Взаимозаменяются без нарушения смысла предложения. Встречаются реже, чем частичные.

Пример: автомобиль — машина, безбрежный — бескрайний, огромный — громадный.

Дублеты чаще являются существительными. В современном языке их количество падает из-за изменения стилистической окраски и потери начального смысла. Например, термин «языковедение» позабыт, ему на смену пришла «лингвистика». Или слова «голкипер» и «вратарь». Одно время они были абсолютно взаимозаменяемые, но постепенно первое слово перешло в разряд стилистических замен.

• *Частичные*

Частичные синонимы — слова, которые имеют схожее значение, но не полностью идентичны по смыслу. При замене слова на частичный аналог предложение незначительно изменится.

Пример: влажный — отсыревший, шторм — ураган, мать — родитель.

К частичным относят несколько видов синонимов:

- Семантические. Указывают на разную степень проявления одного и того же признака. Проявляются в определенном контексте: взрослый — совершеннолетний;

- Стилистические. Разнятся стилистическими оттенками. Могут относиться к различным историческим эпохам, употребляться в разных сферах (общенародные и жаргонные), отличаться по происхождению (русские и иностранные). Сюда включают эвфемизмы; уборная — туалет;

- Семантико-стилистические. Отличаются оттенками значения и стилистической окраской: идти — тащиться.

Абсолютные и частичные синонимы называют подлинными или синонимами языка. Они сложились исторически, устойчивы и существуют длительное время. Наряду с ними в лексике существуют речевые синонимы, которые сближаются по значению только в определенных случаях.

• *Контекстные*

Контекстуальные синонимы в обычном случае не заменяют друг друга, но становятся тождественными по желанию автора в определенном контексте. Относятся к речевым или временным лексическим единицам.

Пример: стукнула на стол самовар (здесь «стукнула» в значении поставила).

Контекстные синонимы не поддерживают устойчивых синонимичных связей, в их роли могут выступать любые слова из разных частей речи.

Употребление синонимов делает нашу речь более точной, яркой, выразительной, эмоциональной и красивой. Синонимы связывают части текста и позволяют избегать неоправданных повторов одного и того же слова, тем самым не допускать речевых ошибок. Существование синонимов позволяет передать мысль писателям, поэтам, журналистам выразить мысль, передать чувство, назвать то или иное явление более ясно. Синонимы помогают объяснить значение неизвестных слов. Таким образом, под синонимами понимают слова, разные по звучанию, но одинаковые или близкие по лексическому значению. Синонимы различаются оттенком своего значения, употреблением в разных стилях речи, сферой употребления и степенью современности. Синонимы играют большую роль в русском языке, в устной и письменной речи.

• *Фразеологические*

Синонимы-фразеологизмы относятся к частичным, но выделяются в отдельный подвид из-за необычности — здесь взаимозаменяемы не только слова, но и словосочетания (фразеологизмы), устойчивые выражения.

Пример: мало — кот наплакал, как кошка с собакой — на дух не переносить.

Единицы этой группы неоднородны, при их использовании важно учитывать уместность в контексте, грамматическую сочетаемость. Бывают общеупотребительные, официальные, просторечные, разговорные или бранные, устарелые и современные, профессиональные и жаргонные. Поэтому правильность применения очень важна.

Синонимический ряд

Несколько синонимов, объединенных общим значением, образуют синонимический ряд. Слова в списке родственные, на первом месте всегда стоит основное или доминанта, задающее характер ряда. В качестве стержневого выступает слово с нейтральной окраской, наиболее употребительное, которое передает только основное значение. В других терминах ряда присутствуют стилистические или смысловые оттенки.

Пример: красный — багряный — алый — маковый — малиновый — карминный.

Количество лексических единиц в синонимическом ряду разное. В одном случае два-три термина, в другом больше десятка слов, устойчивых выражений и фразеологизмов. Распознать их не всегда просто. Например,

сложно определить, чем отличаются утес и скала, комичный и смешной. Для облегчения задачи подбор единиц в синонимический ряд проводят путем сравнения с основным словом.

Задача подготовительных упражнений, которые мы предлагаем, направлена на усвоение языкового материала- семантики, грамматических форм синонимичных глаголов, накопление словарного запаса студентов.

Упражнение.1. В данных предложениях подчеркните глаголы, Подберите к ним синонимы. Определите вид глагола.

1. Гаснут красные крылья заката.

Тихо дремлют в тумане плетни. (С.Есенин).

2.Ездят извозчики, от стука их пролеток и телег вздрагивают стекла в окнах (М.Горький).

Упражнение.2. Спешите, выбирая из данных в скобках синонимов, наиболее подходящих по смыслу. Объясните значения вида глаголов.

1.Иногда Павел. (выписывал, выписал) из книжек что-то на отдельную бумажку и тоже (прятал, спрятал) ее.

2. По праздникам (уходил, ушел) с утра, (возвратился, возвращался) поздно ночью. (С.Ильenko)

Упражнение 3. Образуйте от данных глаголов несовершенного вида глаголы совершенного вида Подчеркните чередующие согласные в каждой синонимичной паре глаголов.

Убегать- Угощать -...

Увлекать- Украшать- ...

Угождать- Зажигать- ...

Упражнение 4. Замените данные глаголы синонимичными .

Определите способ образования вида: в каких случаях видовые пары являются грамматическими формами одного и того же слова и в каких-разных слов.

Преодолевать, выбрать, сказать, принимать, защищать, проявлять ,тратить, исчезнуть, сжать.

Упражнение 5. Вставьте вместо точек один из глаголов. Подчеркните чередующие гласные в каждой синонимичной паре глаголов.

1.При трении можно определенное количество теплоты.

Земля ежедневно огромное количество тепла и света от солнца (получить, получать).

2.Ученый ...важную проблему.

Он конечно (решать решить)

Упражнение 6. Из данных глаголов составьте синонимические ряды, Выделите доминанты. Определите вид глаголов.

Исчерпать, умножить, издать, оберегать, охранять, опубликовать использовать (до конца,) напечатать, спасти, ограждать, истощать выпустить.

Упражнение 7. Замените подчеркнутые глаголы в данных предложениях, не изменяя смысла, глаголами другого вида. Определите различия в образовании видовых пар.

1. Чуть пробивался рассвет, и поля голубовато светились меж черными перелесками . (Г.Николаев).

2. Большекрылые совы бесшумно, неожиданно зывались с меж, и лошадь всхрапывала, шарахалась. (И.Бунин)

Упражнение 8. Объясните, каким путем образовались приведенные синонимические ряды. Определите вид глаголов.

Разузнать, разведать, вытянуть, вытащить, дознаться, допытаться, докопаться.

Упражнение 9. Расположите синонимы в порядке возрастания признака.

Объясните, какое значение имеют глаголы совершенного и несовершенного видов.

Бояться, пугаться, дрожать, трепетать, страшиться, трусить, опасаться, побаиваться, робеть.

Упражнение 10. Определите различия глагольных синонимов в пределах одного синонимического ряда (оттенок значения, употребительность, состав морфем, вид): осилить, побороть, победить, одолеть, разбить, сломить сокрушить, уничтожить.

Упражнение 11. Данные синонимичные глаголы соедините с одним из существительных. Объясните способ образования вида глагола.

Помогать, содействовать способствовать, пособлять (прогрессу неуспевающему, соседу, успеху). Иметь, владеть, обладать (имением, языком, умением).

Упражнение 12. Подберите синонимы к данным словам. Составьте предложения со словами одного синонимического ряда.

Победить, смеяться, молчать, изучать, фиксировать, соответствовать, наблюдать, объединить.

Упражнение 13. С каждым членом данных рядов синонимов образуйте такие словосочетания, которые раскрывали бы оттенки их значений.

1. Наклониться, нагнуться, накрениться
2. Оцепенеть, остолбенеть, окаменеть, окостенеть, окоченеть, замереть, застыть, одеревенеть.

Упражнение 14. Образуйте допустимые сочетания каждого слова (из скобок) с синонимами соответствующего ряда. В каждом случае выделите словосочетания, которые представляются вам наиболее удачными, и составьте с ними предложения.

Исчезнуть, пропасть, растаять, испариться (ценности, товары, деньги, таланты, преступник, надежда, желание, терпение.)

Выполнение подготовительных упражнений расширяет представление студентов о возможностях словоупотребления русских глаголов.

Предлагаемые упражнения по глагольной синонимии не претендуют на полноту изложения и решения вопроса изучения видов глагола. Однако результаты апробирования этих упражнений в иноязычных группах вуза дали положительный эффект.

Литература:

1. Александрова З.Е. Словарь синонимов русского языка М 1998г
2. Aleksandrova Z.Y. Slovar' sinonimov russkogo yazyka: Prakticheskiy spravochnik [Dictionary of Synonyms of the Russian Language: Practical Guide]. 11th ed., rev. and add. Moscow, Russkiy yazyk Publ., 2001, 586 p. (In Russian).
3. Ключева В.Н. Краткий словарь синонимов русского языка, М. Учпедгиз, 1990г.
4. Канакина В. П. Русский язык. 2 класс: учеб. для общеобразоват. учреждений с приложением на электронном носителе. В 2 ч. Ч. 1 / В. П. Канакина,
5. Саидова М.Р. «Русский язык. Синтаксис» Бухара- 2024г.
6. Саидова М.Р. Болтаева М.Ш. «Русский язык» Бухара—2019г
7. Михайлова О. А. Словарь синонимов и антонимов русского языка для школьников. — М.: АСТ, 2017. — 512 с.
8. Uspenskiy B. Poetika kompozitsii [Poetics of Composition]. St. Petersburg, Azbuka Publ., 2000, 348 p. (In Russian).
9. Yevgenyeva A.P. (ed.). Slovar' russkogo yazyka: v 4 t. [Dictionary of the Russian Language: in 4 vols.]. Moscow, Russkiy yazyk Publ., 1985–1988. (In Russian).
10. Turayeva Z.Y. Lingvistika teksta (Tekst: struktura i semantika) [Text Linguistics (Text: Structure and Semantics)]. Moscow, Prosveshcheniye Publ., 1986, 127 p. (In Russian).

XUSHMUOMALALIK VA NUTQIY ETIKET MUNOSABATI

Haydarova Dilafruz Inoyatullaevna

Navoiy davlat universiteti, Maktabgacha ta'lim kafedrası o'qituvchisi
e.mail: haydarovadilafruz9@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada o'zbek tilida xushmuomalalik kategoriyasining mohiyati, o'rganilishi va uning nutqiy etiket bilan munosabati, farqi va umumiy jihatlari yoritib berilgan. Nutqiy etiket me'yorlarining buzilishi muomalasizlik ekanligi va bunday me'yoriy buzilishlarga sabab bo'luvchi omillar ko'rsatib o'tilgan.

Kalit so'zlar. Xushmuomalalik kategoriyasi, nutqiy etiket, kommunikativ hamkorlik, muloqot ishtirokchilari, ijtimoiy hodisa, madaniy hodisa.

Abstract. This article describes the essence, study of the category of politeness in the Uzbek language and its relationship with speech etiquette, differences and general aspects. Violation of the norms of speech etiquette is considered impoliteness and the factors causing such normative violations are shown.

Key words. Category of politeness, speech etiquette, communicative cooperation, participants in communication, social phenomenon, cultural phenomenon.

Kirish. Bugungi kunda og'zaki muloqot nafaqat ma'lumot almashish, balki ijtimoiy munosabatlarni o'rnatish, saqlash va tugatish, suhbatdoshga bo'lgan munosabatni namoyish etish vositasi ekanligi ma'lum. Bu esa asosan "axborot uzatishga yo'naltirilgan transaksional aloqa hamda o'zaro munosabatlarni o'rnatish, qo'llab-quvvatlash, bir-birini tushunish va muloqot uyg'unligi maqsad qilingan interaksional aloqani" [9] alohida va chuqur o'rganish ehtiyojini uyg'otadi. Insoniy munosabatlar tizimida xushmuomalalik muhim o'rin tutadi. Bunda uzatiladigan axborotlar yaxshilik tilashdek ijtimoiy tabiatga ega bo'lib, ijtimoiy o'zaro ta'sir jarayonida asosiy, maqsadga erishishning oson usuli sanaladi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review). Xushmuomalalik ilmiy tadqiqotlar predmeti sifatida nutq madaniyati, nutqiy etiket kabi tushunchalar bilan chambarchas bog'liq bo'lib, etiket me'yorlarining buzilishi doim ham qo'pollik, muomala madaniyatining yo'qligi sifatida qabul qilinadi. Nutqiy etiket bo'yicha tadqiqot olib borgan ko'plab tadqiqotlarda etiket me'yorlarining asosini xushmuomalalik tashkil etishini ta'kidlashadi [1, 2, 12, 13.]. Shu nuqtayi nazardan S.I.Lvova "xushmuomalalik nutqiy etiketning yadrosidir" [8. -C. 9], M.A.Kormilitsina "Xushmuomalalik kommunikativ hamkorlik uyg'unligini saqlab qoluvchi, hal qiluvchi kategoriyadir", [5.] – deya ta'kidlaydi.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Ayniqsa madaniyatlararo muloqotda xushmuomala bo'lish uchun til bilimiga ega bo'lish, ya'ni tilda mavjud

bo'lgan nutqiy etiket formulalarini bilish yetarli bo'lmaydi. Ba'zan bu formulalarning ekvivalenti borligiga qaramay, tarjima ham qilinmaydi. Ular qanday kommunikativ kontekstda ishlatilishi mumkinligi, ularning pragmatik ahamiyati, ma'lum bir aloqa sharoitida qanday kommunikativ harakat qilish kerakligini (rahmat aytish, baho berish, hamsuhbatining istaklariga e'tibor berish yoki xohish-istaklarini so'rash, tasdiqlash yoki savol berishi) bilish muhim. Nutqiy vaziyatni oldindan bashorat qilib bo'lmasligini inobatga olib, o'rganilayotgan madaniyatga xos bo'lgan xushmuomalalik strategiyasini bilish va ulardan nutqiy muloqotda foydalanish qobiliyati eng samarali tanlovdir. Xushmuomalalik universal tabiatli bo'lishi bilan birga milliy o'ziga xosligiga ham ega. Bu o'ziga xoslik nafaqat turli etiket formulalarini qo'llash orqali, balki turli xil kommunikativ strategiya va harakatlarda namoyon bo'ladi. U murakkab ijtimoiy-madaniy hodisa bo'lib, jamiyatni ijtimoiy-madaniy tashkil etishning asosiy tamoyillari va uning a'zolari o'rtasida mavjud bo'lgan shaxslararo munosabatlar, ularning kommunikativ ongi bilan chambarchas bog'liq. T.V.Larina ham "Xushmuomalalik milliy o'ziga xos kommunikativ kategoriya bo'lib, uning mazmuni uyg'un, ziddiyatsiz muloqotga va o'zaro aloqada ijtimoiy qabul qilingan me'yorlarga rioya qilishga (shaxslararo aloqani o'rnatish, saqlash va yakunlash) qaratilgan kommunikativ faoliyatning (lingvistik va nolingvistik) ritual strategiyalari tizimi"-deb baholaydi [6.].

Xushmuomalalik etnik kategoriya sifatida har bir millat uchun o'ziga xos xususiyatlarga va ifoda vositalariga ega ekan, mazkur tushunchani o'rganish pragmalingsvistikaga qiziqarli materiallar berishi bilan birga har bir millat madaniyatini namoyon etuvchi manba sifatida ham dolzarbdir. Har bir milliy madaniyatda xushmuomalalikni ifodalashning tarixiy asoslari, odob-axloq me'yorlari, individual ravishda belgilangan nutqiy strategiyalar va turli xil muloqot vaziyatida kommunikativ aloqani o'rnatish va saqlab qolishning turli ko'rinishlari mavjud. Biroq turli madaniyatlarda xushmuomalalik turlicha tushunilganligi sababli, bir xalq boshqasiga qaraganda xushmuomalaliroq yoki madaniyatliroq deb baholash noo'rin bo'lardi, chunki xushmuomalalik darajasini aniqlash uchun madaniy asos yo'q. Shuning uchun ayrim olimlar unga madaniy hodisa sifatida baho berishadi. Jumladan, N.F.Qosimova va N.X.Ro'zievalar "Xushmuomalalik madaniy hodisa, shuning uchun bitta madaniyatdagi xushmuomalalikni boshqa madaniyatda g'alati yoki hatto qo'pol deb hisoblash mumkin", deya ta'kidlashsa[16.], N.I.Formanovskaya "xushmuomalalik madaniyatga tegishli. Xushmuomalalik bilan inson o'ziga xos xulq-atvorini, muloqot madaniyatini namoyish etadi" [14.]deb izohlaydi.

Ko'plab tadqiqotlarda xushmuomalalik etiket qoidalari bilan bog'liq holda o'rganilgan. Biroq, muloqot uchun muhim sanalgan bu ikki hodisa to'liq mos kelmaydi. Xushmuomalalik etiketdan kengroq bo'lib, etiket - bu muloqot me'yorlari va qoidalari to'plami. Xushmuomalalik esa haqiqiy muloqotda qo'llaniladigan, uyg'unlik va o'zaro tushunishga erishishga qaratilgan muloqot strategiyalari va taktikalari tizimidir. Xushmuomalalik ma'lum bir bosqichda yoki muayyan kommunikativ vaziyatda etiket qoidalari bilan belgilangan me'yorning ba'zi elementlari bo'lmasa-da, uyg'un, ziddiyatsiz muloqotga hissa qo'shadigan barcha narsalarni o'z ichiga oladi.

Manbalarda xushmuomalalik va nutqiy etiket tushunchalari o'rtasidagi munosabatni aniqlashning uchta asosiy yondashuvini kuzatish mumkin:

- 1) bu tushunchalarning ma'nodoshligi;
- 2) aniq farqlarsiz o'zaro bog'liqligi;
- 3) tushunchalarning farqliligi (lekin baribir qarama-qarshi emas!).

Birinchi yondashuv N.N. Romanova tadqiqotida keltirilgan bo'lib, u "nutqiy etiket nutqdagi xushmuomalalikdan iborat bo'lib, u mustahkam madaniy muloqot qoliplari va me'yorlarida o'z ifodasini topadi",- deya ta'kidlaydi. [11.]. Bunday qarash H.Turdieva tadqiqotida ham kuzatiladi. Olima: "o'zbek tilshunosligida nutqiy etiket birliklari ma'nosini anglatuvchi xushmuomalalik, nazokatlikning ifodalanishi, muloqot xulqi birliklari, etiket shakllari kabi terminlar o'zbek tilshunoslari tomonidan qo'llanilgan, ammo nutqiy etiket birliklari termini kuzatilmagan"ligini qayd etadi va bu bilan mazkur hodisalarning ma'nodosh ekanligini ko'rsatadi [15].

Ikkinchi yondashuv N.I.Formanovskayaning ishida ilgari suriladi. Olimaning fikricha, "Nutqiy etiket xushmuomalalikning verbal ifodasi ekan, uning muloqotda aniq namoyon bo'lishi, etiketlik bilan munosabatda bo'lish bu xushmuomalalikni anglatadi. Nutqiy etiketning vaziyatga mos mavzuiy guruhlarining nomlari (murojaat qilish, salomlashish, tanishish, kechirim so'rash, iltimos, taklif qilish, maslahat berish, e'tiroz bildirish, rad etish, iltifot va bosh.) ham xushmuomalalik kontseptiga kiradi. [14., 43]. Bunda "og'zaki nutqning rolini nutq etiketiga; xushmuomalalikni og'zaki ifoda etish bilan bog'lash mumkin, ammo mazkur o'rinda munosabatlar yanada murakkabroq: nutqiy etiket ham, xushmuomalalik ham odamlarga bir-biri bilan me'yoriy munosabatda bo'lishning qabul qilingan qoidalarini amalga oshiradi, ammo nutq etiketi kommunikatorlar bilan aloqani o'rnatish, saqlash va yakunlashga ixtisoslashgan, shuning uchun uning asosiy vazifasi aloqa o'rnatishdir" [14.,40]. Shu bilan birga qayd etish kerakki, "etiketli

hamma narsa xushmuomalalik bo'lmagani bilan, etiketsiz har qanday narsa muomalasizlikdir".

Uchinchi nuqtai nazar V.V.Dementievning ishida aks etadi: "Xushmuomalalik - bu nutqning qo'shimcha "bezagi", etiket esa majburiy hodisa bo'lib, u buzilganda kommunikatsiya ham me'yorida bo'lmaydi" [4, 200].

Bizningcha, mazkur tushunchalar bir-biri bilan bog'liq, ya'ni bir-birini to'ldiruvchi hodisalardir.

Negaki nutqiy etiket me'yorlarining har qanday buzilishi muomalasizlikning namoyishidir. Bunday me'yoriy buzilishlarga quyidagi omillar sabab bo'lishi mumkin:

a) muayyan vaziyatda urf-odatga aylangan nutqiy etiket qoidalarini bajarmaslik (salom bermaslik, rahmat aytmasslik);

b) vaziyatga va nutqdagi sheriklarning ijtimoiy rol xususiyatlariga mos kelmaydigan iborani tanlash (mavqei va yoshi kattaroq odamga "zo'r" deyish; "siz" deb murojaat qilinadigan shaxsga kutilmaganda "sen" shaklini ishlatish va hok.)

Fors olimlari mazkur qarashni umumiy tarzda shunday ifodalaydilar: muomalasizlik faqat xushmuomalalikka zid o'rinlarda namoyon bo'ladi.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Ko'rinadiki, xushmuomalalik va muomalasizlikning o'ziga xos tabiati bor, xushmuomalalik to'g'risidagi bilim faqat muomalasizlikning tarkibiy qismlarini hisobga olgan holda aniqlanadi. Bu tarkibiy qismlar nutqda ham, xatti-harakatlarda ham gavdalanadi. Aytish mumkinki, xushmuomalalikni insonning barcha ijtimoiy harakatlarini belgilaydigan madaniy va ijtimoiy belgi sifatida ko'rish mumkin. Ularning barchasi u yoki bu tarzda "xushmuomala - muomalasiz- neytral" tizimda baholanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Аршавская Е.А. Речевой этикет современных американцев США: (На материале приветствий) // Национально-культурная специфика речевого повеления. – М., 1977. — С.268– 277.

2. Байбурин А.К. Об этнографическом изучении этикета // Этикет у народов Передней Азии. – М., 1988. – С.12–37

3. Бгажноков Б.Х. Коммуникативное поведение и культура: (К определению предмета этнографии общения) // Сов. этнография. – М.,1978. – №5. – С.3–17.

4. Дементьев В.В. Непрямая коммуникация и этикетные смыслы / В.В. Дементьев // Проблемы речевой коммуникации. Саратов: Издательство СГУ, 2005. С. 196–204.
5. Кормилицына, М.А. / Категория вежливости в оценочных речевых жанрах / М.А. Кормилицына, Г.Р. Шамьенова // Жанры речи. – Саратов: Колледж, 1999. – С. 257-266.
6. Ларина Т.В. Категория вежливости в аспекте межкультурной коммуникации: На материале английской и русской коммуникативных культур: Дис. ... докт. филол. наук: 10.02.20 / Т.В. Ларина. М.: РУДН, 2003. 495 с.
7. Луцева О. А. Речевой этикет (категория вежливости) и его изменение на стыке двух эпох (конец XIX – первая четверть XX века): Автореф. Дис...канд. филол. наук / Таганрог. унт. – Таганрог, 1999. – 18с.
8. Львова С.И. «Позвольте пригласить вас...» или Речевой этикет: Пособие для учащихся / С.И. Львова. М.: Дрофа, 2004. 202 с.
9. Орлов, 1991, с.39 Орлов Г.А. Современная английская разговорная речь. – М., 1991. – 240с.
10. Ратмайр, Р. Прагматика извинения: Сравнительное исследование на материале русского языка и русской культуры / Р. Ратмайр. М.: Языки славянской культуры, 2003. 272 с.
11. Романова, Н.Н., Филиппов А.В. Словарь. Культура речевого общения: Этика. Прагматика. Психология. М.: Флинта: Наука, 2009. 302 с.
12. Титц Г. Этикетные формулы общения и привлечения внимания в современном русском языке: Автореф. дис... канд. филол. наук / Воронеж, гос. ун-т. – Воронеж, 1977. – 18 с.
13. Фирсова Н.М. Испанский речевой этикет. – М., 2000. – 382 с.
14. Формановская, Н.И. Речевой этикет. Русско-испанское соответствия: Справочник / Н.И. Формановская. М.: Высшая школа, 2002. 108 с.
15. Turdiyeva N. Xorijiy tillarni o'qitishda sotsiolingvistik va pragmatik masalalar: xushmuomalalikning ifodalanishi. 2019/1, -B. 138-155
16. Qosimova N.F., Ro'zieva N.X. Ingliz tiliда хушмуомалалик категорияси ва унинг ижтимоий-лисоний воқеланиши. Хоразм Маъмун Академияси ахборотномаси 2020, 11. 229-232.б.

EKOLOGIYA

EKOLOGIK MUAMMOLAR VA ULARNI HAL ETISHDA FANLARNI EKOLOGIYALSHTIRISHNING AHAMIYATI

K.f.n., prof. D.A.Karimova

Navoiy davlat universiteti, Kimyo kafedrası

diloromkarimova2509@mail.ru

Annotatsiya. Hozirgi zamon ishlab chiqarishi ekologik tanglikni keltirib chiqardi. Ishlab chiqarish esa, hozirgi zamon texnikasiga asoslangan. Texnikaning manbai esa fandir. Demak, ekologik qiyinchiliklar fan-texnika taraqqiyoti bilan bog'liqdir.

Fan yordamida tabiat qonunlari kashf etiladi. Ammo, insonning tabiat sohibi bo'lishga yoki hukmronlik qilishga intilishi va unga faqat iste'mol manba sifatida qarashi salbiy ekologik oqibatlar kelib chiqishiga sabab bo'ldi. Ushbu maqolada ekologik muammolar haqida fikrlar berilgan. Shuningdek, ushbu muammolarni hal qilishda olib borilayotgan chora-tadbirlar bayon qilingan. Ekologik muammolarga yechim topishda fan va ishlab chiqarishni ekologiyalashtirish masalasining dolzarbligi, ahamiyati yoritilgan. Ma'lumki, bugungi ekologik muammolar texnika taraqqiyoti bilan bog'liq, rivojlanishdan to'xtamagan holda atrof-muhit musaffoligini ta'minlash qanday amalga oshirilishi mumkin? degan savolga maqolamiz orqali javob berishga harakat qildik.

Kalit so'zlar: ekologiya, fan, tabiat, texnika, taraqqiyot, qonunlar, ishlab chiqarish.

Abstract. Modern production has created environmental stress. Production is based on modern technology. The source of technology is science. So, environmental problems are related to scientific and technical progress. The laws of nature are.

Discovered with the help of science. However, man's desire to own or dominate nature and treat it only as a source of consumption has led to negative ecological consequences. Information about problems in this article. The case describes activities that are carried out in a permanent solution. The importance of resolving the of greening science and production in solving environmental problems is emphasized. As you know, in connection with the development of modern environmental problems, how can we ensure a clean environment? We tried to answer the question through our answer.

Keywords: ecology, science, nature, technology, development, laws, production.

Kirish. Inson tabiat bilan o'zaro aloqada bo'lib, uning hayotini tabiatdan alohida tasavvur qilish mumkin emas. Zaminda bitmaydigan, tugamaydigan ne'matning o'zi yo'q. Biz esa bundan ogoh bo'lishimiz zarur. Inson va jamiyat tabiatning ajralmas qismi. Inson tabiatning shunchaki bir qismi emas, balki uning ongli, aql idrokli va faol mavjudotidir. Inson hech qachon tabiatdan tashqarida, u bilan doimiy aloqa va munosabatda bo'lmasdan turib yashamagan va yashay olmaydi ham. Tabiiy resurslar, ya'ni yoqilg'i, ma'danlar, metallar, nafas olinadigan havo, ichiladigan suv, iste'mol qilinadigan go'sht, sut, don, sarxil mevalar, daryo va ko'llardagi baliqlar, har xil shifobaxsh giyohlar, turli-tuman xom ashyolar bo'lmasa, bir daqiqa ham yashay olmasligimizni juda yaxshi bilamiz, tushunamiz. Tabiiy boyliklar Ollohning odamzotga in'om etgan buyuk

ne'matlaridir. Tabiatning barcha nozu-ne'matlari, tabiiy boyliklardan bahramand bo'lishning o'zi inson uchun yuksak baxtdir. Bu baxt bir necha ming yillik tarixga ega. Bu tarix Yer yuzida insoniyat paydo bo'la boshlagan kezlardanoq boshlangan. Insoniyatning tabiat bilan bo'lgan aloqasi vaqtincha emas, balki doimiy va zaruriydir. Tabiat bilan jamiyat o'rtasidagi aloqadorlik, jamiyatning tabiatga aksincha, tabiatning esa jamiyatga kishilarning ongi va irodasiga bog'liq bo'lmagan ob'yektiv zaruriyat, qonuniyatdir. Tabiat o'ziga qilingan tajovuzlarni kechirmaydi, bugungi kunda tabiatga yetkazilayotgan zararlar, undan tinmasdan undirib olishlar oqibatida turli darajadagi ekologik muammolarni keltirib chiqarmoqda.

Ekologik muammolar qanday darajada bo'lmasin, insoniyat uchun xavfli hisoblanadi, ana shu xavfni bartaraf etish esa insoniyatning o'z qo'lida. Bu sohada olib borilayotgan ishlar ko'lami keng, ammo yetarli emas. Ekologik muammolar ijtimoiy-siyosiy ahamiyatga ega bo'lib, unga insonparvarlik va tarbiyaviy jihatdan yondashish talab etiladi. Biz o'z tadqiqot ishimizda fanlarni o'qitish jarayonida talabalarda ekologik madaniyatni shakllantirish dolzarb pedagogik muammo ekanligini ilmiy jihatdan asoslashni maqsad qilib oldik. Har qanday fan-tabiiy yoki ijtimoiy gumanitar bo'lishidan qat'iy nazar ekologiya bilan bog'liq holda olib borilishi va uning ahamiyatli tomonlariga e'tiborni qaratdik.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. XXI asr fan-texnikaning jadal sur'atlar bilan rivojlanish davridir. Atrof-muhitga, tabiiy va madaniy qadriyatlarga bo'lgan munosabatlar inson shaxsida mas'uliyat hissini va bunyodkorlik tuyg'usini shakllantirmoqda. Inson va tabiat o'rtasidagi munosabatlar rivojlanib bormoqda. Ushbu masalalar o'zbek xalqi hayotidan chuqur o'rin egallagan. Markaziy Osiyoda yashab ijod etgan buyuk mutafakkirlar Muhammad Muso al-Xorazmiy, Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Amir Temur, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Boburlarning asarlarida atrof-muhitni muhofaza qilish, tabiat boyliklarini asrash kabi masalalarning amaliy ahamiyatga doir mulohazalar mavjud.

Ayniqsa, Prezidentimiz tomonidan chiqarilayotgan qaror, farmon va qonunlarda ekologiya va ekologik ta'limotning metodologik asoslari yaratishga qaratilgan qator takliflar berilgan. Yurtboshimizning tabiiy resurslardan foydalanish, atrof-muhitga zarar etkazmaslik, yashash muhiti, mamlakatimiz tabiiy va ma'naviy ekologiyasining uzviyligi kabi g'oyalari o'z ifodasini topish bilan birga, bugungi kunda dasturilamal bo'lib xizmat qilmoqda. Darhaqiqat, ekologik ofatlarni bartaraf etish umumbashariy muammoga aylanib bormoqda. Jahon va hamdo'stlik mamlakatlari olimlari o'z tadqiqot ishlarida ushbu muammoning

nazariy va amaliy jihatlarini ishlab chiqqanlar. Ekologik ta'limning nazariy va pedagogik asoslari akademik I.D.Zverev, A.N.Zaxlebniylar tomonidan ishlab chiqilgan.

Fanlarni o'qitishda talabalarga ekologik ta'lim berishning mazmuni, metodikasi, shakli, vositalarini, ekologik ta'limning tarixiyliigi, uzluksiz ekologik ta'lim kontseptsiyasi va fan davlat ta'lim standartini ishlab chiqishdek pedagogik muammolar E.O.Turdiqulovning ilmiy tadqiqot ishlarida o'z ifodasini topgan. Ekologik ta'limning ijtimoiy falsafiy jihatlarini Yu.Shodimetov, B.Ziyomuhamedov tomonidan tahlil etilgan. L.T.Shonosirovaning ilmiy tadqiqotida ta'limgacha yoshdagi bolalarga ekologik tarbiya berish, Sh.Avazov, N.Bozorova, N.M.Egamberdieva, A.U.Nishanova, V.N.Sattorovlar ijtimoiy va tabiiy fanlarni o'qitishda ekologik ta'lim-tarbiyaga oid tadqiqot ishlarini olib borganlar.

Ekologik ta'lim-tarbiya mavzusi bo'yicha bajariladigan ilmiy tadqiqotlarda tabiiy fanlarni o'qitish jarayonida o'quv ekologik ishlarning tarbiyaviy jihatlarini ma'lum darajada asoslab berilgan. Biroq oliy ta'lim muassasalari talabalari uchun aynan fanlarni o'qitish jarayonlarida ularning ekologik madaniyatini shakllantirishga bag'ishlangan maxsus ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmagan. Shunday qilib, yosh avlodni ekologik madaniyatini shakllantirish masalasining dolzarbligi va uni amalga oshirishda fanlarni o'qitish imkoniyatlaridan foydalanish muammosini o'rganilmaganligi hamda bu sohada fan professor-o'qituvchilariga ilmiy-amaliy yordam ko'rsatish zarurligini inobatga olib, ekologik muammolarni hal etishda fanlarni ekologiyalashtirish borasida tahlillar olib borildi, jumladan kimyo fanini o'qitish jarayonida har bir mavzu atrof-muhitga yetkazilayotgan zarar bilan bog'liq holda olib borildi.

Biz tadqiqot ishi davomida talabalarda kimyo o'qitish jarayonida ekologik madaniyatni shakllantirishni amalga oshirish imkoniyatlari va ahvolini o'rganish maqsadga muvofiq, - degan xulosaga tayandik. Shunga ko'ra kimyo o'qitish metodikasi fani o'quv dasturi, darsliklar va qo'llanmalar tahlil qilindi, yirik olimlarning ish tajribalari o'rganildi. III-kurs talabalarining ekologik bilimlari va madaniyati, ularning atrof-muhitga munosabati, shuningdek guruh rahbarlari (tyutorlar) va ba'zi fan professor-o'qituvchi-olimlarining ekologik tayyorgarligini sinovdan o'tkazdik.

Pedagogika oliy ta'lim muassasasi talabalarining ekologik madaniyatining shakllanganlik darajasini boshlang'ich nuqtasini belgilash maqsadida mavjud kamchiliklarni aniqlash, so'ngra ularni bartaraf etish uchun pedagogik kuzatishlar olib borildi. Institut talabalarining ekologiyaga oid bilimlarini aniqlashda quyidagilarga e'tibor qaratildi:

- Talabalarda shu kungacha mavjud bo‘lgan ekologiyaga oid bilimlar tizimi.
- Talabalar o‘zlaridagi bor bo‘lgan bilimni amaliyotda qo‘llashi.
- Talabalarining atrof-muhit bilan munosabatlarida ekologik madaniyatning shakllanganlik darajasi.
- Talabalarining tabiatga munosabatlarining yo‘nalganlik turlari: ijobiy, salbiy, befarq.

Bugungi kunda fan-texnika jadal sur‘atlar bilan rivojlanib, inson va tabiat o‘rtasidagi tabiiy muvozanat buzilayotganligi oqibatida atrof-muhitga katta ziyon yetkazmoqda. Ona tabiatga istiqbolni ko‘zlab munosabatda bo‘lish, kelajak avlodga uni go‘zal va tabiiyligicha qoldirish-bugungi kunning muhim vazifasi. Tabiatga nisbatan inson qanchalik berahmlik bilan munosabatda bo‘lsa, tabiat ham insonga nisbatan aynan shunday javob qaytaradi. Har bir inson ongida ekologik madaniyat qay darajada shakllansa, jamiyat ham shu darajada taraqqiy etadi.

Fan yordamida tabiat qonunlari kashf etiladi. Ammo, insonning tabiat sohibi bo‘lishga yoki hukmronlik qilishga intilishi va unga faqat iste‘mol manba sifatida qarashi salbiy ekologik oqibatlar kelib chiqishiga sabab bo‘ldi. Inson atrof-muhit o‘zgarishining asosiy omillaridan biriga aylandi. Shu sabab inson omili hisobga olinmasdan o‘tkaziladigan har qanday tadqiqotlar hozirgi zamon ekologik vaziyatni haqiqiy tarzda aks ettira olmaydi. Demak, ona sayyoramizni o‘zgartirish istiqbollari belgilashda fanning barcha tarmoqlari, o‘zaro tenglik va hamkorlik yo‘lini tanlashi lozim. Ilmiy-texnika taraqqiyoti uning salbiy va ijobiy jihatlari haqida ko‘p gapiramiz. Tabiatni muhofaza etishda ilmiy-texnika taraqqiyotining imkoniyatlaridan hozircha to‘la foydalanilayotgani yo‘q. Insonni yangicha fikrlashga hayot birligini eng dastlabki biosenozi darajasida, shuningdek, butun bioqatlam miqyosida o‘rganuvchi ekologiya fanining o‘zi undamoqda.

Natijalar. Fan insonga eng ishonchli axborotlar beradi. Insoniyat bu axborotlarni qayta ishlab, tabiiy tizimlar ekologik holatining yanada yomonlashuvining oldini olishi mumkin. Binobarin, inson fan orqali tabiiy muhitdan ko‘p narsa o‘rganadi. Bilish tabiatdagi tartiblilikni aniqlash jarayonidan iboratdir. Demak, fan insonga har qanday holatni, xususan, ekologik vaziyatni yaxshilash imkonini ham beradi.

Jamiyat va tabiat o‘rtasidagi o‘zaro munosabat muammolarini hal etishda fan oldiga yangi vazifalar qo‘yilmoqda. Demak, fanning ham yangi yo‘nalishlarga yuz burishi tabiiy holdir. Bu yo‘nalishlar fanni ekologiyalashtirish g‘oyasi bilan bog‘liqdir. Bu g‘oyaning asosiy shakllaridan biri fanning rivojini ekologiyadan biologik yo‘nalishdagi boshqa fanlar (evolyutsion ekologiya, paleoekologiya)ga, Yer haqidagi fanlar (atrof-muhit ekologiyasi)ga, fizika-kimyoviy sohadagi fanlar

(geokimyoviy ekologiya, radioekologiya)ga, texnik va qishloq xo'jaligi fanlari (kosmik ekologiya, qishloq xo'jaligi ekologiyasi)ga, tibbiyot (inson fiziologiyasi ekologiyasi, inson kasalliklari ekologiyasi, tibbiyot ekologiyasi, tibbiyot geografiyasi)ga, ijtimoiy fanlar (ijtimoiy ekologiya, ma'naviyat ekologiyasi)ga o'tkazish tarzida namoyon bo'ladi.

Qayd etib o'tilgan ilmiy yo'nalishlarning rivojlanishi inson faoliyatini ekologiyalashtirish tendentsiyasi doirasida kechadi. Umumiy holda ekologiyalashtirish deyilganda, tabiatni o'zgartirish faoliyatining salbiy natijalarini minimum darajaga keltirish maqsadida insonning tabiiy muhitga ko'rsatadigan ta'siri tufayli kelib chiqilishi mumkin bo'lgan oqibatlarini hisobga olish tushuniladi. Inson faoliyatini ekologiyalashtirish bizning zamonamizga xos bo'lgan ehtiyojdir. Uni rivojlantirmasdan turib, ekologik muammoni na global, na hududiy, na mahalliy darajada hal etib bo'ladi.

Jamiyat bilan tabiiy tizimlar doimo o'zaro ta'sirda bo'lishadi. Jamiyat bilan o'zaro ta'sirlanishi jarayonida tabiiy tizimlar vaqtidagi tabiatini kompleks tadqiqot qilishga intilish - fanni ekologiyalashtirishning eng xarakterli jihatlaridan biridir. Ekologiyalashtirish insonning bilish va o'zgartirish faoliyatlari o'rtasidagi ziddiyatlarni bartaraf etadi. Tabiatshunoslikdagi ekologiyalashtirish yo'nalishi, o'z mohiyatiga ko'ra, nazariy-amaliy fanlardan iboratdir. larning vazifasi nafaqat ilmiy-texnika taraqqiyotining biosfera va inson organizmiga salbiy ta'siri yoki oqibatlarini qayd etishdangina iborat, balki inson va tabiiy muhitning o'zaro munosabatini uyg'unlashtirish kabi umumiy masalalarni ham qamrab oladi.

Fanni ekologiyalashtirishning yana bir muhim jihati shundaki, tadqiqot ob'yektlari bo'lmish inson, atrof-muhit ularning o'zaro munosabatiga ijodkorlik va mehr-muhabbat ruhida qarash lozim bo'ladi. Bunday munosabat ijtimoiy ongning barcha shakllariga, shu jumladan, fanga ham xos bo'lishi kerak. Bu borada fanga haqiqiy bilim yordam beradi. Ammo Xitoy faylasuflaridan biri aytganidek, "Haqiqiy inson mavjud bo'lgan joydagina haqiqiy bilim bo'ladi". Zero, fanning asosiy vazifasi va maqsadi odamlarga farovonlik va baxt keltirishdan iborat bo'lmog'i lozim. Aks holda, u-fan emas.

Muhokama. Ekologiyalashtirilgan ishlab chiqarishda sifat jihatdan yangi energiya manbaiga o'tiladi. Bu uning xususiyati hisoblanadi. Negaki, hozirgi zamon industrial ishlab chiqarish yonilg'ining kimyoviy turlari - ko'mir, neft, tabiiy gaz, torifdan foydalanishga asoslanilgan. Bu tabiiy boyliklar million yillar davomida to'plangan. Bugungi kunda esa ulardan juda jadal sur'atlardan foydalanilmoqda va ko'p vaqt o'tmay ular tugab qolishi ham mumkin.

Ekologiyalashtirilgan ishlab chiqarishga o'tish materiya harakatining biologik shakli, ya'ni tirik tabiatdagi modda almashinuv jarayonlari qonuniyat va xususiyatlaridan kengroq foydalanish bilan bog'liqdir. Biokimyoviy texnologiya yaratish va uni rivojlantirish, bu yo'nalishda qo'yilgan birinchi qadam hisoblanadi. Bunda asosiy ishlab chiqarish jarayonlari sanoat qurilmalari va apparatlarida emas, balki tirik hujayrada kechadi. Yangi ishlab chiqarishning eng muhim omili-ko'rinmas mikroorganizm. Aynan uning yordamida oddiy xom ashyo (ko'pincha ishlab chiqarish chiqindilari)ning murakkab va juda qimmatbaho moddaga aylanishi hodisasi yuz beradi. Boshqa usullar bilan bunday moddani olib bo'lmaydi. Masalan, mikroorganizmlar qipiqnlarni qayta ishlab, qimmatli oqsil mahsulotiga aylantirish qobiliyatiga ega. U hayvonlarning ozuqasiga qo'shimcha tarzida solinadi.

Xulosa. Qisqacha xulosa qilib aytganda, tadqiqot ishida belgilangan maqsad va vazifalar hal etildi. Fanlarni ekologiyalashtirish masalalari bo'yicha pedagogika, psixologiya, filosofiya kabi yo'nalishlardagi adabiyotlarni o'rganish, tahlil qilish shuni ko'rsatadi, entsiklopediya, lug'at, darsliklarda ekologik muammolarning ta'rifi to'liq yoritilmagan. Shuning uchun ham maqolada fanlarni ekologiyalashtirish mohiyati, tuzilishi va funktsiyalari nazariy jihatdan talqin qilindi, albatta bitta maqola orqali bu muammolarni ochib berish imkoni qiyin.

Olib borilgan tadqiqot ishlari shuni ko'rsatadiki, oliy ta'lim muassasasi talabalarida tajriba davomida ekologik his-tuyg'ular, ekologik bilimlarni rivojlantirish imkoniyati yaratildi. Talabalarning o'qishga bo'lgan qiziqishi oshib bordi. Dunyoqarashi kengayib, ekologik madaniyat rivojlandi. Ekologik norma va qoidalari talabalar faoliyatidan keng o'rin oldi. Ularda tabiatga qayg'urish, achinish kabi ekologik his-hayajon kabilar kamol topdi. Professor-o'qituvchilar, katta va kichik kishilarga, tengdoshlariga hurmat va yaxshilik qilish kabi xususiyatlar rivojlandi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Mirziyoyev Sh.M. "Kimyo sanoatini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori. 2018-yil, 26-oktabr.
2. Mirziyoyev Sh.M. "Kimyo sanoatini yanada isloh qilish va uning investitsiyaviy jozibadorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori. 2019-yil, 3-aprel.
3. Mirziyoyev Sh.M. "Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish to'g'risida"gi farmoni. 2017-yil, 21-aprel.
4. Karimova D.A., To'xtayev F.S. Sanoat ekologiyasi. T.2017.

5. Karimova D.A. Ekologik kimyo. T.2020.
6. Karimova D.A. Muhandislik ekologiyasi. T.2020.
7. Karimova D.A. Kimyo va ekologiya fanlarini o'qitishda innovatsion ta'lim texnologiyalarini joriy etish. Monografiya. T.2018.
8. Karimova D.A. O'zbekistondagi ekologik holat: muammolar, iqtisodiy va ijtimoiy sabablari. Monografiya. T.2021.
9. Karimova D.A. O'zbekona urf-odatlar orqali ekologik ta'lim-tarbiyani shakllantirish. Science and education scientific journal. Volume 2, issue 4. Aprel 2021. 341-345 bet.
10. Karimova D.A. Pedagogika oliy o'quv yurti talabalarida ekologik madaniyatni shakllantirish. O'qituvchi ilmiy, uslubiy, metodik va badiiy jurnal. 7 (27)-son, mart-2022. 1-qism. 63-67 betlar.

TARIX

BMT VA O'ZBEKISTON: GLOBAL DASTURLAR DOIRASIDAGI HAMKORLIK MASALALARI

Toshturov Shuhrat Eshonqulovich

NavDU Tarix kafedrasi dotsenti v.b.

tosturovsuhrat@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada O'zbekiston Respublikasining BMT "Ming yillik rivojlanish maqsadlari" va "Barqaror rivojlanish maqsadlari" kabi global dasturlarida ishtiroki doirasida yangi yo'nalishlarning ishlab chiqilishi, hayotga tatbiq etilishi kabi masalalar va bu borada O'zbekistonda amalga oshirilgan ishlar yoritilgan. Shuningdek, O'zbekistondagi ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, madaniy sohalaridagi rivojlanish bevosita inson taraqqiyoti konsepsiyasi bilan belgilanib, sohada erishilgan yutuqlar, mamlakatning jahon reytinglarida tobora yuqorilab borayotganligi va "Inson qadri uchun" tamoyili asosida xalqimizning farovonligini yanada oshirish maqsadida qo'lga kiritilgan bu natijalarning umumjahon miqyosida e'tirof etilayotganligi tadqiq etilgan.

Kalit so'zlar: BMT, Mingyillik rivojlanish maqsadlari, Barqaror rivojlanish maqsadlari, Yer xartiyasi, Butunjahon baxt indeksi, Dunyo ochlik indeksi, inson taraqqiyoti konsepsiyasi.

Abstract. The article deals with such issues as the development and implementation of new directions within the framework of the participation of the Republic of Uzbekistan in global programs, such as the Millennium Development Goals and the Sustainable Development Goals of the United Nations, and the work carried out in this direction in Uzbekistan. In addition, the development of the social, economic, political and cultural spheres in Uzbekistan is directly determined by the concept of human development, achievements in this field, the country's rise in world rankings and the general recognition of these results obtained in order to further improve the welfare of our people based on the principle of "for human dignity".

Key words: UN, Millennium Development Goals, Sustainable Development Goals, Earth Charter, World Happiness Index, World Hunger Index, Human Development Concept.

Kirish. O‘zbekiston Respublikasi BMT bilan ijtimoiy-iqtisodiy sohalardagi islohotlar borasida o‘zaro faol munosabatlarni yo‘lga qo‘ygan. O‘zbekiston va BMTning ijtimoiy-iqtisodiy sohalardagi islohotlar yuzasidan o‘zaro hamkorligi inson taraqqiyoti konsepsiyasi bilan belgilanadi. O‘zbekiston va BMT o‘rtasida iqtisodiy, ijtimoiy, ta’lim, sog‘liqni saqlash, davlat boshqaruvi, ekologik barqarorlik, aholi farovonligini oshirish kabi sohalarda keng ko‘lamli chuqur hamkorlik munosabatlari amalga oshirildi. Bu BMT tomonidan qabul qilingan “Mingyillik rivojlanish maqsadlari” (MRM) va “Barqaror rivojlanish maqsadlari” (BRM) kabi global dasturlar va ularning O‘zbekistonda to‘la amalga oshirilishida namoyon bo‘lishini tadqiq etish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Maqola tarixiylik, qiyosiy-mantiqiy tahlil, ketma-ketlik, xolislik kabi metod va tamoyillari asosida yoritilgan bo‘lib, unda O‘zbekiston Respublikasining BMTning global dasturlar doirasidagi ishtiroki tarixi yoritilgan. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasida BMT tomonidan qabul qilingan «Mingyillik rivojlanish maqsadlari» (MRM) va «Barqaror rivojlanish maqsadlari» (BRM) kabi global dasturlar doirasida yangi yo‘nalishlarning ishlab chiqilishi va hayotga tatbiq etilishi kabi masalalar ko‘rsatilgan.

Natijalar. Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT)ning “Mingyillik Deklaratsiya”si tashkilotga a‘zo 193 davlatning tinchliksevar, adolatli dunyo to‘g‘risidagi maqsadlarini umumlashtirib, inson huquqlari, davlat boshqaruvi va demokratiya bo‘yicha majburiyatlari doirasini belgilab bergan, global, mintaqaviy, milliy miqyosda bajarilishi lozim bo‘lgan asosiy maqsadlarni ifodaladi. Deklaratsiya 2015 yilga qadar erishilishi lozim bo‘lgan ko‘rsatkichlarni ko‘zda tutuvchi universal hujjat bo‘lib jahon tarixiga kirdi.

Mingyillik Deklaratsiyasi (United Nations Millennium Declaration) BMT Bosh Assambleyasining 2000 yil 8 sentabrdagi 55/2-rezolyutsiyasi [1] bilan ta’sis etilgan bo‘lib, u quyidagi sakkiz global vazifani qamrab olgan: 1. O‘ta qashshoqlik va ochlikka barham berish; 2. Umumiy boshlang‘ich ta’limni ta’minlash; 3. Erkaklar hamda ayollar tengligini rag‘batlantirish; 4. Bolalar o‘limini kamaytirish; 5. Onalar sog‘lig‘ini yaxshilash; 6. OITS/OIV, bezgak va boshqa kasalliklarga qarshi kurashish; 7. Ekologik barqarorlikni ta’minlash; 8. Rivojlanish maqsadlarida global hamkorlikni kengaytirish [2].

MRMga erishish global loyiha bo‘lib, u jahondagi barcha mamlakatlarga nisbatan tatbiq etildi. Bu maqsad va vazifalar muvofiqligi hamda tatbiqi nuqtai

nazaridan har bir davlatga alohida moslashgan bo'lishi juda muhim. Jumladan, O'zbekistonda MRMni amalga oshirish va hayotga tatbiq etish borasida milliy maqsadlar ishlab chiqildi [3]. Ekologik barqarorlikni ta'minlash Mingyillik Deklaratsiyaning o'ta muhim yo'nalishini tashkil etuvchi yettinchi maqsad sifatida qayd etilgan. O'zbekiston mazkur yo'nalish bo'yicha barqaror rivojlanish prinsiplarini davlat siyosati doirasiga va mamlakatda qabul qilingan dasturlarga kiritish hamda nobud bo'lgan atrof-muhit zahiralari tiklash, yaxshilanish suv manbalaridan va sanitariya xizmatlaridan bahramand bo'ladigan shahar hamda qishloq aholisi ulushini ko'paytirish masalalarida tadbirlarni amalga oshirdi. O'zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi BMTTD, Jahon Banki bilan hamkorlikda toza va xavfsiz atrof-muhitni ta'minlash masalalarida hamkorlik aloqalarini yo'lga qo'ygan. Bu borada iqlim o'zgarishi, biorang-baranglik, atrof-muhit muhofazasi va tuproq muammolari kabilar ham ustuvor, dolzarb masalalar hisoblanadi. BMT Jahon Banki, JSST O'zbekistonda salomatlik, kambag'allik va atrof-muhit borasida o'zaro aloqalarni aniqlash bo'yicha tadqiqotlarni muvofiqlashtiradi. Shuningdek, Jahon Banki va YUNISEF O'zbekiston hukumati hamkorligida aholini ichimlik suvi bilan ta'minlash hamda sanitariya, atrof-muhit masalalarida faol sherikchilik aloqalarini olib bordi[4]. Ta'kidlash kerakki, rasmiy statistika ma'lumotlariga ko'ra, respublikada atmosferani eng ko'p uglerod oksidi (53%) va oltingugurt ikki oksida (15%) ifloslantiradi. Atmosferaning yuqori darajada ifloslanishi Andijon shahrida va nisbatan ifloslanish Qo'qon, Navoiy va Toshkent shaharlarida kuzatilgan. 2015 yilga kelib ushbu muammolarning bir qismi bartaraf etildi[5].

Shu o'rinda ta'kidlash kerakki, 1992 yilda Braziliyaning Rio-de-Janeyro shahrida BMTning ijtimoiy, iktisodiy va ekologik jihatdan barqaror rivojlanish dasturini yaratishga 140 davlat vakillari ishtirokida kelishib olingan edi. Shundan so'ng 1994-1995 yillarda YUNESKO tashabbusi bilan "Yer xartiyasi" loyihasini yaratishga kirishildi va 40 mamlakatda muhokamadan o'tkazildi. 1999 yil 30 noyabr - 1 dekabr kunlari esa yakuniy muhokamalar Toshkentda o'tkazildi va qo'llab-quvvatlandi[6]. Shu o'rinda ta'kidlash kerakki, atrof-muhitni muhofaza qilish, ekologik barqarorlikni rivojlantirish borasida O'zbekiston va BMT hamkorligini yanada rivojlantirish, yuzaga kelgan ekologik muammolarni bartaraf etish uchun zarur tadbirlarni amalga oshirish lozim.

BMT MRM dasturini amalga oshirish tugallanganidan so'ng, 2015 yil 25 sentabrda tashkilotga a'zo 193 mamlakat tomonidan 2030 yilga qadar mo'ljallangan rivojlanishning yangi «Barqaror taraqqiyot maqsadlari» Deklaratsiyasi [7] (Sustainable Development Agenda) qabul qilindi. Mazkur dactur

17 ta global maqsaddan iborat bo'lib, dunyodagi global rivojlanishga qaratilgandir. Uning eng muhim jihati shundaki, bu dastur MRMning mantiqiy davomi sifatida uni yanada rivojlantirib, bartaraf etilishi lozim bo'lgan yangi maqsadlar bilan boyitgan. Ularda quyidagi maqsadlar ifodalangan: 1.Qashshoqlikni tugatish; 2.Ochlikni bartaraf etish; 3.Salomatlikni yanada mustahkamlash; 4. Sifatli ta'lim; 5. Gender tengligi; 6.Toza suv va sanitariya; 7. Arzon va toza energiya; 8.Munosib mehnat va iqtisodiy o'sish; 9. Industrlashtirish, innovatsiya, ifratuzilmalarni rivojlantirish; 10. Tengsizlikni qisqartirish; 11. Barqaror shahar va aholi punktlari; 12. Mas'uliyatli is'temol qilish va ishlab chiqarish; 13. Iqlim o'zgarishlariga qarshi kurashish; 14. Dengiz ekotizimlarini asrash; 15. Yer ekotizimlarini asrash; 16. Tinchlik, adolat va samarador institutlar; 17. Barqaror taraqqiyot yo'lidagi hamkorlik[8].

Muhokama. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 20 oktabrdagi "2030 yilgacha bo'lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalarni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori asosida BRMni amalga oshirish bo'yicha milliy vazifalar ishlab chiqildi. Qarorga asosan, 2030 yilgacha bo'lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi Milliy maqsad va vazifalar tasdiqlandi hamda ularni amalga oshirish bo'yicha Muvofiqlashtiruvchi kengash tuzildi. Ushbu Kengash BRM doirasidagi milliy maqsad va vazifalarni amalga oshirish bo'yicha mas'ul vazirlik hamda idoralarning ishlarini tashkil etadi, belgilangan maqsad va vazifalarning tarmoq, mintaqa va maqsadli rivojlantirish dasturlari, strategiyalar hamda konsepsiyalarga kiritilishini ta'minlaydi.

O'zbekiston ushbu global maqsad va vazifalarning aksariyat qismiga to'liq erishgan. Shuningdek, O'zbekistonning barqaror rivojlanishi, MRMning ham mamlakatda to'liq amalga oshirilgani dunyo hamjamiyati e'tirofiga sazovor bo'lgan. Buni O'zbekistondagi iqtisodiy-ijtimoiy, siyosiy-madaniy sohalarida erishilgan yutuqlar, mamlakatning jahon reytinglarida tobora yuqorilab borayotgani va bu natijalarning umumjahon miqyosida e'tirof etilayotganida ko'rish mumkin.

2020 yil O'zbekiston BMT ko'magida Kolumbiya universiteti professori Jefferi Saks, Londondagi iqtisodiyot maktabi direktori Richard Leyard va Britaniya Kolumbiya universiteti professori Jon Xelliuel tomonidan 2012 yildan buyon tuzib kelinayotgan Butunjahon baxt indeksi (World happiness report)da [9] 153 mamlakat orasida 38-pog'onani, MDH davlatlari orasida esa birinchi o'rinni egalladi. Ushbu hisobotda davlatlarning reytingi yalpi ichki mahsulotining aholi jon boshiga mos hissasi, davlat tomonidan fuqarolarning faolligi va ijtimoiy qo'llab-quvvatlanishi, uzoq umr ko'rish, odamlarning saylov huquqi, korrupsiya darajasi kabi mezonlar bilan o'lchanadi [10].

Xalqaro tahlillardan ma'lumki, MRM va BRMga mos ravishda O'zbekistondagi iqtisodiy, ijtimoiy farovonlik xalqaro talablarga to'la javob beradi. 2017 yili O'zbekiston Shvetsariyada jahon iqtisodiy forumi (World Economic Forum) BMTning Jahon Banki "Global iqtisodiy istiqbollar" hujjatida keltirilgan ma'lumotlar asosida tuzilgan reytingida eng tez rivojlanayotgan davlatlar qatorida 5-o'rinni egallashi davlatning iqtisodiy omillari tez va shiddatli rivojlanib borayotganligini isbotlaydi [11].

Taraqqiyot shiddat bilan borayotgan XXI asrda ham jahonning 55 ta davlatida ochlik masalasi global muammo sifatida turibdi. Shuning uchun ham BMTning BRMda jahonda ochlikni tugatish kun tartibidagi birlamchi masala sifatida ko'tarilgan. Bu borada esa O'zbekiston yutuqlari xalqaro miqyosda ham e'tirof etilmoqda. Jumladan, 2021 yilda Welthungerhilfe va Concern worldwide insonparvarlik tashkiloti hamda Oziq-ovqat siyosati xalqaro institutining 116 ta davlatni qamrab olgan "Dunyo ochlik indeksi" (World Hunger Index 2021) xalqaro hisoboti chop etildi. O'zbekistondagi oziq-ovqat siyosati va uning ijobiy natijasi e'tirof etilib, O'zbekiston ushbu reytingda 21-o'rinni [12] egalladi. Bu o'z navbatida O'zbekistonning xalqaro global muammolar yechimi bo'yicha yetakchi davlatlardan ekanini amalda yana bir bor isbotladi.

Mamlakatlarning rivojlanishi, ularning turli sohalardagi taraqqiyoti, shubhasiz, inson taraqqiyoti konsepsiyasi bilan belgilanadi. Inson taraqqiyoti konsepsiyasiga hind iqtisodchisi Amartya Kumar Sen va pokistonlik iqtisodchi Mahbub ul Haqlar tomonidan BMTTD doirasida tuziladigan "Inson taraqqiyoti to'g'risida"gi ma'ruzalar negizida asos solingan. Bu ma'ruza 1990 yildan beri muntazam ravishda har yili nashr etiladi. BMT tomonidan 2019 yilda Inson taraqqiyoti indeksining (Human Development Index) yangilangan reytingi chop etildi. Mazkur reytingda 188 davlat orasida O'zbekiston 108-o'rinni [13] egalladi. Bu xalqaro e'tirof O'zbekistondagi islohotlarda inson va uning manfaatlari birlamchi masala ekanining dalilidir. "O'zbekiston Respublikasini 2030 yilga qadar ijtimoiy iqtisodiy rivojlantirish konsepsiyasi"ga ko'ra, mamlakat Inson komoloti indeksini reytingida 40-pog'onaga ko'tarilishi prognoz qilinmoqda. Bu degani yaqin 10 yilda respublika 68 pog'onaga ko'tarilish kerak degani.

BMTning Jahon Banki guruhi tomonidan 2020 yilda "Biznes yuritish – 2020" hisoboti e'lon qilindi. Ushbu hisobot reytingida O'zbekiston 189 mamlakat orasida 7 pog'ona yuqorilab, ishbilarmonlik muhitini yaxshilashda eng yuqori ko'rsatkichga erishgan 20 mamlakat qatoriga kirdi [14].

AQShda faoliyat olib boradigan nufuzli Gallup instituti deb nom olgan ijtimoiy fikrni o'rganish markazi tomonidan "Qonuniy tartiblarga itoat qilish indeksi"

mavzusida 2015 yilda jahonning 144 mamlakatini qamrab olgan maxsus tadqiqot o'tkazildi. Tadqiqot so'rovnoma uch savol «Siz o'zingiz yashayotgan shahar yoki tumandagi mahaliy politsiyaga ishonasizmi?», «Siz o'zingiz yashayotgan shahar yoki tumanda kechasi xavf-xatardan qo'rqmasdan yolg'iz yura olasizmi?» va «Oxirgi o'n ikki oyda siz va oila a'zolaringizning pul va mol-mulki o'g'irlangan holat sodir bo'lganmi?» mazmunida qo'yilgan. O'zbekiston mazkur reyting natijalariga ko'ra, dunyodagi 141 davlat orasida 2-o'rinni egalladi.

O'zbekiston Respublikasida 2016 yil ikkinchi yarmidan boshlab siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy sohalarida tub o'zgarish va yangilanishlar jarayoni boshlandi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida»gi [15] Farmoniga asosan 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasining qabul qilinishi bu borada muhim asos bo'ldi. Mazkur beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi doirasida davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarini tubdan isloh etishga qaratilgan 300 ga yaqin qonun, 4 mingdan ziyod O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarorlari qabul qilindi. Shu maqsadda O'zbekistonda keng jamoatchilik muhokamasi natijasida "Harakatlar strategiyasidan - Taraqqiyot strategiyasi sari" tamoyiliga asosan ishlab chiqilgan yettita ustuvor yo'nalishdan iborat 2022 - 2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasining ustuvor yo'nalishlari [16] BRM maqsadlariga to'liq muvofiq keladi.

Xulosa. O'zbekiston BMT tashabbusi bilan butun dunyoda ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy hayotni rivojlantirish borasida dunyo davlatlarining o'ziga xos umumiy maqsadiga aylangan MRM va BRM global dasturlarining faol ishtirokchisi va amalga oshiruvchisi bo'ldi. MRM va BRM doirasida ulkan yutuqlarga erishdi. Inson huquqlarini ta'minlash, davlat organlarining hisobdorligi va ochiqligini kuchaytirish hamda fuqarolik jamiyati institutlari, ommaviy axborot vositalarining roli, aholi va jamoat birlashmalarining siyosiy faolligini oshirish bo'yicha tizimli ishlar amalga oshirildi. Milliy iqtisodiyotni isloh qilish borasida tashqi savdo, soliq va moliya siyosatini liberallashtirish, tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash va xususiy mulk daxlsizligini kafolatlash, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini chuqur qayta ishlashni tashkil etish hamda hududlarni jadal rivojlantirishni ta'minlash bo'yicha ta'sirchan choralar ko'rildi. Fuqarolarning ijtimoiy himoyasini kuchaytirish va kambag'allikni qisqartirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi sifatida belgilanib, aholini yangi ish o'rinlari va kafolatli daromad manbai, malakali tibbiy

va ta'lim xizmatlari, munosib yashash sharoitlari bilan ta'minlash sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarildi.

So'nggi besh yillik islohotlarning natijasida mamlakatimizda Yangi O'zbekistonni barpo etishning zarur siyosiy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy va ilmiy-ma'rifiy asoslari yaratildi. Jahon miqyosidagi murakkab jarayonlarni va mamlakatimiz bosib o'tgan taraqqiyot natijalarini chuqur tahlil qilgan holda keyingi yillarda "Inson qadri uchun" tamoyili asosida xalqimizning farovonligini yanada oshirish, iqtisodiyot tarmoqlarini transformatsiya qilish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish, inson huquqlari va manfaatlarini so'zsiz ta'minlash hamda faol fuqarolik jamiyatini shakllantirishga qaratilgan islohotlarning ustuvor yo'nalishlarini belgilab olindi.

Adabiyotlar ro'yxati:

2. United Nations Millennium Declaration. Resolution adopted by the General Assembly. A/RES/55/2. Fifty-fifth session 18 september 2000. 9 p.
3. Доклад об осуществлении целей в области развития, сформулированных в Декларации тысячелетия. Нью-Йорк: ООН, 2010. С.8р.
4. Ўзбекистонда Мингйиллик ривожланиш мақсадлари. Т., 2004. Б.4.
5. Минг йиллик ривожланиш мақсадлари Ўзбекистонда. Т.: БМТ ва Осие тараккиёт банки томонидан Ўзбекистонда чоп этилган. 2004. Б.16-17.
6. Раҳимов М., Абдимўминов О. (2018). Ўзбекистон ва БМТ: муносабатлар тарихи ва барқарор ривожланиш омиллари. -Т.: Адабиёт учкунлари. –Б.135.
7. Усмонов Б. (2009). Атроф-муҳитни муҳофаза қилиш масалалари бўйича Ўзбекистон Республикасининг халқаро ҳамкорлиги// Халқаро муносабатларнинг янги тизими ва Ўзбекистон Республикаси. Т., Б.61.
8. The agenda sustainable development. (2015). A/RES/70/1 Resolution adopted by the General Assembly on 25 September 2015. New York, September. P.35.
9. Transforming our world: The agenda for sustainable development. (2015). New York, September. P.14.
10. World happiness report 2012. Edited by John Helliell, Richard Layard and Jeffery Sachs. The Earth Institute, Columbia University. 2012.P. 155.; World happiness report 2013. Edited by John Helliell, Richard Layard and Jeffery Sachs. – New York:UN Sustainable development Solution Network. 2013. P.154. World happiness report 2015. Edited by John Helliell, Richard Layard and Jeffery Sachs. – New York:UN Sustainable development Solution Network. 2015. P.167
11. <http://namarchive.uz/asosiy-yangiliklar/144-dune-baht-indeksida->

zbekiston-nechanchi-rinda.html

12. <https://asr.uz/RU/9658/>
13. <https://dunyo.news/uz/news/qalampir-global-ochlik-indeksida-uzbekiston-nechanchi-urinni-oldi-61d6dbd56a3a7>
14. Human Development Report (2019). New York: UNDP office, -P.18.
15. Doing Business (2016). Measuring Regulatory Quality and Efficiency. Washington DC: International Bank for Reconstruction and Development/ The World Bank. -P.5.
16. Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами. 2017. №6, 70-модда
17. <https://lex.uz/docs/5841063>

SARMISHSOY MEROSINI O'RGANISHNING BA'ZI MASALALARI

Narzullayev Umidjon Ortiqovich

Navoiy davlat universiteti "Tarix" kafedrası dotsenti, tarix fanlari bo'yicha
falsafa fanlari doktori (PhD)

umidjon.narzullayev.79@mail.ru

Annotatsiya. Ushbu maqolada muallif Sarmishsoy merosining tarixiy-madaniy ahamiyatini yoritib, mazmuni, uslub xususiyatlari haqida to'xtalib o'tiladi. Shuningdek, yodgorlikning arxeolog va tarixchi olimlarimiz tomonidan o'rganilishi va fanga kiritilishi yoritilgan. Hozirgi kunda Sarmishsoy merosini avlodlarga qoldirish uni asrab avaylash borasida olib borilayotgan ishlar tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Sarmishsoy, Qoraung'ursoy, Bironsoy, qoyatosh rasmlari, petroglif, tosh va bronza davrlari, Qizilqumning mingdan bir mo'jizasi, Xalqaro arxeologik ekspeditsiya.

Abstract. In this article, the author highlights the historical and cultural significance of Sarmishsai's heritage, focusing on its substantive and stylistic features. The study of the monument by our archaeologists and historians and its inclusion in science is also highlighted. Currently, the work carried out in order to leave the legacy of Sarmishsai to generations and preserve it has been analyzed.

Keywords: Sarmishsoy, Koraungursoy, Bironsoy, rock carvings, petroglyphs, Stone and Bronze Ages, one of the thousand wonders of Kyzylkum, International archaeological expedition.

Kirish. Navoiy viloyati Navbahor tumani hududidagi Sarmishsoy tabiiy-tarixiy yodgorligi bunday noyob yodgorliklarning biri hisoblanadi. Uni o'rganish, mavjud muammolarni hal etish olimlarimiz oldida turgan dolzarb masala bo'lib qolmoqda. Ilk sivilizatsiyani boshlang'ich nuqtasi inson ma'naviy dunyosini aks

ettirgan qoyatosh tasvirlarini o'rganish va uni ijodkorlari bo'lishi ilk ajdodlarimiz ko'z oldimizda gavdalantirilishi asosida o'lkamiz qadimgi tarixini qayta jonlantirish yosh avlodni milliy o'zlikni anglash ruhida tarbiyalash omillaridan biri bo'lib xizmat qiladi.

Tariximizni ilmiy tadqiq etish asosida o'lkamizda ajdodlarimizning ongu tafakkuri bilan yaratilgan asori atiqalar, noyob qoyatosh tasvirlari, qadimgi manzilgohlarni tarixiy davrini aniqlash, o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi.

Sarmishsoy qoyatosh tasvirlari tabiiy tarixiy yodgorligi vatanimiz tarixining xilma – xil yodgorliklari orasida alohida o'rin egallaydi. Bunday tasvirlar dunyoning turli burchaklarida juda kam uchraydi. Tasvirlarda Zarafshon vohasidagi boy hayvonot dunyosi va ajdodlarimizning ilk tasviriy san'at namunalari tasvirlangan. Ajdodlarimiz tomonidan qoyatoshlarga o'yib bitilgan bu ajoyib yodgorliklar kelajak avlodga yurtimiz tarixining eng qadimgi davr tarixidan bayon etadi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Sarmishsoy qoyatosh tasvirlari X.Muhammedov tomonidan 1958 yil aniqlangan.[2] Sarmishsoy Qoratog'ning janubiy yon bag'rida, Navoiy shahridan 40 chaqirim uzoqlikda joylashgan. Sarmishsoy shimoli-sharqiy tomondan Oqtog' tizmasining qisqa adir va qirliklari bilan tutashib ketgan. Tabiati mo'tadil iqlim mintaqasi bo'lib tog'lik hudud hisoblanadi.

Bu petrogliflarni birinchi bo'lib N.Toshkentboyev ilmiy tadqiq etdi.[3] 1969 yilda O'zbekiston Fanlar Akademiyasi Tarix va Arxeologiya instituti qoshida A.Kabirov boshchiligida respublika qoyatosh rasmlarini o'rganish maxsus otryadi tuzilgan. Bu otryad 1969-1972 yillarda Sarmishsoyning o'rta qismida 6-7 kmli masofada uning asosiy rasmlari joylashgan qismini o'rgangan. Dala ishlari vaqtida Qoratog' oralig'idagi Tongotar, Bironsoy, G'o'rtut (Go'rtut), Qilichlik, Toytuyoq, Qoracharvoq, Umartol, Otchopgan va Naychaliksoy daralaridan qadimiy qoyatosh suratlarining yangi-yangi maskanlari topib, tekshirilgan va o'rganilgan. Arxeolog A.Kabirov Sarmishsoy qoyatosh tasvirlarini batafsil atroflicha tadqiq qildi.[4] A.Kabirovning bu yerda o'tkazgan bir necha dala mavsumlarida olib borgan ilmiy izlanishlari tufayli eng qadimgi odamlar, ularning mashg'ulotlari, boy hayvonot dunyosi, bir qator diniy, afsonaviy va turli xil rasmlardan iborat 3 mingdan ortiq tasvirlar o'rganildi. Uning tadqiqotlari asosida "Sarmishsoy qoyatosh tasvirlari" nomli arxeologiya, san'at tarixi uchun qimmatli ilmiy tadqiqot natijasi bo'lgan monografiya chop etildi. Monografiya uzoq yillar davomida Sarmishsoyni chuqur va atroflicha tahlil qilish, dunyoning boshqa qoyatosh tasvirlarni qiyosiy o'rganish asosida yuzaga kelgan. Bu kitobning qimmatli shundaki, Sarmishsoy qoyatosh

tasvirlari ilk bor batafsil ilmiy asosda tavsif qilindi. Har bir qoyatosh tasviri ilmiy tadqiq obyekti bo'ldi. Muallif qoyatosh tasvirlarini mifologik, diniy, san'at tarixi nuqtai nazaridan ochib berishga intilgan. Bizning fikrimizcha, A.Kabirovning bu kitobi o'lka tarixini o'rganishda tarixchilar, arxeologlar san'at tarixi uchun boy ma'lumot beradigan qimmatli manba bo'lib, keyingi tadqiqotlar uchun ham ilmiy qimmatli manba bo'lib xizmat qiladi.

Natijalar. Navoiy viloyati hududi insonlar qadimdan istiqomat qilgan makonlaridan hisoblanib, bundan qariyb yuz ming yillar muqaddam o'zlashtirilgani olimlar tomonidan isbotlangan. Mehnat qurollari va xo'jalik anjomlari uchun zarur bo'lgan tog' jinslari: chaqmoqtosh, kvars, ohaktosh va boshqa minerallarga boy konlarning mavjudligi, suv manbalari yetarli miqdorda borligi bu manzilni yashash uchun tanlashda katta ahamiyatga ega bo'lgan. Yana bir muhim tomoni shundaki, vodiyni ikki tomonida tog' etaklari, g'orlar, ungurlar, qoya osti kovaklari ko'p bo'lib, ular ibtidoiy odamlar uchun tabiiy boshpana vazifasini o'tagan. Zarafshon vodiysining tog' oldi hududlari va dashtlari faunasi juda boy bo'lgani uchun ibtidoiy odamlar bu yerdan barcha turdagi iste'mol mahsulotlarini topa olganlar. Akademik A. Muhammadjonovning ta'kidlashicha, o'tkazilgan tadqiqotlar va kuzatishlar Zarafshon vodiysining o'rta qismida joylashgan keng bu hududda aholi o'rta tosh davrining Mustye (mil.avv.150-140 ming yillar) bosqichidan boshlab yashab kelganini ko'rsatgan. Jumladan, Navbahor tumani hududidagi Uchtut mavzeidan topib o'rganilgan Muste davri chaqmoqtoshi sindirib olingan xom ashyo koni-sangbur, tosh qurollari yasash ustaxonasi va ibtidoiy odamlar makoni hamda Sarmishsoy va Biyronsoy bo'ylab jez (bronza) davridan boshlab to ilk o'rta asrlargacha o'tgan uzoq ming yilliklar mobaynida qadimgi ovchi va podachilarning qoyalarga o'yib tushirilgan turli mazmundagi tasvirlari hamda ov manzaralari kabi osori atiqalari misol bo'la oladi. [1] Binobarin, Sarmishsoy darasidagi qoyatosh suratlari Navoiy viloyati zaminida yashagan qadimgi insonlarning ma'naviyati va madaniyatidan darak beradi.

Bugungi kunda O'zbekistonning tog'lik va tog' oldi hududlaridan 100 dan ortiq qadimiy qoyatosh suratlari bo'lgan joylar mavjud. Shulardan biri bo'lgan Sarmishsoy qoyatosh yodgorligi o'zining mazmuni, mavzusi, uslub xususiyatlari va tuzilishiga ko'ra rang barangligi dunyoda e'tirof etilgan bo'lib, Soymalitosh, Angara, Lena, Baykalorti, Amur, Ural, Kareliya, Gobiston shuningdek, Afrikaning Sahroyi Kabir, Ispaniya (Altamir g'ori) va Fransiyadagi qoyatoshlariga ishlangan suratlaridan sira qolishmaydi. Vatanimiz tarixini noyob yodgorligi, Sarmishsoy tabiiy-tarixiy yodgorligi ilk sivilizatsiyani boshlang'ich nuqtalaridan biri sifatida

tavsiflanadi. Sarmishsoy qoyatosh tasvirlari tabiiy tarixiy yodgorligi Vatanimiz tarixining xilma-xil yodgorliklari orasida alohida o‘rin egallaydi.

Qoyatoshlarda Zarafshon vohasidagi boy hayvonot dunyosi va ajdodlarimizning ilk tasviriy san’at namunalari tasvirlangan. Ajdodlarimiz tomonidan qoyatoshlarga o‘yib bitilgan bu ajoyib yodgorliklar kelajak avlodga yurtimiz tarixining eng qadimgi davr tarixidan bayon etadi.

A.Kabirov Sarmishsoy yodgorligini davrlashtirishni shartli ravishda bronza davriga oidligini asoslab qator dalillarni keltiradi. Lekin ayrim tadqiqotchilar fikriga ko‘ra bu yodgorlik yoshi yanada qadimiy bo‘lishi mumkin. Buning uchun kompleks tadqiqotlar o‘tkazish zarurati tug‘iladi.

Sarmishsoy tasvirlarini o‘rganishni maqsad qilib qo‘ygan va o‘ttiz yildan ko‘proq vaqt uni tizimli o‘rgangan o‘lkashunos B.Shalatonin faoliyati diqqatga sazovordir. O‘lkashunos B.Shalatonin 1960 yildan boshlab o‘z tashabbusi bilan faol Navoiy viloyati tarixi, tabiati, geografiyasini tadqiq eta boshlagan. 1961 yil bahorida B.Shalatonin rahbarligidan o‘quvchi o‘lkashunoslar tomonidan Sarmish darasida qadimiy petrogliflarni o‘rganalishi o‘lka tarixini o‘rganishda yangi sahifani ochib berdi. Havaskor o‘lkashunos olimning bu jasorati natijasida Sarmishsoy tasvirlariga bag‘ishlangan qator ilmiy ommabop maqolalar respublika, viloyat, Navoiy shahar gazetalarida paydo bo‘ldi. Shuningdek, B.Shalatoninning maqolalari Zarafshon vohasi aholisini turli qatlamlari uchun o‘lka tarixini yangi bir qirrasini ochib berdi. Shu davrdan boshlab Sarmishsoy qoyatosh tasvirlari va viloyatimizdagi boshqa qoyatosh tasvirlarini tizimli ravishda o‘rganishga kirishildi deb hisoblash mumkin.

Qadimiyat shaydosi o‘lkashunos B.Shalatonin respublikani taniqli qadimshunos olimlari bilan muloqotda bo‘lib Sarmishsoy sirlari ustida o‘ttiz yilga yaqin ish olib bordi. Uning qator ilmiy ommabop maqolalari keng jamoatchilik, olimlar diqqatini Sarmishsoyga qaratdi. Uning barcha tadqiqotlari “Qizilqumning mingdan bir mo‘jizasi” nomi bilan chop etildi. B.Shalatonin qadimgi davr tarixini yoritishda, san’at tarixi va olimlar orasida mutaxassis sifatida tan olinib, uni ilmiy tadqiqotchi sifatida bilishadi. U o‘zini qator asarlarida, gazeta va jurnallarda e‘lon qilgan maqolalarida Sarmishsoy qoyatosh tasvirlarining noyobligi, betakrorligi va xilma-xilligi aks ettirilgan bo‘lsa, ikkinchi tomondan bu san’at durdonalarining mazmun-mohiyati, g‘oyasini ochib berishga urindi va eng asosiysi qoyatosh tasvirlarini o‘rganish, tadqiq etish asosida uning ishlanish uslubi, qiyosiy tavsifi, davrlashtirish muammolari bo‘yicha muammoli masalalariga oydinlik kiritishga harakat qilgan mahalliy o‘lkashunoslardan birinchisi bo‘ldi.

B. Shalatonin asli kasbi jurnalist bo'lsa-da, shu vaqtgacha mahalliy xalq vakillari, ziyolilar uchun farz bo'lgan ota-bobolar, ajdodlar merosini o'rganish va saqlash ishiga o'zi yevropa millatining vakili sifatida emas, shu yurtning haqiqiy farzandi sifatida jasoratli ishga qo'l urdi. O'zining 37 yillik mashaqqatli mehnati, tadqiqi natijalarini "Qizilqumning noyob mo'jizasi" kitobida to'plab chop etdi.[5] Bu kitob o'zining ilmiy qimmati bilan qoyatosh tasvirlari to'g'risidagi boshqa taniqli tadqiqotchilarning kitoblaridan qolishmaydi. Bu kitobda Sarmishsoy yodgorligi ko'p qirrali tavsif qilingan, qoyatosh tasvirlarining ishlanishi, ularning qimmati, noyobligi, san'atshunos-petroglif tadqiqotchisi nuqtai nazaridan batafsil yoritilgan. Keyingi yillarda Sarmishsoydagi qoyatosh suratlarini o'rganishda arxeologiya, antropologiya, zoologiya, geofizika tajribalaridan foydalanilgan holda yangi hozirgi zamon fan usullaridan foydalanilgan holda tadqiqot olib borilmoqda.

M. Xo'janazarov Sarmishsoy qoyatosh tasvirlarini XX asrning 60 yillardan boshlab o'rganib kelmoqda.[6] Taniqli olim tomonidan Sarmishsoyda ilgari ma'lum bo'lmagan 66 ta qoyatosh suratlarini aniqlanib, atroflicha o'rganildi. Uning izlanishlari tufayli Sarmishsoy manzilgohini o'rganishda oldinga tashlangan yana bir qadam bo'ldi. Hozirgi kunda Sarmishsoy merosini avlodlarga qoldirish uni asrab avaylash borasida, YUNESKOning madaniy merosi ro'yxatiga kiritish masalalarida ko'plab ishlar olib bormoqda. Sarmishsoy nafaqat O'zbekiston, balki Markaziy Osiyodagi dunyo fan olamidagi alohida va turli-tuman petroglifli qoyatosh suratlarini o'zida jamlagan noyob tarixiy meros hisoblanib, dunyo olimlari nigohini o'ziga rom qilgan tarixiy obyekt hisoblanadi.

2004 yilda Xalqaro arxeologik ekspeditsiya Sarmishsoyni o'rganishga kirishdilar. 2004 yil 9-10 oktabr kunlari Navoiy shahrida "Sarmishsoy tabiiy-tarixiy va madaniy merosini asrab avaylash va uni o'rganishning yangi qirralari" mavzusida ilmiy konferensiya bo'ldi. Konferensiya ishida Yaponiya, Italiya, Norvegiya, Rossiya, Pokiston, Ozarbayjon, Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikistonlik mutaxassis olimlar; arxeolog, petroglifist, biolog, ekolog, geolog va ekoturizmni rivojlantiruvchi mutaxassis ekspertlar qatnashdilar.[7] Xalqaro ekspeditsiya tarkibini bunday xilma-xil yo'nalishdagi tadqiqotchilar bilan boyligi Sarmishsoy madaniy, tabiiy, tarixiy yodgorligi naqadar ilmiy ahamiyatga ega ekanligini yana bir bor ko'rsatdi. Bu Sarmishsoyni o'rganishni yana bir bosqichga ko'tardi. Sarmishsoy qoyatosh tasvirlarining tahlili, saqlanish darajasi kabi yo'nalishlarda o'tkazildi. Shu yerni o'zida turli davlatlardan kelgan mutaxassislar o'zaro muloqot qilib, bu qoyatosh tasvirlarini saqlash, asrab-avaylash, kelajak avlodga yetkazish borasida tajriba almashdilar. Sarmishsoy tasvirlarini hozirgi

holati amalda chuqur tekshirildi va uni saqlab qolish hamda kelajak avlodga yetkazish vazifalari belgilanib, qimmatli tavsiyalar berildi.

Jumladan, bu noyob tarixiy-tabiiy yodgorlikni davlat muhofazasiga olish uni “ochiq osmon ostidagi muzey” deb e’lon qilib, qo’riqlashni amalga oshirish va muntazam ekskursiyalar uyushtirib turish maqsadga muvofiq deb topildi.[8] Petroglif bayoni va qoyatosh tasvirlarining shikastlangan qismlarini tiklashlarning yangi metodlari to’g’risida fikr almashildi. Bu yo’nalishda olimlar atroflicha ilmiy munozara qildilar. Bu yo’nalish uchun samarali qator yangi metodlar taklif qilindi. Topografik obrazlar va kartografika yo’nalishi bo’yicha fikr almashildi. Qoyatosh tasvirlarga lishayniklarning salbiy ta’sir darajasi, yemirilishi (salbiy ta’siri) uni oldini olish, bartaraf etish metodlarini ishlab chiqish taklif qilindi.[9]

Sarmishsoy tabiiy va madaniy merosini muhofaza qilish, o’rganish mavzusida xalqaro ilmiy konferensiyalar keyingi yillarda ham o’tkazib kelinmoqda. Jumladan, 2008 yilda O’rta Osiyoni tadqiq qilish instituti va O’zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Arxeologiya instituti tashabbusi bilan respublikamiz va xorijiy davlatlarning o’ttizdan ortiq mutaxassisi ishtirokida Sarmishsoy qoyatosh suratlariga bag’ishlangan xalqaro ilmiy konferensiyasi yana bir bor tashkil etildi. Unda Zarautsoy, Sarmishsoy kabi bebaho madaniy yodgorliklar muhofazasi, ular yo’qolib ketishining oldini olish maqsadida tegishli qarorlar ham qabul qilindi.

Muhokama. Sarmishsoy tabiiy-tarixiy yodgorligi nafaqat Zarafshon vohasi ko’hna tarixi, balki O’zbekiston tarixining muhim masalalarini o’rganishda asosiy manbalardan biri bo’lib, u qimmatli tabiiy-tarixiy yodgorlik va noyob tarixiy manba bo’lib qoladi. Bu dalil asosda o’lkamizda eng qadimgi odamlar yashagan va o’ziga xos madaniyat yaratilgan madaniy hudud sifatida tan olinadi. Suratlarning asosiy qismi Sarmishsoyning o’rta qismida joylashgan bo’lib, qolgan suratlar esa Qoraung’ursoy va Bironsoy dalalaridagi qoyatoshlarda o’z aksini topgan. Qadimiy davrdan xabar beruvchi ushbu suratlarni olimlar va o’lkashunoslar uch tarixiy davrga: tosh va bronza davrlari, ilk temir davrlari (sak-skif) va so’nggi davr rasmlarga bo’lib o’rganishadi.

Sarmishsoy suratlarida asosan qadimgi odamlar tasviri bilan bir qatorda ot, it, qo’y, echki, tuya, alqor, kiyik, buqa, yovvoyi to’ng’izlar tasvirlari o’z aksini topgan. Ushbu suratlarga nazar tashlar ekansiz, o’sha davr odamlari nafaqat qorin to’yqazish muammusi haqida balki, san’at va madaniyatga ham qiziqishlari borligidan dalolat beradi.

Sarmishsoy qoya tasvirlari mazmuni jihatidan ham turlichadir raqsga tushayotgan odamlar, ot minib kelayotgan kishilar, cho’pon va ov manzarasi va

boshqalar. Tasvirlarida shubhasiz ibtidoiy odamlarning kundalik hayotidan olingan tasvirlar aks ettirilgan. Bundan tashqari, voha xalqlarning uzoq o'tmishidagi tarixi, ijtimoiy tuzumi, madaniyati va diniy e'tiqodini o'rganishda hamda qimmatli arxeologik yodgorlik, bebaho san'at asari sifatida katta ilmiy ahamiyatga bo'lib, bu qoyatoshlardagi petrogliflar tariximizning o'lmas va betakror izlaridir. Demoqchimizki, ona diyorumizning har go'shasi, ijtimoiy-madaniy makoni, tarixiy yodgorliklari biz uchun muqaddas Vatan tarixidir. Vatan tarixini chuqur bilish, o'rganish esa millat farzandlarining burchidir. Qadimda bu yerda yashagan aholining turmush tarzi, diniy e'tiqodi tarixiy voqelikning jonsiz guvohi sifatida qoyatosh suratlarida ming yillar o'sha bizgacha yetib kelganligi o'zi bir xazinadir. Bu yerga qo'shni qishloq va yaqin hududlardan turli manfaatlar izlab kelgan yurtdoshlarimiz bu muzeyga ancha katta miqdorda zarar yetkazgan. Qoyatoshdagi suratlar ustiga o'z dastxatlari, ularni o'zlari bilgani holda o'zgartirishga ham harakat qilishgan. Eng yomoni bu yerdagi kremniy gipsli qoyatoshlarni buzib olish oson bo'lgani uchun ayovsiz tarzda qo'porib qurilish materiali sifatida foydalanish harakatida bo'lishgan. Mustaqillik yillarida bu hudud davlat muhofazasiga olinib, bir qator ijobiy ishlar amalga oshirildi. Ota bobolarimizdan meros qolgan ushbu madaniy yodgorlikni asrab qolishda yanada jiddiy ishlar amalga oshirish kerak, ya'ni ularni asrab avaylash, saqlash, o'chib ketayotgan ayrim suratlarni yonida uning nusxasini chizish va eskilarini asl holatini saqlagan holatda unga zarar yetkazmasdan suratda texnik, kosmetik ishlarni amalga oshirish kerak.

Xulosa. Har bir yangi avlod moddiy va an'anaviy madaniyat negizini har gal yangidan yaratmaydi, balki o'tmish avlodlar tomonidan yaratilgan mavjud madaniy boyliklarga tayanadi. Shunday ekan, bu boylikni asrash va keyingi avlodga yetkazish har birimizning mas'uliyatli vazifamizdir. Ushbu tarixiy yodgorlik, undagi suratlar qaysi davr yoki asrga teng bo'lmasin u biz uchun ota-bobolarimizdan qolgan qimmatli arxeologik ma'lumot, bebaho va qadrlil san'at asari hisoblanadi hamda yoshlarni mustaqillik ruhida tarbiyalanishga, mehnatsevar, mard, epchil bo'lishga, san'at va madaniyatni sevishga xizmat qilaveradi.

Sarmishsoy qoyatosh tasvirlarini hozirgacha O'zbekistonda ma'lum bo'lgan qoyatosh yodgorliklarining gultoji, deyish mumkin. Qoyalardagi rasmlar galereyasini o'tmish ajdodlarimiz tomonidan qoldirilgan "Zangori osmon ostidagi muzey" desak mubolag'a bo'lmaydi" deb ta'kidlaydi.[10] Turizm rivoji Sarmishsoy petrogliflarini ishlanish uslubi, bu tabiiy tarixiy yodgorlikni tavsifini ilmiy bayon qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Hozirgi kunda ham qadim yurtimizning ko'hna tarixining jonsiz guvohi bo'lgan qoyatoshlarga muhrlangan

rasmlarda aks etgan ijtimoiy-iqtisodiy voqeliklarni o'rganish dolzarbligini saqlab o'z tadqiqotchilarini chorlab qolmoqda.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Мухаммаджонов А. “Кармана” ёки “Кармина” топонимининг этимологияси ҳақида // Ўзбекистон тарихи. – Тошкент, 1999. № 2. -Б.68.
2. Ўзбекистон моддий маданияти тарихи. 32 - нашри. -Т.: Фан, 2001. - Б 24.
3. Знамя дружбы. Сармишсай музей под открытым небом. 2004 г 8 октябрь.
4. Кабиров А., Сагдуллаев А. Ўрта Осиё археологияси. – Т.: 1976. - Б 98.
5. Шалотонин Б. Тени на скалах. -Т.: 1999.; Шалотонин Б.Қизилқумнинг мингдан бир мўжизаси. -Навоий. 1997.
6. Хўжаназаров М. Наскальные изображения Сармишсая.ОНУ. № 4 - 5, 1998
7. Халқаро конференция материаллари. Навоий - 2004 йил.
8. Халқаро конференция материаллари. Навоий - 2006 йил.
9. Хўжаназаров М., Реутова М., Тодерич К. Сармишсой петроглиф мажмуасини ўрганиш бўйича илмий анжуман ва дала ишлари. // Ўзбекистонда ижтимоий фанлар, № 2005, 1 – 2 сон
10. Кабиров А. Сармишсой қоятош тасвирлари. –Тошкент.: Фан, 1976.-Б 70.

ADABIYOTSHUNOSLIK

ADABIYOTSHUNOSLIKDA BADIY OBRAZ VA OBRAZLILIK XUSUSIYATI

Suvonqulova Laylo Mahmud qizi

NavDU, tayanch doktorant

laylosuvonqulova9@gmail.com

Annotatsiya. Har bir asar muallif tomonidan yaratilar ekan uning strukturasi, obrazlar tizimi, tasvir ko'lamini vujudga keladi. Bu kategoriyalar esa asarning mazmunini va qiymatini belgilab berishda muhim ahamiyatga ega.

Mazkur maqolada o'zbek adabiyotshunosligida mavjud obraz va obrazlilik tushunchalarining mohiyati xususida fikr yuritiladi. Ushbu atamalarining mazmun-mohiyati, talqini hamda badiiy asarda tutgan o'rni haqida mulohaza bildiriladi. Obraz atamasining kelib chiqishi, etimologiyasi hamda uning jahon adabiyotidagi xususiyatlari haqida adabiyotshunoslar tomonidan keltirilgan fikrlarga izoh beriladi.

Kalit soʻzlar: badiiy asar, badiiy obraz, yadro, tasvir, mazmun, shakl, inson, antroposentrik.

Abstract. As each work is created by the author, its structure, system of images, scale of the image is created. These categories are important in determining the content and value of the work.

In this article there is an image and figurativeness in Uzbek literary studies the essence of concepts is considered. The meaning of these terms the meaning, interpretation, and place in the artistic work are discussed. The origin, etymology of the term image and its features in world literature are commented on by literary experts.

Key words: work of art, artistic image, core, image, content, form, person, anthropocentric.

Kirish. Maʼlumki sanʼatning oʻziga xos, xususan, badiiy mazmuni bor. Bu hayotning xarakterli mazmunini kengaytirilgan ijodiy oʻzlashtirish natijasi boʻlib, badiiy jihatdan tipiklashtirilgan, oʻzgartirishlar va yangiliklar bilan boyitilgan mazmuni hisoblanadi. Bu badiiy oʻzlashtirilgan xususiyat deb nomlanadi va badiiy mazmunning asosiy xususiyatidir. U badiiy asarda shaxsning ajralmas xarakteri sifatida, xarakterli hayotiy holat koʻrinishida namoyon boʻlishi mumkin. Agar badiiy mazmunning asosiy birligi hayotning badiiy oʻzlashtirilgan xususiyati boʻlsa, badiiy shaklning asosiy birligi obrazdir.

Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi. Obraz va obrazlilik adabiy tilning asosiy tashunchalaridandir. Obraz toʻgʻrisidagi ilk tushunchalarni yunon faylasufi Aristotelning “Poeziya sanʼati haqida” asarida uchratish mumkin. “Biroq Aristotel bu asarida “obraz” atamasi oʻrnida “mimesis” iborasini ishlatgan. Mimesis – taqlid demakdir. Binobarin, olim mimesis(obraz) turmushga taqlidan yaratiladi deb hisoblagan. “Obraz” atamasi birinchi bora mashhur nemis faylasufi Gegelning estetikaga oid asarlarida ishlatilgan. Bu haqidagi jiddiy taʼlimot ham ana shu olim qalamiga mansub. Gegel oʻz estetik qarashlarida sanʼat haqida fikr yuritir ekan “sanʼat – obrazlar orqali fikrlash” demakdir deb taʼkidlagan. Rus atamashunosligiga “obraz” atamasini, asosan, V.G.Belinskiy olib kirdi va bu taʼlimotni takomillashtirgan. Oʻzbek adabiyotida “obraz” atamasi oʻrniga XX asr boshlarigacha “timsol”, “tasvir”, “nusxa” kabi iboralar ishlatilgan. Asrimizning 20-30 yillarida oʻzbek atamashunosligida “obraz” atamasi kirib kelgan” [1]. Bu tushuncha oʻzining oʻziga xos xususiyatiga koʻra falsafa, psixologiya, estetika, sanʼatshunoslik, adabiyotshunoslik, til stilistikasi, didaktika, va boshqa fanlar tomonidan qoʻllaniladi.

Adabiyotshunoslikda, xususan, rus va Gʻarb adabiyotida “obraz” tushunchasi majoziy va polisemantiklik xarakterni oʻzida koʻproq mujassam etadi. Rus adabiyotshunosi I.F.Volkov obraz tushunchasiga quyidagicha taʼrif keltiradi:

“Badiiy obraz – bu haqiqiy badiiy mazmunni, ya’ni real voqelikning badiiy o’zlashtirilgan xususiyatini o’zida mujassamlashtirgan aniq hissiy vositalar tizimidir”[2]. Ya’ni obraz tizimida majozilik kuchli o’rin egallaydi, borliqdan o’zlashtirilgan holat va xarakterlar hissiy tarafdin ifoda etiladi va bularni ifodalashda so’z kategoriyasi va uning semantik xususiyatlari yetakchi o’rinni egallaydi. Badiiy obrazda real hayot xususiyati endi o’z-o’zidan, shunchaki baholash obyekti sifatida emas, balki muallifning unga bo’lgan munosabati bilan ijodiy sintez ko’rinishida namoyon bo’ladi. Muallif real hayotdan olgan shaxs, voqea- xususiyatlarga ijodiy bahosini badiiy obraz orqali namoyon etadi.

Muhokama. O’tgan asrning 20-yillaridan to hozirgi kungacha adabiyotshunoslikda badiiy obrazning tabiatini o’rganishga ikki xil yondashuv mavjud. Ayrim olimlar adabiyotdagi badiiy obrazni sof nutqiy hodisa, badiiy asarning xossasi sifatida izohlaydilar. Boshqalar esa badiiy obrazda murakkabroq hodisani, badiiy asar mazmunini o’zida mujassamlashtirgan aniq hissiy detallar tizimini ham ko’radi. Albatta, olimlar bu fikrlarni o’zlarining chuqur izlanishlari va kuzatuvlari orqali bayon qilmoqda. Ammo badiiy obrazni murakkab tushuncha sifatida qabul qilish o’rinliroqdir. Chunki badiiy obrazda asarning boshdan oyoq mazmuni aks ettirilgan holatda bo’ladi, obrazlar asarning hodisalarini hissiy jihatdan tashuvchi yadro hisoblanadi. “Paleviskiy badiiy obrazni aniq hissiy shakl detallarining murakkab o’zaro bog’lanishi, murakkab o’zaro aks ettirishda joylashgan obrazli detallar tizimi sifatida qaraydi, buning natijasida mohiyatan yangi, ulkan mazmun sig’imiga ega bo’lgan narsa yaratiladi”[3],– deya ta’rif beradi. Bir asarning badiiy obraz tizimida turli xildagi ko’chimlar, o’xshatishlar, o’ziga xos badiiy tasvir vositalarining qo’llanilishi natijasida obraz ma’nosidagi sig’im ortadi va u endi oddiy tushunchani kasb etmay, detallar bilan to’ldirilgan ko’p qobiqlardan iborat bo’lgan yadro xususiyatiga ega bo’ladi. Ya’ni asardagi butun bir voqealar va kechinmalar asar yadrosi hisoblangan – obraz atrofida aylanadi. Shuning uchun ham Belinskiy obraz tushunchasiga: “Voqelikdagi ma’lum hodisalarining mag’zini chaqib beradigan , umumlashtiruvchi ...har qanday voqeyi hodisadan yuksak... har qanday tarixdan ishonchliroqdir”[4], – deya ta’rif beradi. Asardagi obraz xoh epizodik, xoh bosh obraz bo’lsin, u voqelikning rivojlanishida o’zining o’rniga ega holatda bo’ladi. Ya’ni Bo’ri polvonmi, Nasim polvonmi, Momoqizmi, Zulfiqor polvonmi- bu obrazlarning bari katta-kichik bo’lishidan qat’iy nazar asarning umumiy mohiyatiga, mazmuniga ta’sir ko’rsatib turadi. Tabiiyki, yuqoridagi obrazlarning barchasi Bo’ri polvon hayotini tasvirlash, uning o’y-xayollari, kechinmalarini ifoda etish uchun asar strukturasi

joylashtirilgan. Ammo ularning ba'zilarini asardan ajratib olsak, unda kamchilik, kemtiklik hodisasi paydo bo'ladi.

Aslida har bir epik, lirik, dramatik tipdagi asarlarning markazida inson tushunchasi birinchi o'rinda turadi. Butun bir obrazlar tizimi, tasvir vositalari inson shaxsiyatini ko'rsatishga, uni o'quvchiga his ettirishga xizmat qiladi va bunda muallifga mazmuniy tasvirlar, shakliy tasvirlar yordam beradi. Obraz ham mana shunday tasvir vositalaridan biridir. Xo'sh, obraz shakliy tasvir vositasimi yoxud mazmuniymi?

“Dastlab shuni aytish kerakki, shakl mazmun bilan bog'liq – mazmunli shakl. Obraz esa, mazmunni ifodalovchi shakl. Ayni chog'da, obraz- ham mazmun, ham shakl hodisasi. Chunki g'oyaviy mazmun obrazlar orqali ochiladi, obrazlar esa badiiy tasvir vositalari orqali yaratiladi”[1] Muallif asar yaratishda birinchi o'rinda asar mazmuniga mos bo'lgan, uning g'oyasini tashiy oladigan obraz qidiradi. Bu obraz asarning, yozuvchi maqsadining tili hisoblanadi. Ya'ni, yozuvchi o'z obrazining harakatlari, odatlari va kechinmalari orqali gapiradi va shu harakatlarni, qahramon atrofida sodir bo'layotgan voqealarni shakliy tasvirlar orqali namoyon qiladi. Obrazning ichki kechinmalarini o'quvchiga yetkazib berishda ham shakliy tasvirga murojaat qiladi. Hatto, obrazning tashqi ko'rinish tasviri shakliy tasvirlar orqali ko'rsatilsa-da, bu mazmunga, obraz xarakteriga ta'sir ko'rsatadi. Akbarali obrazi fikrimizning yaqqol misoli bo'la oladi. Shu jihatdan mazmun va shakl o'zaro mutanosib ravishda asarda aks etishi lozim. Bu ikki tushunchaning bir biriga mosligi obrazning yuksak darajadagi tasvirini vujudga keltiradi. Biroq adabiyotshunos D.Quronov adabiy asarni yuqoridagi ikki tushunchaga ko'ra emas, uch asosni inobatga olgan holda tashkil qilinishini aytib o'tgan: “Adabiyotshunoslikda badiiy asar “shakl” va “mazmun” tarzida ikki asosga emas, uch asosga quriladi degan qarash ham mavjud. Bunday qarash kurtaklari ham antik davrlarga borib taqalsa-da, uni ilmiy jihatdan asoslagan holda fanga A.A.Potebniya olib kirgan, keyinchalik bu qarash uning shogirdlari, davomchilari tomonidan rivojlantirilgan. Unga ko'ra san'at asarining uch jihati bor: tashqi shakl, ichki shakl va mazmun. Adabiyotga tatbiqan olinganda bu mos ravishda so'z, obraz va g'oya demakdir”[5] Bu uch tushuncha ham o'zaro bog'liqlik kasb etadi. Ya'ni, g'oyani yetkazib berish uchun obrazdan, obrazni tasvirlash uchun esa so'zlardan foydalaniladi.

Badiiy obraz tushunchasi har bir asarning maqsad va mohiyatini ochib berishdagi asosiy vosita hisoblanadi. Shu jihatdan ham bu tushunchaga har bir millatning adabiyotshunosligida o'zgacha yondashilgan. Xususan, o'zbek adabiyotshunosligida ham badiiy obraz masalasi keng qamrovli tushuncha

hisoblanadi. B.Sarimsoqov "...badiiylikning mohiyatini voqelikni obrazlar vositasida in'ikos ettirish tashkil etadi. Shu bois ham badiiylik- obraz, obrazlilik demakdir"[6],– deya, asar badiiyligini oshiruvchi, uning ta'sir kuchini namoyon ettiruvchi xususiyat bu obraz ekanligini ta'kidlaydi.

Har bir tushunchaning mazmuni va mohiyatini o'rganishda, uning ichki va tashqi strukturasi tushunishda, avvalo, u atamaning mazmunini anglash lozim. Xo'sh, obraz atamasining asl ma'nosi nima? "Obraz" atamasi "raz" (chiziq) so'zidan olingan bo'lib, "raz" so'zidan "razit" ("chizmoq, yonmoq, o'ymoq") va undan "obrazit" ("cho'zib, o'yib, yo'nib shakl yasamoq") so'zi yasalgan. "Obrazit"dan "obraz" ("umuman olingan tasvir") vujudga kelgan. Aslida "obraz" slavyan tillariga xos so'z bo'lib, u voqea-hodisalarning hayolda namoyon bo'ladigan manzarasini bildiradi. Slavyanlar "obraz" deganda, avvalo, odamzotni azob-uqubatlardan saqlab qolish uchun Alloh tomonidan yuborilgan Iisus Xristos (Iso payg'ambar)ning rassomlar, haykaltaroshlar tasvirlangan qiyofasini tushunishgan [4] Badiiy obraz tushunchasi nafaqat adabiyotda, balki san'atning boshqa turlarida ham o'z vazifasini bajaradi. Hayotda sodir bo'layotgan voqea-hodisalarni aks ettiradi, ya'ni hayotning yozuvchi asaridagi suratidir. Badiiy obrazning tuzilishi, tasvirlanishi, mazmuni jihatidan adabiyotshunoslar tomonidan bir qancha xususiyatlari tasniflangan. Jumladan, D.Quronov obrazning a) individuallashtirilgan umumlashma; b) konkretlilik; d) ratsional va emotsional birlik sifatida; e) metaforiklik; f) assotsiativlik; g) tugallanmaganlik; h) ko'p ma'nolilik singari xususiyatlarini ochib bergan. Bu xususiyatlar esa obrazning shakllanishida va asar mohiyatida katta rol o'ynaydi.

Obrazlar spesifikasiga nazar tashlaydigan bo'lsak, ularning ildizlari ilohiy manbalarga borib taqaladi. Miflar, afsonalar bularning yaqqol misolidir. "Avesto"dagi Mitra, Anaxita, Kayumars, Gershasp, Elikbek kabi kuchlar orqali obrazlar sistemasi barpo etilgan. Bunda har bir obrazning ramziy ma'nosi mavjud. "Mitra – quyosh xudosi, Anaxita – yer, suv va unum ma'budasi, Gershasp obrazi xalqni ofatlardan qutqaruvchi qahramon sifatida tasvirlanadi" [7].

Bundan tashqari yozma manbalarning asosi bo'lgan o'zbek xalq og'zaki ijodidagi "Alpomish", "Kuntug'mish", "Go'ro'g'li" turkumi dostonlarida obrazlar tasvirini ko'rish mumkin. Bu dostonlardagi har bir timsol xalqning mardligini, uning ma'naviyatini, matonatini ko'rsatib berish uchun tasvirlangan. Xususan, "Alpomish" dostonidagi har bir voqea, har bir obraz, o'z xususiyatiga ko'ra, xalqning ma'naviy barkamolligini, uning teran va keng miqyosli dunyoqarashini aks ettiradi, ayolning sadoqatli muhabbatini tarannum etadi" [8]. Xalq og'zaki ijodidagi bu kabi dostonlar, xalq qo'shiqlari, ertaklaridagi butun bir obrazlardan

yozma adabiyot katta boylikka ega bo'lgan desak mubolag'a bo'lmaydi. Zero, yozma adabiyot og'zaki adabiyot namunalaridan suv ichadi.

Muallif bir asarni yaratarkan unga jon baxsh etgan holda o'quvchi ongida butun voqea-hodisalarni namoyon etish uchun turli xildagi obrazlardan foydalanadi. Ayniqsa, lirik asarlarda obrazlardan foydalanish shu asarning butun mohiyatini ochib berishda ahamiyatlidir. Chunki she'riyatda shoir sujetlardan ko'ra ko'proz his-tuyg'ularni ifoda etishni yoxud biror bir shaxsni, narsa, hodisani math etishni maqsad qiladi. Shu jihatdan ham she'riyatda obrazlar ko'lami kengdir.

Natijalar. Bu atama qadimgi o'zbek adabiyotidan boshlab hozirgi kun adabiyotiga qadar taraqqiy etib kelmoqda. Xususan, M.Qoshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" asaridagi "Qish bilan yoz manzarasi" mavsum qo'shig'ida ham ramziy obrazlarni ko'rish mumkin. Ibtidoiy davr odamlari bu ikki tushunchani yaxshilik va yomonlik kuchlari deya tasavvur etilgan va shu jihatdan ularga ramziylik bergan holatda yoz va qish deya atashni o'zlariga uyg'un deb bilishgan. Kishilar tabiat hodisalari oldida ojiz bo'lishgani uchun turli xildagi harakatlar, she'rlar, qo'shiqlar, xudolar ularni himoya qilishiga ishongan. Bundan yana bir bora amin bo'lish mumkinki, har bir asar markazida inson va uning his-tuyg'ulari turadi. V.G.Belinskiy ta'kidlaganidek, "san'atdagi eng oliy predmet – inson hisoblanarkan, demak, "obraz" atamasini insonga (badiiy asardagi insonga) nisbatan qo'llash ma'quldir". Chunki, "Yozuvchining materiali – uning o'zi kabi xususiyatlari, niyatlar, xohishlarga ega bo'lgan, did va kayfiyatlari o'zgarib turadigan insondir" (M.Gorkiy). adabiyotda ana shu Insonga va unga asoslanib hayotning qolgan barcha predmetlari, hodisalari ham insoniylashadi, Insonning badiiy kashfi uchun xizmat qiladi" [4].

Xulosa. Demak, badiiy obraz tushunchasi voqelikning yozuvchi ongidagi aksi, ko'rinishi hisoblanadi va badiiy asardagi obrazlar, asosan, inson hayoti, uning kechinmalarini aks ettirishga, ifodalashga qaratilgan bo'ladi. Shu jihatdan ham badiiy obrazning "antroposentrik" xususiyati kuchli deyishimiz mumkin. Zero, qaysi bir ijod mahsuli bo'lmasin, uning ildizida inson turadi. Ya'ni yaratuvchi ham, foydalanuvchi ham shu shaxsning o'zidir.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Boboyev, T. Adabiyotshunoslik asoslari. O'zbekiston, 2002.
2. Волков И.Ф. Теория литературы. 1995, -С.75.
3. Борисова. О содержании понятий художественный образ и образность в литературоведении и лингвистике. Вестник Челябинского

государственного университета. Филология Искусствоведение., 2009. Вып. 37. 20-26 с.

4. Umurov, H. Adabiyotshunoslik nazariyasi. A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti., 2004.

5. Quronov D. Adabiyot nazariyasi asoslari. Akademnashr., 2001.

6. Sarimsoqov B. Badiiylik asoslari va mezonlari. BOOKMANY PRINT., 2022.

7. Vohidov R., Eshonqulov H. O‘zbek mumtoz adabiyoti tarixi. O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg‘armasi nashriyoti., 2006.

8. Yo‘ldosheva, S. “Alpomish” dostonida ayollar obrazi. O‘zbek tili va adabiyoti, 2015. № 2. – B. 48-53.

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

NAVOIY DAVLAT UNIVERSITETI

A X B O R O T N O M A S I

2025, № 1

Muharrir: M.Kalonov
Musahhih: D.Jabborova
Texnik muharrir: I.Mahmudov

Manzil: Navoiy sh., Ibn Sino ko‘chasi, 45-uy.
Navoiy davlat universiteti, Bosh bino.
Tel.: (8436) 522-19-30, Faks: 225-19-30; web-sayt: *nspi.uz*
e-mail: *@nspi.uz* yoki *isfan2006@mail.ru*

Nashrga ruxsat berildi.
Times New Roman garniturası.
Nashr hisob tabog‘i – 7,6.